

KORRUPSIYA – IJTIMOIY XAVFLI ILLAT

USLUBIY QO‘LLANMA



Toshkent – 2021

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TURIZM VA
SPORT VAZIRLIGI**

**JISMONIY TARBIYA VA SPORT BO‘YICHA
MUTAXASSISLARNI
QAYTA TAYYORLASH VA MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI**

Hasanov A. X.

KORRUPSIYA – IJTIMOIY XAVFLI ILLAT

Sport ta’lim muassasalari rahbarlari, rahbar o‘rinbosarlari, jismoniy tarbiya bo‘yicha mutaxassislar, instruktor-metodistlar, trener-o‘qituvchilar va yosh sportchilar uchun uslubiy qo‘llanma.

Toshkent – 2021

UO‘K 328.185:796(072)

KBK 66.3

H 31

Hasanov, A. X.

Korrupsiya – ijtimoiy xavfli illat [Matn] : uslubiy qo‘llanma / A. X. Hasanov.

– Toshkent: ChP "Umid Design, 2021. - 106 b.

**Tuzuvchi-
muallif:**

A. X. Hasanov “Ijtimoiy fanlar kafedrası” mudiri, tarix fanlari
nomzodi, dotsent.

Taqrizchilar:

S. R. To‘rayev Nizomiy nomidagi TDPU, tarix fanlari nomzodi,
dotsent.

O. Utenov pedagogika fanlari nomzodi.

Mazkur uslubiy qo‘llanma Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni ilmiy - metodik ta‘minlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish markazi Ilmiy - metodik kengashi majlisining qarori bilan nashrga tavsiya qilingan. (2019-yil 4-iyun, 6 - sonli bayonnoma).

"Biz jamiyatimizda shunday huquqiy madaniyatni shakllantirishimiz kerakki, unga muvofiq Konstitutsiya va qonunlarga amal qilish, boshqalarning huquq va erkinliklari, sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilish majburiyat emas, balki kundalik qoida va odatga aylanishi shart".

Shavkat Mirziyoyev.

ANNOTATSIYA

O'quv qo'llanmada muallif sport ta'lim muassasalari mutaxassislarining yuksak huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini shakllantirish, ularda korrupsiyaga qarshi qat'iy qarshi pozitsiyani va korrupsiyaga qarshi kurashishni tarbiyalash, o'quv mashg'ulotlari jarayonida huquqiy yo'nalishdagi qadriyatlarni tinglovchilar qalbi va ongiga singdirish masalalariga e'tibor qaratadi.

Muallifning ta'kidlashicha, sportchi o'quvchilarning huquqiy madaniyati ularning huquqiy bilimlari, ko'nikmalari, korrupsiya holatlariga munosabatlari, ma'naviy-huquqiy qadriyatlar asosidagi qarashlari, xulq - atvorlari yig'indisi, shuningdek, huquq talablariga rioya etish va shaxsiy ijtimoiy faol pozitsiyalari ifodasidir.

Mazkur o'quv qo'llanmada sport ta'lim muassasalari o'quvchilarining huquqiy madaniyatini shakllantirish, ularning korrupsiyaga qarshi kurash pozitsiyalarini hosil qilish masalalariga keng o'rin ajratilgan. Shuningdek, qo'llanmada sport ta'limi jarayonlarini tashkil etishning huquqiy asosi sifatida qonun xujjatlarining mazmuni va mohiyati yoritib berilgan. Sport ta'limining normativ huquqiy asosi sifatida qonun osti xujjatlarining o'rni va roli masalasi ham uslubiy qo'llanmada rasmiy hujjatlar asosida o'rganilgan

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Bugungi kunda jahon miqyosida hal etilishi lozim bo‘lgan muammolardan biri korrupsiya muammosidir. Zero, ushbu illat nafaqat islohotlar yo‘liga jiddiy to‘siq bo‘lishi, balki demokratik rivojlanish davrida belgilangan maqsadlarga erishishga ham bevosita tahdid tug‘dirmoqda.

Mamlakatimizda mazkur muammoga qarshi kurash masalasiga mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq jiddiy e‘tibor qaratib kelin moqda . O‘tgan davr mobaynida korrupsiya va jinoyatchilikka qarshi kurashish hamda uning oldini olishga qaratilgan mustahkam huquqiy baza va tizimli amaliyot shakllandi. Eng avvalo, respublikamizda Birlashgan Millatlar Tashkiloti homiyligida qabul qilingan EKOSOS (BMTning iqtisodiy va ijtimoiy kengashi)ning Korrupsiyaga qarshi kurash rezolyusiyasi (1995-yil), Davlat mansabdor shaxslarining xalqaro axloq kodeksi (1996-yil.), Xalqaro tijorat tashkilotlarida korrupsiya va poraxo‘rlikka qarshi kurash haqidagi deklaratsiya (1997- yil), Millatlararo uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash konvensiyasi (2000-yil) va boshqa xalqaro hujjatlarning qabul qilingani mazkur illatga qarshi kurashda muhim omil vazifasini o‘tamoqda.

Xalqaro hujjatlar ichida BMT Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan Korrupsiyaga qarshi konvensiya (2003-yil 31-oktyabr) asosiy xalqaro-huquqiy hujjat bo‘lib, u ushbu jinoyatning mohiyatini to‘liq ochib, unga qarshi kurash choralarini belgilab berdi.

Barcha mamlakatlar korrupsiya illatini tag-tomiri bilan qo‘porib tashlashda xalqaro hamjamiyat bilan hamkorlik qilayotgan bo‘lsada, unga qarshi kurash har bir davlatning o‘zida olib borilishi muhim ahamiyatga ega. Zero, yuqoridagi Konvensiya milliy qonunchilikni yanada takomillashtirish yo‘nalishlarini belgilab beradi. Mamlakatimiz 2008-yil 7-iyulda BMTning yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan Konvensiyasiga qo‘shildi.

Davlatimiz 2010-yil mart oyida Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti doirasida qabul qilingan korrupsiyaga qarshi kurashning Istanbul rejasiga (2003-yil 10-sentyabr) qo‘shilgan. Shuningdek, Oliy Majlis tomonidan Jinoiy daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo‘yicha Yevroosiyo guruhi to‘g‘risidagi bitimi (Moskva, 2011-yil 16-iyun) 2011-yil 13-dekabrda ratifikatsiya qilingan.

Davlat organlarida ham tashkiliy jihatdan qator ishlar amalga oshirilgan. Jumladan, O‘zbekiston Bosh prokuraturasi va Ichki ishlar

vazirligi tizimida korrupsiyaga qarshi maxsus tuzilmalar (boshqarma va bo‘limlar) tashkil etilib, qator vazirlik va idoralarda ichki xavfsizlik inspeksiyalari tuzilgan. 2020-yilning boshida esa Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatida “Korrupsiyaga qarshi kurashish va sud-huquq masalalari qo‘mitasi tashkil etildi. Ularning faoliyatini yanada jonlantirish, huquqiy targ‘ibotini kuchaytirish, shu jumladan, huquqni muhofaza qiluvchi organlarning jamoatchilik bilan aloqalarini mustahkamlash maqsadida internet va ommaviy axborot vositalari imkoniyatlaridan keng foydalanilmoqda.

2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Ilm, ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturini izchil ro‘yobga chiqarish, shuningdek, jamiyat va davlat hayotining barcha sohalarida korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashishga qaratilgan davlat siyosatining samaradorligini oshirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida PF-6013-son Farmoniga asosan O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish Agentligi tashkil etildi.

Agentlik korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasida davlat siyosatini shakllantirish va amalga oshirish, davlat organlari, ommaviy axborot vositalari, fuqarolik jamiyati institutlari va boshqa nodavlat sektor vakillarining birgalikdagi samarali faoliyatini ta’minlash, shuningdek, mazkur sohadagi xalqaro hamkorlik uchun mas’ul bo‘lgan maxsus vakolatli davlat organi hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2019-yil 27-may PF-5729-son farmoni bilan Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha respublika idoralararo komissiyasining yangilangan tarkibi tasdiqlandi. 2019-yilning 1-avgustidan boshlab eksperiment tariqasida, jamoatchilik va yetakchi ekspertlarni, shu jumladan, xorijiy ekspertlarni jalb etgan holda dastlabki bosqichda kapital qurilish va oliy ta’lim sohalarida “Korrupsiyasiz soha” loyihasi amalga oshiriladigan bo‘ldi. Bu loyiha 2020-yil 1-apreldan boshlab boshqa sohalarga ham bosqichma-bosqich joriy etilishi nazarda tutildi.

Aytish joizki, O‘zbekiston Markaziy Osiyoda birinchilardan bo‘lib “Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni

moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonunni qabul qildi. Ushbu Qonun ijrosini ta'minlash yuzasidan Adliya vazirligi tomonidan bir qator idoraviy normativ-huquqiy hujjatlar davlat ro'yxatidan o'tkazilgan.

Bundan tashqari, Adliya vazirligi va Bosh prokuratura tomonidan BMT Konvensiyasi talablaridan kelib chiqqan holda normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarining aksilkorrupsiyaviy ekspertizasini o'tkazish metodikasi ishlab chiqilgan va 2011-yil 20-oktabrda tasdiqlangan.

Bu yo'nalishda 2017-yil 3-yanvarda "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida", 2017-yil 7-sentabrda "Huquqiy axborotni tarqatish va undan foydalanishni ta'minlash to'g'risida" O'zbekiston Respublikasining qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-yanvardagi PF-5618-son farmoni bilan "Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida" va shu farmonga 1-ilova sifatida "Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish konsepsiyasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-maydagi PF-5729-sonli O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida farmoni va farmonga 1-ilova sifatida 2019-2020- yillarda korrupsiyaga qarshi kurashish davlat dasturi (4 ta bo'lim va 35 banddan iborat) ning qabul qilinishi juda katta qadam bo'ldi

Yoshlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish har qanday davlat va jamiyat taraqqiyotiga zamin yaratishi turgan gap va bu mutaxassislar tomonidan asoslab berilgan. Dunyoda globallashtirish jarayonlarining jadallashuvi, ijtimoiy - huquqiy ziddiyatlarning kuchayib borayotganligi bois ikki milliarddan ortiq yoshlarning ongi va dunyoqarashini o'zgartirishga qaratilgan kurash avj olmoqda. Yoshlar huquqiy madaniyatining darajasi ertangi kun taraqqiyotini belgilab berishi munosabati bilan mazkur masala tobora global va dolzarb ahamiyat kasb etmoqda

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi tomonidan yoshlarni ijtimoiy - huquqiy va siyosiy jihatdan faol va korrupsiya holatlarigi betoqat qilib tarbiyalash masalasi ustuvor yo'nalish sifatida e'tirof etilgan. Yoshlarning ma'naviyatini, g'oyaviy immuniteti, huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishning metodologik asoslarini takomillashtirish, innovatsion usul va vositalarini yaratish, ushbu tizimni rivojlantirishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish zaruratini ko'rsatmoqda.

Respublikamiz aholisining oltmish foizidan ortig'i yoshlar ekanligidan kelib chiqib, yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish va yoshlarning manfaatlarini har tomonlama va to'la-to'kis huquqiy himoya qilishga alohida e'tibor berilib, qator maqsadli chora - tadbirlar ro'yobga chiqarilmoqda. Davlatimiz rahbari bu xususda «... ma'lumki, yosh avlod tarbiyasi hamma zamonlarda ham muhim va dolzarb ahamiyatga ega bo'lib kelgan. Ammo biz yashayotgan XXI asrda bu masala haqiqatan ham hayot - mamot masalasiga aylanib bormoqda», deb alohida qayd etdi. Shu bois, davlatimizning bir qancha rasmiy hujjatlarida mustaqil fikrlaydigan, Vatanimiz istiqboli uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir, tashabbuskor, shijoatli yoshlarni tarbiyalash ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 22-apreldagi PQ-4296-son "Bola huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori, 2008-yil 7-noyabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi qonuni, O'zbekiston Respublikasining "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son, 2017-yil 5-iyuldagi "Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi PF-5106-son, 2018-yil 25-yanvardagi "Umumiy o'rta, o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5313-son farmonlari, shuningdek, 2017-yil 14-martdagi "Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2883-son, 2018-yil 14-avgustdagi "Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim - tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3907-son qarorlari va mavzuga oid boshqa qonun va qonunosti hujjatlarida belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur uslubiy qo'llanma muayyan darajada xizmat qiladi.

Uslubiy qo'llanmaning maqsadi - sport ta'lim muassasalari o'quvchilarida korrupsiyaga qarshi kurash ruhini shakllantirish, ularda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishning qonunchilik

asoslarini takomillashtirish hamda uni qo‘llash amaliyoti samaradorligini oshirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlabchiqishdan iborat.

Uslubiy qo‘llanmada sportchi o‘quvchi yoshlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirish nuqtai nazaridan yoshlarga oid davlat siyosatining maqsadi va mazmunini tahlil etish; ularda korrupsiya holatlariga betoqatlik ruhini paydo qilish usullari va sport ta‘lim tizimi o‘quvchilari huquqiy ongi va huquqiy madaniyatining o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash, ularni ilmiy tavsiflash, sportchi o‘quvchilar tarbiyasiga huquqiy va siyosiy institutlarning ta‘sirini ochib berish; sport ta‘limi tizimi yoshlarining huquqiy va siyosiy madaniyati holatini o‘rganish va tahlil qilish, sportchi o‘quvchilarning huquqiy va siyosiy madaniyatini yuksaltirishda davlat va fuqarolik jamiyati institutlarining hamkorligini takomillashtirish istiqbollari aniqlash; sport ta‘limi tizimida yoshlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishning ahamiyatini ko‘rsatib berish hamda uning samaradorligini oshirishga doir takliflar ishlab chiqish; yoshlarga oid davlat siyosati bo‘yicha amaldagi qonun hujjatlarini takomillashtirish, ularni qo‘llash amaliyotining sifatini oshirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish va boshqalar.

Uslubiy qo‘llanmaning vazifalari:


- sport ta‘lim muassasalarida yosh sportchilarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, ularda korrupsiyaga qarshi kurashish madaniyatini shakllantirish, dunyoqarashini kengaytirish;

- malaka oshirish kurslari tinglovchilari va yosh sportchilarni korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlar bilan yaqindan tanishtirish ;

- tinglovchilar va yosh sportchilarda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi rasmiy hujjatlardan foydalanish va amalda qo‘llash ko‘nikmasi va malakalarini shakllantirish;

tinglovchilar va yosh sportchilarda korrupsiyaga qarshi kurash sohasidagi hamda huquqiy madaniyatni shakllantirish va yuksaltirishga oid rasmiy hujjatlarga amal qilish va ularni ijrosini ta‘minlash.

Qo‘llanmadan foydalanish bo‘yicha tavsiyalar



Ushbu qo‘llanmani o‘rganish jarayoni samarali kechishi uchun quyidagi tavsiyalarga amal qilishingiz maqsadga muvofiq bo‘ladi:

Diqqat-e‘tibor. Qo‘llanma materiallarini o‘rganish jarayonida e‘tiborli bo‘lishingiz, rasmiy hujjatlarni chuqur o‘rganishingiz va topshiriqlarni o‘z vaqtida bajarishingiz ko‘zlangan maqsadga yetishda yordam beradi.

Hamkasblar va tengdoshlar bilan hamkorlik. Agar masalalarni o‘rganish jarayonida tushunarsiz holatlarga duch kelsangiz, savollaringizni yozib boring va ularni ustozlardan, trener - o‘qituvchilar bilan muhokama qiling.

Tezkorlik. Yuzaga kelgan muammolarning yechimini bir nechta mavzu o‘tganidan keyin emas, shu mavzuning yakunidayoq topishga harakat qiling.

Atamalar aniqligi. Qo‘llanma matnida yoki mashg‘ulot jarayonida Sizga notanish bo‘lgan so‘z, ibora yoki atama qo‘llanilsa, mazmunni to‘liq anglash maqsadida uning ma‘nosini hamkasblaringiz, o‘qituvchilar yoki qo‘shimcha adabiyotlar yordamida albatta bilib oling.

Muhim o‘rinlar. Qo‘llanma materiallarini o‘rganish davomida tegishli xulosa chiqarish va o‘z faoliyatingizda qo‘llashingiz uchun foydali o‘rinlarni belgilab qo‘ying.

Nazariya bilan amaliyot birligi. Qo‘llanma materiallari orasida ma‘lum masalalar yuzasidan nazariy ma‘lumot berilgan. Ularni o‘rganish davomida o‘z tajribangizga va trener - o‘qituvchi ko‘rsatmalariga asoslaning. Bilimsiz tajriba va tajribasiz bilim kuchga ega emasligini yodda tuting.

O‘zgarishga tayyor bo‘ling. Avval o‘rganmagan birorta rasmiy hujjatga, nazariy va amaliy yangilikka duch kelsangiz, uni qabul qilishga doim tayyor bo‘ling. Tavsiya etilayotgan rasmiy hujjatning mazmun - mohiyatini tushunib oling, mashg‘ulotlar jarayonida ularda belgilanagn vazifalarni bajarishga harakat qiling.

Har bir bo‘lim yakunida berilgan savol va topshiriqlar asosida o‘z bilim, bilim, ko‘nikma va malakalaringizni hamda kompetensiyagizni baholab boring

I. Korrupsiyaga qarshi xalqaro kurash siyosati va rasmiy hujjatlar

Korrupsiya - mansab mavqeidan shaxsiy maqsadlarda foydalanish bilan bog'liq bo'lgan jinoyatdir. Korrupsiya faoliyati xufyona iqtisodiyotning asosiy turlaridan biri hisoblanadi. Aksariyat hollarda korrupsiya deganda davlat amaldorlari tomonidan shaxsiy manfatlarni ko'zlab, boylik orttirish maqsadida fuqarolardan pora olish, qonunga xilof pul daromadlarini qo'lga kiritish tushuniladi. Ammo, umuman olganda, davlat amaldorlarigina emas, balki, masalan, firmalarning menejerlari va boshqa soha mutuxassislari ham korrupsiyaga doir munosabatlarning ishtirokchilari bo'lishi; pora pul bilan emas, balki boshqa shaklda berilishi mumkin.

“Korrupsiya” lotincha “corruptio” bo'lib, ma'nosi “buzish, sotib olish”dir. Korrupsiya jamiyatni iskanjaga oladigan dahshatli illat. U demokratiya va huquq ustuvorligiga putur yetkazadi, inson huquqlari buzilishiga olib keladi, bozor munosabatlariga to'sqinlik qiladi, hayot sifatini yomonlashtiradi va xavfsizlikka tahdid soladi, uyushgan jinoyatchilik, terrorizm va boshqalar ildiz otishi uchun sharoit yaratib beradi. (BMTning Korrupsiyaga qarshi Konvensiyasidan).

“Korrupsiya - shaxsiy manfaat uchun davlat hokimiyatini suiiste'mol qilishdir” (Jahon bankining “Hozirgi dunyoda davlatning roli”ga bag'ishlangan hisobotidan).

“Finansial Times” gazetasi 1995-yilni “Korrupsiyaga qarshi kurash yili” deb e'lon qildi

BMT korrupsiyaga oid savodxonlikni tashviqot qilish maqsadida 9 dekabr kunini “Korrupsiyaga qarshi kurashning xalqaro kuni” deb e'lon qildi.

Ushbu bo'limni o'rganish natijasida quyidagilarni bilib olasiz:

Etimologik jihatdan korrupsiya atamasining lug'aviy ma'nosini;

BMTning korrupsiyaga qarshi kurash sohasidagi hujjatlari, Yevropa Kengashi va Yevropa Ittifoqining korrupsiyaga qarshi kurash sohasidagi hujjatlari,

Boshqa xalqaro tashkilotlarning korrupsiyaga qarshi kurash borasidagi hujjatlari;

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi doirasida korrupsiyaga qarshi kurash borasida qabul qilingan hujjatlar haqida ma'lumotlarga ega bo'lasiz;

BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasining mazmuni bilan tanishasiz;

O'zbekiston Respublikasida BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasining ratifikatsiya qilinishi;

Korrupsiyani asosiy turlar va uchta asosiy shaklini bilib olasiz;

Yuridik ensiklopediya mualliflarining ta'kidlashicha korrupsiya – mansabdor shaxslar tomonidan ularga berilgan huquqlar va hokimiyat imkoniyatlaridan shaxsiy boylik orttirish uchun foydalanishda ifodalanuvchi siyosat yoki davlat boshqaruvi sohasidagi jinoiy faoliyatdir.

Yuridik atamalar qomusiy lug'atida korrupsiya tushunchasiga - davlat funksiyalarini bajarish vakolatiga ega bo'lgan (yoki ularga tenglashtirilgan) shaxslarning noqonuniy tarzda moddiy va boshqa boyliklar, imtiyozlarni olishda o'z maqomi va u bilan bog'liq imkoniyatlardan foydalanishi, shuningdek, bu boylik va imtiyozlarni jismoniy yoki yuridik shaxslar qonunga xilof ravishda egallashiga imkon berishi, deb ta'rif berilgan.

Buni unutmang!

Korrupsiya - mansab mavqeidan shaxsiy maqsadlarda foydalanish bilan bog'liq bo'lgan jinoyatdir. Korrupsiya faoliyati xufyona iqtisodiyotning asosiy turlaridan biri hisoblanadi. Aksariyat hollarda korrupsiya deganda davlat amaldorlari tomonidan shaxsiy manfatlarni ko'zlab, boylik orttirish maqsadida fuqarolardan pora olish, qonunga xilof pul daromadlarini qo'lga kiritish tushuniladi.

Yana boshqa adabiyotlarda e'tirof etilishicha, korrupsiya atamasi siyosat yoki davlat boshqaruvi sohasidagi jinoiy faoliyat bo'lib, mansabdor shaxslar o'zlariga berilgan huquqlar va hokimiyat imkoniyatlaridan shaxsiy boyish maqsadida foydalanishidan iborat, deb tavsiflangan.

1979-yil 17-dekabrda qabul qilingan Huquqiy tartibotni saqlash bo'yicha mansabdor shaxslarning xulq - atvor kodeksida: "Korrupsiya tushunchasi milliy huquqda belgilanishi lozim", deb qayd etilgan, va mazkur hodisaning namunaviy ta'rifi keltirilgan:

“...mansabdor shaxs o‘z mansab vakolatlari sohasida har qanday shakldagi haq evaziga mazkur haqni beruvchining manfaatlarida, lavozim yo‘riqnomasi qoidalarini buzgan holda yoki buzmasdan muayyan harakatlarni bajarishi yoki harakatsizligi”.

BMTning xalqaro miqyosda korrupsiyaga qarshi kurash bo‘yicha Ma‘lumotida shunday deyilgan: “Korrupsiya - bu shaxsiy maqsadlarda naf ko‘rish uchun davlat hokimiyatini suiiste‘mol qilish”. Korrupsiya tushunchasiga berilgan shunga o‘xshash ta‘rifga Jahon bankining “Hozirgi dunyoda davlatning roli”ga bag‘ishlangan hisobotida ham duch kelish mumkin: korrupsiya - bu shaxsiy naf ko‘rish yo‘lida davlat hokimiyatini suiiste‘mol qilish.

BMTning korrupsiyaga qarshi kurash sohasidagi hujjatlari:

1. “Huquqiy tartibotni saqlash bo‘yicha mansabdor shaxslarning xulq-atvor Kodeksi”. (BMT Bosh Assambleyasining Rezolyusiyasi bilan 1979-yil 17-dekabrda qabul qilingan);

2. Huquqiy tartibotni saqlash bo‘yicha mansabdor shaxslarning xulq-atvor Kodeksini samarali amalga oshirilishi uchun rahbariy prinsiplar. (BMTning Iqtisodiy va Ijtimoiy Kengashi rezolyusiyasi bilan 1989-yil 24-mayda qabul qilingan);

3. Davlat mansabdor shaxslarining Xalqaro xulq-atvor kodeksi. (BMT Bosh

Assambleyasining Rezolyusiyasi bilan 1996-yil 12-dekabrda qabul qilingan);

4. BMTning Xalqaro tijorat operatsiyalarida korrupsiya va poraxo‘rlikka qarshi kurash to‘g‘risidagi Deklaratsiyasi. (BMT Bosh Assambleyasining Rezolyusiyasi bilan 1996-yil 16-dekabrda tasdiqlangan);

Buni bilib oling!

Korrupsiya - shaxsning o‘z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o‘zga shaxslarning manfaatlarini ko‘zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish;

5. Terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurash to'g'risidagi xalqaro konvensiya. (BMT Bosh Assambleyasining Rezolyusiyasi bilan 1999-yil 9-dekabrda qabul qilingan);

6. BMTning Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash to'g'risidagi Konvensiyasi. (BMT Bosh Assambleyasining Rezolyusiyasi bilan 2000-yil 15- noyabrda qabul qilingan);

7. BMT Forumining ofshorlar bo'yicha Kommyunikesi. (Kayman orollari, 2000-yil 30-31-mart);

8. BMT Bosh kotibining korrupsiyaga oid ma'ruzasi. (Vena, 2001-yil 8-17- may);

9. Korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha chora-tadbirlar to'plami. (2001-yil iyun);

10. Korrupsiyaga qarshi kurash choralari. Pulni tozalashga qarshi kurash choralari. Jinoyatchilik va odil sudlov: XXI asr chorloviga javoblar to'g'risidagi Vena deklaratsiyasini amalga oshirish harakat Rejasi (BMT Bosh Assambleyasining Rezolyusiyasi bilan 2002-yil 15-aprelda qabul qilingan).

Yevropa Kengashi va Yevropa Ittifoqining korrupsiyaga qarshi kurash sohasidagi hujjatlari:

1. Yevropa Kengashining jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni tozalash, aniqlash, olib qo'yish va musodara qilish to'g'risidagi Konvensiyasi. (Strasburg, 1990-yil 8- noyabr);

2. Moliyaviy tizimdan pulni tozalash maqsadlarida foydalanishga yo'l qo'ymaslik to'g'risidagi YeII Direktivasi. (199-yil 10-iyun);

3. Ish yuzasidan xalqaro operatsiyalarni amalga oshirishda chet ellik davlat

Yodda saqlang!

Yuridik atamalar qomusiy lug'atida korrupsiya tushunchasiga davlat funksiyalarini bajarish vakolatiga ega bo'lgan (yoki ularga tenglashtirilgan) shaxslarning noqonuniy tarzda moddiy va boshqa boyliklar, imtiyozlarni olishda o'z maqomi va u bilan bog'liq imkoniyatlardan foydalanishi, shuningdek, bu boylik va imtiyozlarni jismoniy yoki yuridik shaxslar qonunga xilof ravishda egallashiga imkon berishi, deb ta'rif berilgan.

mansabdor shaxsi tomonidan pora berishga qarshi kurash to'g'risidagi Konvensiya. (Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OESR) tomonidan qabul qilingan 1997- yil 21-noyabr);

4. Korrupsiyaga qarshi kurashning yigirmata prinsipi. (Evropa Kengashi Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan 1997-yil 6-noyabr);

5. Yevropa Kengashining korrupsiya uchun jinoiy javobgarlik to'g'risidagi Konvensiyasi. (Strasburg, 1999-yil 27-yanvar);

6. Yevropa Kengashining korrupsiya uchun fuqarolik-huquqiy javobgarlik to'g'risidagi Konvensiyasi. (Strasburg, 1999-yil 9-sentyabr);

7. Davlat xizmatchilari uchun Model-xulq - atvor kodeksi. (Evropa Kengashi Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan 2000-yil 11-may);

8. Pulni tozalashga qarshi Parij deklaratsiyasi (Evropa Ittifoqining pulni tozalashga qarshi parlamentar konferensiyasining Yakuniy deklaratsiyasi. 2002-yil 8-fevral).

9. Siyosiy partiyalarni va saylov kampaniyasini moliyalashtirishda korrupsiyaga qarshi yagona qoidalar. (Evropa Kengashi Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan 2003-yil 8-aprel);

Unutmang!

Etimologik jihatdan "korrupsiya" atamasi "buzish, pora evaziga og'dirish" degan ma'noni anglatadigan lotincha "corruptio" so'zidan ham kelib chiqqan. Yuridik ensiklopediya mualliflarining ta'kidlashicha korrupsiya – mansabdor shaxslar tomonidan ularga berilgan huquqlar va hokimiyat imkoniyatlaridan shaxsiy boylik orttirish uchun foydalanishda ifodalanuvchi siyosat yoki davlat boshqaruvi sohasidagi jinoiy faoliyatdir.

Boshqa xalqaro tashkilotlarning korrupsiyaga qarshi kurash borasidagi hujjatlari:

1. Korrupsiyaga qarshi kurash to'g'risidagi Amerikaaro konvensiya. (Karakas, 1996- yil 29mart);

2. "Uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash to'g'risida"gi tavsiyaviy qonunchilik akti. (MDH Parlamenlararo assambleyasining qarori bilan qabul qilingan 1996-yil 2- noyabr). (MDH Parlamenlararo assambleyasining XIII plenar yig'ilishida qabul qilingan 1999-yil 3-aprel);

4. Adliya va xavfsizlik organlari xodimlariga nisbatan korrupsiyaga qarshi kurash va ularning vijdonli va pok bo'lishini ta'minlash choralari bo'yicha umumiy tavsiyalar. (Korrupsiyaga qarshi kurash masalalari bo'yicha Global forum, Vashington, 1999-yil 24-26-fevral).

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi doirasida korrupsiyaga qarshi kurash borasida qabul qilingan hujjatlar:

1. Jinoyatchilikka qarshi kurashda Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligiga ishtirokchi davlatlarning hamkorligi to'g'risidagi Kelishuvi. (Moskva, 1998-yil 25-noyabr);

2. "G'ayriqonuniy yo'ldan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshilik qilish to'g'risida"gi Namunaviy qonuni. (MDH Parlamentlararo assambleyasining XII plenar yig'ilishida qabul qilingan 1998-yil 8-dekabr);

3 "Korrupsiyaga qarshi siyosatning qonunchilik asoslari to'g'risida"gi Namunaviy qonun. (MDH Parlamentlararo assambleyasining XXII plenar yig'ilishida qabul qilingan 2003-yil 15-noyabr);

4. Jinoiy daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo'yicha Yevrosiyo guruhi to'g'risidagi Bitim. (Moskva, 2011-yil 16-iyun)

BMTning Korrupsiyaga qarshi kurash Konvensiyasi

BMTning Korrupsiyaga qarshi kurash to'g'risidagi Konvensiyasi (BMT Bosh

Assambleyasining Rezolyusiyasi bilan 2003-yil 31-oktyabrda qabul qilingan) mu- qaddima, 8 ta bob va 71 ta moddadan iborat va korrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi eng asosiy xalqaro hujjat hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi mazkur xalqaro hujjatni ratifikatsiya qildi va BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasiga O'zbekiston Respublikasining qo'shilishi to'g'risida"gi Qonun 2008-yil 28-avgustdan kuchga kirdi .

BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi muqaddima hamda 8 ta bob va 71 ta moddadan iborat bo'lib, 1-bobda (1-4) Umumiy qoidalar, 2-bobda (5-14) Korrupsiyaning oldini olish choralari, 3-bobda (15-42) Jinoyatchilik va huquqni muhofaza qilish faoliyati, 4-bobda (43-50) Xalqaro hamkorlik, 5-bobda (51-59) Aktivlarni qaytarish bo'yicha choralar, 6-bobda (60-62) Texnik yordam va ma'lumot almashinuvi, 7-bobda (63-64) Amalga oshirish mexanizmlari, 8-bobda (65-71) Yakuniy qoidalar aks etgan.

O'zbekiston Respublikasi mazkur konvensiyaga bir nechta bildirishlar, bayonotlar va shartlar bilan qo'shilgan. Jumladan, Qonunning 1-bandiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Konvensiya 6-moddasining 3-bandi bo'yicha O'zbekiston Respublikasining Bosh prokuraturasi, Ichki ishlar vazirligi, Milliy xavfsizlik xizmati va Adliya vazirligi korrupsiyaning oldini olish bo'yicha aniq chora-tadbirlar ishlab chiqish va ularni amalga

oshirishda boshqa ishtirokchi - davlatlarga yordam ko'rsatishi mumkin bo'lgan organlar sifatida belgilanganligi bildirilgan.

Yodingizda bo'lsin!

2003-yil 9-dekabrda Merida shahrida dunyoning 100 dan oshiq davlat vakillari ishtirokida bo'lib o'tgan siyosiy konferensiyada BMTnig "Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi" imzolandi. Shu sababli BMT Bosh assambleyasi 9 dekabrni "Korrupsiyaga qarshi kurash xalqaro kuni" deb e'lon qildi. Bugunga kelib 172 davlat mazkur konvensiyaga a'zodir.

Bu qoida Konvensiyaning 6-moddasi 3-bandidagi har bir ishtirokchi - davlat BMTning Bosh kotibiga korrupsiyaning oldini olish bo'yicha aniq chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirishda boshqa ishtirokchi - davlatlarga yordam berishi mumkin bo'lgan organ yoki organlarning nomi va manzilini xabar qiladi, degan talablariga to'la javob beradi. Qonunning 2-bandiga ko'ra, Konvensiya 42-moddasining 1 va 3-bandlari bo'yicha 15-19, 21, 22 - moddalarda, 23-moddaning 1 - bandida, 24, 25, 27-moddalarda nazarda tutilgan qilmishlar milliy qonunchilikka muvofiq jinoiy jazolanadigan qilmish ekanligi va ularga nisbatan O'zbekiston Respublikasining yurisdiksiyasi tatbiq etilishligi bayon etilgan.

Konvensiyaning 15-moddasi "Milliy ommaviy mansabdor shaxslarni pora evaziga og'dirish", 16-moddasi "Xorijiy ommaviy mansabdor shaxslarni va ommaviy xalqaro tashkilotlarning mansabdor shaxslarini pora evaziga og'dirish", 17-moddasi "Ommaviy mansabdor shaxs tomonidan mol-mulk talon-toroj qilinishi, noqonuniy o'zlashtirilishi yoki ko'zda tutilmagan maqsadlarda ishlatilishi", 18-moddasi "G'arazli maqsadlarda mavqeidan foydalanish", 19-moddasi "Xizmat mavqeining suiiste'mol qilinishi", 21-modda "Xususiy sektorda pora evaziga og'dirish", 22-moddasi "Xususiy sektorda mulkning talon-toroj qilinishi", 23-moddasi 1-bandi "Jinoiy yo'l bilan topilgan daromadlarni legallashtirish", 24-moddasi "Yashirish"; 25-moddasi "Odil sudlovning amalga oshirilishiga to'sqinlik qilish", 27-moddasi "Ishtirok va suiqasd" deb nomlangan.

Ushbu xatti-harakatlar O'zbekiston jinoyat qonunchiligi bo'yicha ham jinoiy qilmish sifatida baholanadi va amaldagi jinoyat qonunida bunday qilmishlar uchun jinoiy javobgarlik belgilangan. Qonun mazmuniga ko'ra,

O‘zbekiston Respublikasi Konvensiyaning “Noqonuniy tarzda boylik orttirilishi”ni jinoyat deb baholagan 20-moddasi va “Yuridik shaxslarning javobgarligi”ni nazarda tutuvchi 26-moddasiga qo‘shilmagan. Qonunning 3-bandiga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi Konvensiya 44-moddasi 6-bandining - a kichik bandiga muvofiq, ushbu Konvensiyadan korrupsiya jinoyatlari sodir etgan shaxslarni tutib topshirish masalalarida ushbu Konvensiyaning boshqa ishtirokchi - davlatlari bilan o‘zarolik asosida hamkorlik qilish uchun huquqiy asos sifatida foydalanishligini bildirgan.

Qonunning 4-bandiga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi Konvensiyaning 46-moddasi 13-bandi bo‘yicha - O‘zbekiston Respublikasining Bosh prokuraturasi o‘zaro huquqiy yordam ko‘rsatish to‘g‘risidagi iltimoslarni olish va bajarish yoki bunday iltimoslarni bajarish uchun O‘zbekiston Respublikasining boshqa vakolatli organlariga yuborishga javobgar bo‘lgan markaziy organ ekanligini,

Uqib oling!

Yana boshqa adabiyotlarda e’tirof etilishicha, korrupsiya atamasi - siyosat yoki davlat boshqaruvi sohasidagi jinoiy faoliyat bo‘lib, mansabdor shaxslar o‘zlariga berilgan huquqlar va hokimiyat imkoniyatlaridan shaxsiy boyish maqsadida foydalanishidan iborat, deb tavsiflangan.

14-bandi bo‘yicha - O‘zaro huquqiy yordam to‘g‘risidagi iltimoslarni yuborishda o‘zbek, rus va ingliz tillari maqbul tillar sifatida belgilanishligi bildirilgan. Konvensiyaning 66-moddasi 2-bandi qoidalariga e’tibor beradigan bo‘lsak, O‘zbekistonning bu pozitsiyasi tegishli asosga ega ekanligiga amin bo‘lamiz. Ya’ni, bu bandda ikki yoki undan ortiq ishtirokchi - davlatlarning Konvensiyani sharhlash yoki qo‘llash bilan bog‘liq har qanday kelishmovchiligi munozaralar olib borish yo‘li bilan, yoki arbitraj yo‘li bilan hal etilishi, kelishmovchiliklar bu yo‘sinda o‘z yechimini topmagan taqdirda davlatlardan birining Xalqaro Sudga murojaat etishi orqali bir qarorga kelishi mumkinligi belgilangan.

Fikrimizcha, bir necha xalqaro hujjatlar zamirida yuzaga kelgan va uning standartlariga javob bera oladigan Konvensiyaning moddalari yuzasidan bunday kelishmovchiliklar yuzaga kelishi ehtimoldan uzoq va har bir mamlakat Konvensiya talablarini unga qo‘shilishi oldidan ko‘p martalab o‘rganib chiqqan va mazmun hamda talablaridan to‘la xabardor bo‘lgan bo‘ladi.

O‘zbekiston o‘zini ushbu qoida bilan bog‘liq emas deb hisoblashining ham huquqiy asosi mavjud. Sababi, Konvensiyaning aynan shu moddasi 3-bandida har qanday ishtirokchi - davlat uning 2-bandini o‘ziga taalluqli yoki aksinchaligi haqida bildirishni bayon etish huquqiga ega ekanligi huquqiy mustahkamlangan. Mansab mavqeini suiiste‘mol qilish shakllari juda rang-barang bo‘lgani bois, turli mezonlarga ko‘ra korrupsiyaning har xil turlari farqlanadi.

Korrupsiyani bir nechta asosiy turlarga ajratish mumkin:

1. Sub’ektlarning maqomiga ko‘ra:

- a) hokimiyat organlaridagi korrupsiya;
- b) xususiy sektordagi korrupsiya;
- v) siyosatdagi korrupsiya yoki siyosiy korrupsiya;

2. Darajasiga ko‘ra:

- a) quyi darajadagi korrupsiya;
- b) yuqori darajadagi korrupsiya;
- v) vertikal korrupsiya;

3. Ijtimoiy xavflilik darajasiga ko‘ra:

- a) korrupsiya - qilmish;
- b) korrupsiya - jinoyat.

Korrupsiyaning ko‘rsatilgan turlarini mufassalroq ko‘rib chiqamiz.

Hokimiyat (ijroiya, vakillik va sud) organlaridagi korrupsiya hozirgi vaqtda jahonningdeyarli barcha mamlakatlari, shu jumladan O‘zbekistondagi muhim muammolardan biri hisoblanadi. Bu turdagi korrupsiya jinoyatlarining o‘ziga xos xususiyati shundan iboratki, ularni o‘zlari qonunga rioya etishlari va uni muhofaza qilishlari lozim bo‘lgan kishilar sodir etadilar. Aksariyat mamla-**Bilasizmi?**

Korrupsiyaga qarshi kurash borasidagi eng asosiy xalqaro hujjat bu - shubhasiz, BMTning “Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi” hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi mazkur xalqaro hujjatni ratifikatsiya qildi va “BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasiga O‘zbekiston Respublikasining qo‘shilishi to‘g‘risida”gi Qonun 2008 yil 28 avgustdan kuchga kirdi .

katlarda bu jinoyatlar keng tarqalganligi, davlat apparati xodimlari korrupsiya domiga ilinganligi mazkur mamlakatlarning qonunchilarini poraxo‘rlik, mansab mavqeini suiiste‘mol qilish va boshqa xavfli mansabdorlik jinoyatlariga qarshi qat’iy choralar ko‘rishga va, aksincha,

amaldorlarning uncha xavfli bo‘lmagan va ko‘proq darajada tarqalgan jinoyatlariga jiddiy e‘tibor bermaslikka (masalan, uncha qimmat turmaydigan sovg‘a olish jinoyat hisoblanmaydi) majbur qilayotir.

Nodavlat tashkilotlaridagi yoki xususiy sektordagi korrupsiya hozirgi vaqtda ancha keng tarqalgan. Tashkilot (tijorat yoki jamoat tashkiloti) rahbari uning ustavda belgilangan vazifalariga qat‘iy rioya etishi lozim, lekin u, davlat amaldori kabi, o‘ziga qarashli bo‘lmagan resurslarni o‘z shaxsiy manfaatlarida yoki ikkinchi tomon foydasiga tasarruf etishi, tashkilot manfaatlariga zid bo‘lgan harakatlarni sodir etishi mumkin.

Bunga kundalik hayotdan misollar:

tijorat banklarida maqsadi pul olish va g‘oyib bo‘lishdan iborat bo‘lgan loyihalarga pora evaziga kreditlar berilishi;

turli mulk shakliga mansub bo‘lgan korxonalarda davlat va korxonalar zarariga moddiy boyliklar (vino-arog‘ yoki neft-kimyo mahsulotlari va sh.k.)ni pora evaziga arzon narxlarda olish va h.k.

Ayrim tadqiqotchilar siyosiy korrupsiyani korrupsiya jinoyatlarining alohida turi sifatida ajratadilar.

Bilib oling!

Jahon davlatlarida korrupsiya jinoyati nafaqat xufyona, balki korrupsiyaga doir munosabatlarga kirishgan tomonlarning o‘zaro kelishuviga binoan sodir etiladi. Aksariyat hollarda u tegishli hokimiyat organlariga shikoyat berilishiga sabab bo‘lmaydi, chunki g‘ayriqonuniy kelishuvdan ikkala tomon ham naf ko‘radi. Hatto pora so‘rash hollari ustidan ham kamdan-kam holda shikoyat qilinadi, chunki odamlar korrupsiyaga qarshi kurash jaraèniga ishonchsizlik bilan qaraydilar.

Korrupsiyaning uchta asosiy shaklini ajratishni taklif qiladilar:

1. Siyosiy. Mansabdor shaxs yuzaga kelgan qarindosh-urug‘chilik munosabatlari tufayli qonunga zid harkat qiladi;

2. Jinoyat faoliyati bilan bog‘liq bo‘lib, mansabdor shaxslarni sotib olishga asoslangan. Ular esa mukofot puli olish evaziga g‘ayriqonuniy xizmatlar ko‘rsatadi;

3. Taraflardan biri o‘ziga eng qulay tartib vujudga keltirish uchun jinoyatga mansabdor shaxslarning tegishli toifalarini izchillik bilan jalb etishni nazarda tutadi. Korrupsiyaning bu shakli uyushgan jinoyatchilik bilan mustahkam bog‘langan bo‘lib, mansabdor shaxslarga nisbatan sotib olish, provakatsiya qilish va tahdid solishni anglatadi.

Siyosiy korrupsiyaning ayniqsa ko‘p uchraydigan shakllari pora olish va pora berish hisoblanadi. Keyingi o‘rinda saylov huquqini amalga oshirish chog‘ida siyosat sub‘ektlarini pora evaziga og‘dirish turadi.

Faoliyat ko‘rsatish darajalariga ko‘ra quyi darajadagi, yuqori darajadagi va vertikal korrupsiya farqlanadi.

Quyi darajadagi korrupsiya hokimiyat va boshqaruv organlarining o‘rta va quyi darajalarida ayniqsa, keng tarqalgan bo‘lib, amaldorlar va fuqarolarning muntazam o‘zaro aloqasi bilan bog‘liq (ro‘yxatdan o‘tkazish, jarimalar, litsenziyalash, turli ruxsatnomalar olish va sh.k.).

Yuqori darajadagi korrupsiya hokimiyat organlarida ishlaydigan siyosatchilar, oliy martabali amaldorlarni qamrab oladi va juda katta qimmatga ega bo‘lgan qarorlar qabul qilish bilan bog‘liq (qonunlarni ilgari surish va qabul qilish, davlat buyurtmalari, mulk shakllarini o‘zgartirish va sh.k.). Aksariyat hollarda korrupsiya bitimidan manfaatdor bo‘lgan ikkala tomon ayni bir davlat hokimiyati organida ishlaydi. Masalan, quyi turuvchi davlat organining amaldori o‘zining yuqori turuvchi boshlig‘iga u pora beruvchining korrupsion harakatlariga homiylik qilishi yoki qo‘shimcha mablag‘lar, resurslar, vakolatlar berishi uchun pora beradi.

Korrupsiyaning pora olish va xizmat mavqeini suiiste‘mol qilish kabi odatdagi shakllaridan tashqari, korrupsiya amalda namoyon bo‘lishining quyidagi shakllarini farqlash mumkin:

-mansabdor shaxslar, davlat xizmati xodimlari, deputatlar tijorat faoliyatida shaxsiy yoki korporativ naf ko‘rish uchun bevosita ishtirok etishi; davlat pul mablag‘larini o‘zlashtirish niyatida tijorat tuzilmalariga o‘tkazish uchun o‘z xizmat mavqeidan foydalanish; o‘z korporativ (siyosiy, diniy, milliy va sh.k.) guruhiga davlat resurslari hisobidan imtiyozlar berish; shaxsiy yoki korporativ naf ko‘rish maqsadida ommaviy axborot vositalariga tazyiq o‘tkazish uchun o‘z xizmat mavqeidan foydalanish;

Buni bilasizmi?

<p>Qonun mazmuniga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi BMT Konvensiyasining “Noqonuniy tarzda boylik orttirilishi”ni jinoyat deb baholagan 20-moddasi va “Yuridik shaxslarning javobgarligi”ni nazarda tutuvchi 26-moddasiga qo‘shilmagan.</p>

-mansabdor shaxslar va davlat xizmati xodimlari shaxsiy boyish maqsadida tijorat tuzilmalarida soxta shaxslardan va qarindoshlaridan foydalanishi; shaxsiy yoki korporativ naf ko‘rish maqsadida axborotni

manipulyatsiya qilish (buzib ko'rsatish, bermaslik, berish muddatlarini cho'zish va sh.k.) uchun xizmat mavqeidan foydalanish;

-tor gruppaviy manfaatlarda normativ hujjatlar qabul qilish haqidagi qarorlarni ilgari surish;

-ayrim nomzodlarning saylov fondlariga davlat moliyaviy va moddiy resurslarini taqdim etish.

AQShda korrupsiyaning "kikbeking" degan shakli ancha keng tarqalgan. Uning sxemasi juda sodda: jinoiy til biriktirish ishtirokchilari muayyan narxlarda bitim tuzishga og'zaki kelishadilar, rasmiy bitimni esa balandroq narxlarda imzolaydilar. Tafovutning bir qismi bitimga ruxsat bergan mansabdor shaxslarga topshiriladi, ya'ni yashirin pora beriladi. Pora olishning bu shakli so'nggi yillarda O'zbekistonda ham qo'llanilmoqda.

Korrupsiya jinoyati nafaqat xufyona, balki korrupsiyaga doir munosabatlarga kirishgan tomonlarning o'zaro kelishuviga binoan sodir etiladi. Aksariyat hollarda u tegishli hokimiyat organlariga shikoyat berilishiga sabab bo'lmaydi, chunki g'ayriqonuniy kelishuvdan ikkala tomon ham naf ko'radi. Hatto pora so'rash hollari ustidan ham kamdan-kam holda shikoyat qilinadi, chunki odamlar korrupsiyaga qarshi kurash jarayoniga ishonchsizlik bilan qaraydilar. Buning uchun milliy va xorijiy tajriba bilan bog'liq bo'lgan muayyan ob'ektiv va sub'ektiv asoslar mavjud.

Korrupsiya harakatlari odatda davlat faoliyatining mutaxassis bo'lmagan kishilar tushunishi ancha qiyin bo'lgan o'ziga xos turlarida sodir etiladi. Korrupsiya o'ta moslashuvchan jinoyatdir. U vaziyatga qarab tinimsiz o'zgaradi va takomillashib boradi. Shu bois bu hodisa haqida to'liq, mukammal yoki hech bo'lmasa reprezentativ ma'lumotlar mavjud emas.

Mavzuni takrorlash uchun nazorat savollari:

1. Etimologik jihatdan korrupsiya atamasining lug'aviy ma'nosini aytib bering.

2. "Korrupsiya – shaxsiy manfaat uchun davlat hokimiyatini suiiste'mol qilishdir" jumlasining ma'nosi nimada?

3. Korrupsiyaga qarshi kurash sohasida BMTning va boshqa xalqaro tashkilotlarning qabul qilgan hujjatlari haqida so'zlab bering

4. BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasining mazmuni haqida so'zlab bering.

5. O'zbekiston Respublikasida BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasining ratifikatsiya qilinishi jarayonini gapirib bering.

4. Korrupsiyani bir nechta asosiy turlarga ajratish mumkin. Ular qaysilar?

5. Korrupsiyaning uchta asosiy shaklini ajratib bering.

Hurmatli sport sohasi mutahassislari, tinglovchilar va sportchilar!

Siz bilan korrupsiyaga qarshi xalqaro kurash siyosati va rasmiy hujjatlar haqida suhbatlashdik.

- Korrupsiya atamasining lug'aviy ma'nosini tushunib oldingizmi?

- Korrupsiya haqida yana nimalarni ayta olasiz?

Korrupsiyaga qarshi kurash sohasida BMTning va boshqa xalqaro tashkilotlarning qabul qilgan hujjatlari haqida so'zlay olasizmi?

- BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasining mazmuni haqida gapiring.

- O'zbekiston Respublikasida BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasining ratifikatsiya qilinishi jarayonini tasvirlab bering.

- Korrupsiyani bir nechta asosiy turlarga ajratish mumkin ekan. Ular qaysilar?

- Korrupsiyaning uchta asosiy shaklini ajratib bering.

Yana o'ylab ko'ringchi!

- Korrupsich deganda birinchi bo'lib nima ko'z oldingizga keladi?

- "Korrupsiya - mansab mavqeidan shaxsiy maqsadlarda foydalanish bilan bog'liq bo'lgan jinoyatdir"

Korrupsiya faqat mansab mavqeidan shaxsiy maqsadlarda foydalanish bilan bog'liq bo'lgan jinoyatmi?

- Xalqaro tashkilotlar tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish maqsadida qanday rasmiy hujjatlar qabul qilindi va qanday tadbirlar amalga oshirilmoqda?

-Huquq bilan bog'liq yana qanday atamalarni bilasiz?

Hurmatli sport sohasi mutahassislari, tinglovchilar va sportchilar!

*Quyidagi topshiriqlarni kichik guruhlarda bajaring
Quyidagi jadvalni to'ldiring*

<i>Korrupsiyaga oid atamalar</i>	<i>Xalqaro tashkilotlar tomonidan korrupsiyaga qarshi qanday rasmiy hujjatlar qabul qilindi</i>	<i>Korrupsiyaga qarshi xalqaro hujjatlarni qanday baholaysiz?</i>	<i>Korrupsiya faqat mansab mavqeidan shaxsiy maqsadlarda foydalanish bilan bog'liq bo'lgan jinoyat deb hisoblaysizmi?</i>
1.			
2.			
3.			

<i>Korrupsiyaga qarshi xalqaro kurash siyosati va rasmiy hujjatlar mavzusida nimani o'rgandim deb o'ylaysiz?</i>	
<i>2004 yildan boshlab 9 dekabrni BMT nima uchun "Korrupsiyaga qarshi kurashning" xalqaro kuni deb e'lon qildi?. Maqsad nima?</i>	

O'zbekiston Respublikasining 2008-yil 7-iyuldagi "Birlashgan Millatlar Tashkilotining Korrupsiyaga qarshi konvensiyasiga (Nyu-York, 2003-yil 31-oktyabr) O'zbekiston Respublikasining qo'shilishi to'g'risida" qonuni

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Korrupsiyaga qarshi konvensiyasiga (Nyu-York, 2003-yil 31-oktyabr) quyidagi bildirishlar, bayonotlar va shartlar bilan qo'shilinsin:

1) Konvensiya 6-moddasining 3-bandi bo'yicha: «O'zbekiston Respublikasi shuni bildiradiki, O'zbekiston Respublikasining Bosh prokuraturasi, Ichki ishlar vazirligi, Milliy xavfsizlik xizmati va Adliya vazirligi korrupsiyaning oldini olish bo'yicha aniq chora-tadbirlar ishlab chiqish va ularni amalga oshirishda boshqa Ishtirokchi-davlatlarga yordam ko'rsatishi mumkin bo'lgan organlar sifatida belgilangan»;

2) Konvensiya 42-moddasining 1 va 3-bandlari bo'yicha: "O'zbekiston Respublikasi shuni bayon qiladiki, 15 - 19, 21, 22-moddalarda, 23-moddaning 1-bandida, 24, 25, 27-moddalarda nazarda tutilgan qilmishlar milliy qonunchilikka muvofiq jinoiy jazolanadigan qilmishlardir va ularga nisbatan O'zbekiston Respublikasining yurisdiksiyasi tatbiq etiladi";

3) Konvensiya 44-moddasining 6-bandi bo'yicha: "O'zbekiston Respublikasi Konvensiya 44-moddasi 6-bandining «a» kichik bandiga muvofiq shuni bildiradiki, u ushbu Konvensiyadan korrupsiya jinoyatlari sodir etgan shaxslarni tutib topshirish masalalarida ushbu Konvensiyaning boshqa Ishtirokchi-davlatlari bilan o'zarolik asosida hamkorlik qilish uchun huquqiy asos sifatida foydalanadi";

4) Konvensiyaning 46-moddasi bo'yicha:

a) 13-band. "O'zbekiston Respublikasi shuni bildiradiki, O'zbekiston Respublikasining Bosh prokuraturasi o'zaro huquqiy yordam ko'rsatish to'g'risidagi iltimoslarni olish va bajarish yoki bunday iltimoslarni bajarish uchun O'zbekiston Respublikasining boshqa vakolatli organlariga yuborishga javobgar bo'lgan markaziy organdir";

b) 14-band. "O'zbekiston Respublikasi shuni bildiradiki, o'zaro huquqiy yordam to'g'risidagi iltimoslarni yuborishda o'zbek, rus va ingliz tillari maqbul tillar sifatida belgilangan";

5) Konvensiyaning 66-moddasi bo'yicha: "O'zbekiston Respublikasi Konvensiya 66-moddasining 3-bandiga muvofiq shuni bayon qiladiki, u o'zini Konvensiya 66-moddasi 2-bandining qoidalariga bog'liq deb hisoblamaydi".

II. Korrupsiyaga qarshi kurash tarixi

Korrupsiya tarixi insoniyat tarixi kabi ko‘hnadir. Qadimgi yunon faylasufi Aristotel shunday degan edi: “Har qanday davlat tuzumida eng muhimi – bu qonunlar va tartib-qoidalar vositasida ishni shunday tashkil etishki, mansabdor shaxslar qing‘ir yo‘l bilan boylik ortira olmasin”

Pora olish va berish Qadimgi Rimda amal qilgan 12 jadval qonunlarida tilga olingan. Ibtidoiy va ilk sinfiy jamiyatlarda kohinga, qabila oqsoqoliga yoki harbiy boshliqqa muayyan imtiyozni qo‘lga kiritish uchun haq to‘lash tabiiy bir hol sifatida qaralgan. Davlat apparatining murakkablashuvi va professionallashuviga qarab vaziyat o‘zgarib borgan. Oliy

Tushunib oling!

Korrupsiyaning kelib chiqishi tarixi va rivojlanishi masalalarini Nikkolo Makiavelli o‘rganib, uni yo‘talga qiyoslab shunday degan edi: “Korrupsiyani ham yo‘talga o‘xshab oldin aniqlash qiyin, ammo davolash oson, lekin bu kasalni o‘tkazib yuborsangiz uni aniqlash oson, ammo davolash qiyin”.

martabali amaldorlar quyi turuvchi - xizmatchilar faqat tayinlangan maosh bilan qanoatlanishlarini talab qilganlar. Quyi daraja amaldorlar esa, aksincha, o‘z xizmat vazifalarini bajarganlik uchun arzo‘ylardan yashirincha qo‘shimcha haq olishni (yoki talab qilishni) ma‘qul ko‘rganlar.

Korrupsiya haqidagi eng qadimgi qaydlardan biriga qadimgi Bobilning mixxatda yozilgan bitiklarida duch kelingan. Miloddan avvalgi uchinchi ming yillikning o‘rtalariga taalluqli bo‘lgan matnlarda aytilishicha, Shumer podshosi Urukagin o‘sha zamonlardayoq qonunga xilof haq olishga ruju qo‘ygan sudyalari va amaldorlarning qonunbuzarliklariga chek qo‘yish muammosini yechish yo‘llarini izlagan.

Shunga o‘xshash masalalarga qadimgi Misr hukmdorlari ham duch kelgan. Arxeologik tadqiqotlar jarayonida topilgan hujjatlar miloddan avvalgi 597-538-yillarda, yahudiylar Bobil podshosi tomonidan asirga olinganidan keyingi davrda, Ierusalimda korrupsiya ayniqsa avj olganidan dalolat beradi. Professional davlat amaldorlari hali mavjud bo‘lmagan antik jamiyatlar tarixining ilk bosqichlarida (qadimgi yunon shahar-davlatlari,

Ushbu bo‘limni o‘rganish natijasida quyidagilarni bilib olasiz:

-Korrupsiyaning qadimiy tarixi haqida;

-G‘arbiy Yevropa davlatlarida korrupsiyaning turli ko‘rinishlari va korrupsion munosabatlarni;

-Jahon donolarining korrupsiya haqidagi fikrlarini o‘rganasiz;

Islom dini shariatida pora olish va pora berish haqida hadis bilan tanishasiz;

-Amir Temur davlatida amaldorlar ishini tartibga solish maqsadida vaqti-vaqti bilan so‘roq, tekshirish, taftish, tergov o‘tkazish haqida;

-Turkistonda podsho Rossiyasi hukmronligi davrida korrupsiya ayniqsa kuchayganini o‘rganasiz:

-Madrasa mutavallisining madrasa qaramog‘idagi vaqf mulklarini ijaraga berib, undan tushgan daromadni to‘plab, madrasa ehtiyoji uchun sarf etganini;

-Xalq Komissarlar Sovetining 1918-yil 8-maydagi “Poraxo‘rlik to‘g‘risida”gi dekreti sobiq sovet huquqida korrupsiyaga qarshi kurash sohasida qabul qilingan birinchi rasmiy hujjat ekanini bilib olasiz.

Rim respublikasi) korrupsiya deyarli bo‘lmagan. Bu hodisa antik davr tanazzulga yuz tutgan bosqichdagina vujudga kelgan. Bu davrda korrupsiya domiga ilingan davlat amaldorlari haqida: - “U boy viloyatga kambag‘al bo‘lib kelib, kambag‘al viloyatdan boy bo‘lib ketdi, deyishgan. Ayni shu davrda Rim huquqida yuqoridagi birinchi bo‘limda aytib o‘tganimizdek, "corrumpire" degan maxsus atama paydo bo‘lgan, u - buzish, pora evaziga og‘dirish” iboralarining sinonimi hisoblangan va mansab mavqeini suiiste‘mol qilishning har qanday ko‘rinishlarini ifodalashga xizmat qilgan.

Odil sudlov tizimida korrupsiyani tugatish yuzasidan qadimgi fors davlati - Ahamoniylar saltanatida shafqatsiz jazolar berish orqali kurash olib borilgan. Xususan, tarixchi Gerodotning xabar berishicha, shoh Kir II ning o‘g‘li Kambis II davrida taraflarning biridan pora olgani uchun Sisamn ismli sudyaning tiriklayin terisi shilinib, o‘tirgan kursisiga tortib qo‘yilgan hamda uning o‘g‘li shu vazifaga tayinlangan, toki sudda ish ko‘rayotgan chog‘ida

qaysi kursida o‘tirganini unutmasin. Ana shundan so‘ng qadimgi fors sudyalari orasida birorta ham poraxo‘rlik holati aniqlanmagan.

Belgiyaning Bryugge shaxrining Ratusha sudida niderland rassomi Gerard Davidning «Kambis jazosi» va «Poraho‘r sudyaning terisi shilinishi» diptix rasmlari joylashgan. Diptix 1498-yil yaratilgan.

Yevropa davlatlarining keyingi tarixida ham korrupsiyaning turli ko‘rinishlari va korrupsion munosabatlarning avj olishi nafaqat tarixiy manbalarda balki, o‘sha davrning ilg‘or yozuvchi faylasuflarining asarlarida ham o‘z ifodasini topgan. Xususan, Shekspirning “Venesiyalik savdogar”, “Qonga qon, jonga jon”, Dantening “Do‘zax”, “Tozalovchi” kabi asarlarida ham yoritilgan. Dante korrupsionerlarni do‘zaxni eng qorong‘i va eng chuqur joyiga tashlash kerak degan fikrni bildirgan.

Buni esda saqlang!

Amir Temur davlatida amaldorlar ishini tartibga solish maqsadida vaqti-vaqti bilan so‘roq, tekshirish, taftish, tergov o‘tkazib turilgan. O‘z amalini suiiste‘mol qilish, poraxo‘rlik, doimiy ravishda ichkilik ichish, maishiy buzuvchilik kabi qilmishlar og‘ir gunoh hisoblangan va qattiq jazolangan. Tarixiy manbalarda keltirilishicha, Amir Temurning o‘g‘li Mironshoh, nevaralari Pirmuhammad va Halil Sultonlar yuqorida zikr etilgan me‘yorlarni buzganlik uchun xalq oldida jazoga tortilganlar.

Korrupsiyaning kelib chiqishi tarixi va rivojlanishi masalalarini Nikkolo Makiavelli o‘rganib, uni yo‘talga qiyoslab shunday degan edi, “Korrupsiyani ham yo‘talga o‘xshab oldin aniqlash qiyin, ammo davolash oson, lekin bu kasalni o‘tkazib yuborsangiz uni aniqlash oson, ammo davolash qiyin”. Mana shu so‘zlardagi haqiqatni bugungi kunda dunyo bo‘yicha keng tarqalgan korrupsiya ko‘rinishlariga nisbatan ham qo‘llash mumkin bo‘ladi.

Islom dini shariatida molni muhofaza qilish maqsadida pora olish va pora berish harom qilingan ekan. Pora arab tilida “rishva” deyiladi. Shar‘iy istilohda”pora haqni yo‘qqa chiqarish va botilni yuzaga chiqarish uchun beriladigan narsadir” deyilgan.

Abdulloh ibn Amrning rivoyat qilishicha Rasululloh sallolohu alayhi vassalam “pora beruvchiga va pora oluvchiga Allohning la‘nati bo‘lsin” dedilar. Rasululloh sallolohu alayhi vassalam ikkovlarini ham ushbu harom ishni qilganliklari uchun la‘natladilar. Rasululloh sallolohu alayhi

vassalamning la'natlari juda og'ir jazodir. Chunki la'nat birovning Allohning rahmatidan uzoq bo'lishini so'rashdir. Allohning mahbub rasuli so'ragan narsa bo'lmay qolmasligi hammaga ma'lum. (Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. "Mukammal saodat yo'li". Toshkent.: Hilol Nashr. 2014, 139-140-betlar)

O'rta asrlarda hozirgi O'zbekiston hududida tashkil topgan davlatlarda qabul qilingan odat huquqi me'yorlari zamirida islom madaniyati prinsiplari yotuvchi qonunchilik an'analari bilan belgilangan. Xususan, Amir Temur davlatida amaldorlar ishini tartibga solish maqsadida vaqti-vaqti bilan so'roq, tekshirish, taftish, tergov o'tkazib turilgan. O'z amalini suiiste'mol qilish, poraxo'rlik, doimiy ravishda ichkilik ichish, maishiy buzuvchilik kabi qilmishlar og'ir gunoh hisoblangan va qattiq jazolangan. Tarixiy manbalarda keltirilishicha, Amir Temurning o'g'li Mironshoh, nevaralari Pirmuhammad va Halil Sultonlar yuqorida zikr etilgan me'yorlarni buzganlik uchun xalq oldida jazoga tortilganlar.

Unutmang!

Shayx Yah'yo ibn Ahmad Boharziy hazratlari "Avrod al ahbob va fusus va adab" nomli kitobida mutavalli tayinlashda nixoyatda talabchan bo'lish lozimligini ta'kidlagan: "Kimda-kim kambag'allar orasida o'ziga zeb berib, kekkayib yursa yoki yengiltak odamlar singari yasanib, qimmatbaho kiyimlar kiyib, eskiroq kiyimlarni kiyishni or deb bilsa, ayoli va farzandlarini hashamli kiyimlarga o'rgatgan bo'lsa, uy-joylarni haddan ziyod bezab tashlasa bundaylarga vaqfni boshqarish zinhor topshirilmasin".

Markaziy hukumat hokimiyati zaif bo'lgan joylarda (masalan, ilk o'rta asr davrida Yevropada) xizmat mavqeidan aholidan o'z cho'ntagiga haq undirish uchun foydalanish aksariyat hollarda umum e'tirof etilgan me'yorga aylangan.

Davlat markazlashgani sari u fuqarolarning mustaqilligini qattiqroq cheklagan va shu tariqa quyi va oliy bo'g'in amaldorlariga qattiq nazoratdan qutulishni istagan fuqarolar foydasiga qonunni xufiyona buzishga turtki bergan. Korrupsiya domiga ilingan amaldorlarni boshqalarga dars bo'lsin uchun olomon ko'z o'ngida jazolashlar odatda hech qanday samara bermagan, chunki amaldan chetlatilganlar (lavozimidan olinganlar yoki qatl etilganlar) o'rnini yangi poraxo'rlar egallagan. Markaziy hokimiyat amaldorlar faoliyati ustidan yalpi nazorat o'rnatish uchun odatda zarur kuch

va vositalarga ega bo'lmagani bois, u korrupsiyaning o'ta xavfli ko'rinishlarinigina jazolash bilan kifoyalangan.

O'sha davrda O'zbekiston hududidagi feodal jamiyatlarda hozirgi talqindagi korrupsiya uchun javobgarlik nazarda tutilmagan. Shunga qaramay, O'zbekiston Rossiya tomonidan istilo qilingan davrgacha korrupsiya qonuniylashtirilgan institutsional shakllarda namoyon bo'lgan, xususan hukmron davralarning vakillariga u yoki bu tarzda haq berish feodal majburiyat xususiyatini kasb etgan. Masalan, oddiy dehqonlardan xonlar, sultonlar, biylar va zodagonlarning boshqa vakillari foydasiga muntazam ravishda - ushur solig'i - hosilning o'ndan bir qismi undirilgan. Chorvadorlar zakot solig'i to'laganlar - bu soliq miqdori u yoki bu turdagi chorva molining muayyan boshiga teng bo'lgan. Bundan tashqari, zodagonlarning vakillariga va oqsoqollariga har xil turdagi sovg'a-salomlar berilishi lozim bo'lgan.

Muhammad Narshaxiyning "Buxoro tarixi" asarida qozilarni tanlash tartibi, halol qozilar ham bo'lganligi, Buxoroda qozilik qilgan kishilar haqida qiziqarli ma'lumotlar uchraydi. "Buxoroda adolatli qozilar ko'p bo'lgan, - deb yozadi Narshaxiy. Sebavayh ibn Abdulaziz al-Buxoriy an-Nahviy shular jumlasidandir. Men Abdulloh Muborakdan eshitdimki, - deydi Muhammad ibn A'yan, - Sebavayh Buxoroda qozilik qilganida (xalqning) ikki dirhamiga ham adolatsizlik qilmadi"; so'ng u yana: "Ikki dirham ko'plik qiladi, u tariqcha ham javr o'tkazmadi", - deydi.

Buni unutmang!

Korrupsiya haqidagi eng qadimgi ma'lumot Bobilning miloddan avvalgi uchinchi ming yillikning o'rtalariga taalluqli bo'lgan mixxatda yozilgan bitiklarida uchraydi. Unda aytilishicha, Shumer podshosi Urukagin o'sha zamonlardayoq qonunga xilof haq olishga ruju qo'ygan sudyalar va amaldorlarning qonunbuzarliklariga chek qo'yish muammosini yechish yo'llarini izlagan.

O'tmishda hozirgi O'zbekiston hududidagi oliy o'quv yurtlari - madrasalarda xo'jalik ishlarini yuritish uchun vaqf ta'sis etuvchi madrasa mutavallisini tayinlagan. Mutavalli madrasa qaramog'idagi vaqf mulklarini ijaraga berib, undan tushgan daromadni to'plab, madrasa ehtiyoji uchun sarf etgan. Vaqf ta'sis etuvchilar madrasa mutavallisini tayinlashda uning shaxsiy fazilatlari, nasl-nasabi, taqvodorligi, el-yurt orasidagi obro'si va

nazari to'qligiga alohida e'tibor berishgan. Shayx Yah'yo ibn Ahmad Boharziy hazratlari "Avrod al ahbob va fusus va adab" nomli kitobida hikmatli gaplar, suhbatlar, taniqli kishilarning karomatlari va ruboiylarni to'plab berganlar. Arab sayyohi ibn Batuta u bilan Buxoroda uchrashgan, suhbatlashgan va Yahyo Boxarziyning "u zot faqih edi" deb yozgan. Darvoqe, shayx olim, orif, muhaddis va voiz edilar. Shayx Yahyo Boxarziy o'z kitobida mutavalli tayinlashda nixoyatda talabchan bo'lish lozimligini ta'kidlagan: "Kimda-kim kambag'allar orasida o'ziga zeb berib, kekkayib yursa yoki yengiltak odamlar singari yasanib, qimmatbaho kiyimlar kiyib, eskiroq kiyimlarni kiyishni or deb bilsa, ayoli va farzandlarini hashamli kiyimlarga o'rgatgan bo'lsa, uy-joylarni haddan ziyod bezab tashlasa bundaylarga vaqfni boshqarish zinhor topshirilmasin".

Abdulla Qahhorning "O'g'ri" hikoyasidan:

Uchta tovuq, garchi biri kurk bo'lsa ham, Qobil boboning o'zidan chiqdi. Yuzta tuxumni qo'ni-qo'shni, yor-birodarlar o'zaro yig'ib berdi. Ammo bu tortiq bilan tilmochdan nari o'tib bo'lmadi. Tilmoch tortiqni oldi va beto'xtov pristavga yaxshilab tushuntirishni va'da qildi. "Yaxshilab tushuntirilgan" pristav bitta kulangir, bitta farangi tovuq, uch so'm pulni olganidan keyin, Qobil boboning baxtiga, "beto'xtov hokimga xabar beraman" demasdan, "aminga bor", deb qo'ya qoldi. Amin "ellikboshiga borilsin", dedi. Lekin boboning ho'kizi baribir topilmadi.

O'zbekistonda huquq tizimi shakllanishining navbatdagi bosqichi uning hududini chor Rossiya imperiyasi tomonidan istilo qilingan davr bilan bog'liq. Bu bosqich mazkur hududda korrupsiyaning ijtimoiy-huquqiy mohiyati o'zgarishiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatdi. Turkiston chor Rossiyasi tomonidan bosib olingan davrda Turkiston general-gubernatorligida rusiyzabon aholi uchun fuqarolik ishlari bo'yicha sudlar, o'zbeklar va tojiklar uchun qozi sudlari, qirg'izlar, qoraqalpoqlar va turkmanlar uchun biy sudlari mavjud bo'lgan. Fuqarolik ishlari bo'yicha sudlarning sudyalari asosan yuristlar bo'lgan, qozi lavozimiga tegishli

ma'lumotga ega, islom huquqini yaxshi biladigan ulamolar, biy lavozimiga odat huquqi bilimdonlari tayinlangan.

Shekspirning "Venesiyalik savdogar", "Qonga qon, jonga jon", Dantening "Do'zax", "Tozalovchi" kabi asarlarida ham korrupsiya masalasi yoritilgan. Dante korrupsionerlarni do'zaxni eng qorong'i va eng chuqur joyiga tashlash kerak degan fikrni bildirgan.

Turkistonda podsho Rossiyasi hukmronligi davrida bu yerda korrupsiya ayniqsa kuchaygan. Shu ma'noda aholi tomonidan advokat Ubaydulla Asadullaxo'jaev nomiga yozilgan ariza diqqatga sazovor. Unda shunday deyiladi: Hozirgi Andijon tumani boshlig'i Brjeziskiy davrida avvallari ham mavjud bo'lgan poraxo'rlik, tovlamachilik va zo'ravonlik nihoyatda kuchayib ketdi. Qonun-qoidaga aylangan bu tizimning xususiyatlari quyidagicha:

1. Aholidan o'lpon olish va poraxo'rlikka mahalliy amaldorlar: ellikboshi, mingboshilar va hozirgi bosh oqsoqol Shermat Alimqulov (qo'qonlik amiri lashkar Alimqulning o'g'li Shermuhammad) kabi ma'muriyat vakillarini jalb etishgan.

2. Soliq-o'lpon undirish va pora olish ma'muriyat vakillari tomonidan bevosita emas, balki bilvosita vositachilar orqali amalga oshirilmoqda.

Xususan, nohiya boshlig'ining tilmochi Yusufjon hoji hamda pristavlarning tarjimonlari vositachilik qilishadi. Bu usul shunday ustalik va izchillik bilan olib boriladiki, natijada aholi amaldorlarning qonunga xilof ishlari yuzasidan qilgan shikoyatlari hech qachon adolatli hal bo'lmasligiga ko'nikib ketishgan.

Yuqoridagi manzara Abdulla Qahhorning "O'g'ri" hikoyasida chiroyli tasvirlab berilgan. Qobil boboning ho'kizini o'g'irlab ketishadi. O'g'rini topish uchun bobo hamyonini qoqishtirib, borini ellikboshiga berdi, yana qancha

Muhammad Narshaxiyning “Buxoro tarixi” asaridan:

Yana (qozilardan biri) Abu Zar Muhammad ibn Yusuf al-Buxoriy bo‘lib, u rahmatlik Imom Shofeyning oltita suhbatdoshlari jumlasidan hamda olim va zohid edi; uni (barcha) Buxoro olimlari orasida yuqori qo‘yar edilar. U kishini yashirnn pora berish va boshqa har xil yo‘llar bilan sinab ko‘rdilar, ammo u biror narsa bilan ham o‘zini bulg‘atmadi, balki kundan-kunga undan adolat va insof ravshanroq sodir bo‘ldi.

duo qildi. Kechqurun Qobil bobo aminning oldiga boradigan bo‘ldi. Quruq qoshiq og‘iz yirtadi, aminga qancha pul olib borsa bo‘ladi? Men beto‘xtov pristavga xabar beraman. O‘zi chaqirtiradi. Qobil bobo yor-do‘stlari bilan kengashdi - pristavga puldan boshqa nima olib borsa bo‘ladi? Ma‘lum bo‘ldiki, uni begim deguncha kishining beli sinar ekan.

1917-yil oktyabrida chor Rossiyasi hududida yuz bergan davlat to‘ntarishi natijasida davlat tuzumi va boshqaruv shaklining o‘zgarishi korrupsiyani hodisa sifatida bekor qilgani yo‘q, aksincha, unga ikkiyuzlamachilik bilan yondashdi va bu pirovard natijada yangi ma‘muriy muhitda poraxo‘rlik avj olishiga zamin hozirladi.

Xalq Komissarlar Sovetining 1918-yil 8-maydagi “Poraxo‘rlik to‘g‘risida”gi dekreti sobiq sovet huquqida korrupsiyaga qarshi kurash sohasida qabul qilingan birinchi rasmiy hujjat hisoblanadi. Mazkur dekretga muvofiq davlat yoki jamoat xizmatida bo‘lgan, o‘z vakolatlari jumlasiga kiruvchi harakatlarni bajargani uchun yoki boshqa idora mansabdor shaxsining vazifasi hisoblanuvchi harakatlarni bajarishda ko‘maklashgani uchun pora olishda aybdor shaxslar javobgarlikka tortilgan.

Bunday jinoyatlarga qarshi kurashda asosiy jazo chorasi sifatida otib o‘ldirish qo‘llanilgan. Shu vaqtda oziq-ovqat o‘ta tanqis bo‘lganligi uchun mansabdorlik jinoyatlari doirasi kengaytirilib, mansab vakolatini suiiste‘mol qilish jinoyatlarida hatto oddiy ishchi va dehqonlar ham ayblanganlar. Adliya Xalq Komissariatining 1921-yil 26-fevraldagi “Mansab

Abdulloh ibn Amrning rivoyat qilishicha Rasululloh sallolohu alayhi vassalam “pora beruvchiga va pora oluvchiga Allohning la’nati bo‘lsin” dedilar. Rasululloh sallolohu alayhi vassalam ikkovlarini ham ushbu harom ishni qilganliklari uchun la’natladilar. Rasululloh sallolohu alayhi vassalamning la’natlari juda og‘ir

jazodir. Chunki la'nat - birovning Allohning rahmatidan uzoq bo'lishini so'rashdir. Allohning mahjub rasuli so'ragan narsa bo'lmay qolmasligi hammaga ma'lum.

dor shaxsning oziq-ovqat ishlarida javobgarligini kuchaytirish to'g'risida"gi Qarorida bunday ishlarda jinoyat sodir etgan har qanday shaxs ishchi-dehqon davlatining dushmani hisoblanishi ta'kidlanadi. Ommaviy qatag'onlar jarayonida mansabdor shaxs tushunchasi yanada kengaytirilib, shaxsning g'ayriqonuniy qaror qabul qilishi ham uni xalq dushmani deb e'lon qilish uchun asos bo'lgan. Bu usul mazkur jamiyat uchun juda qulay bo'lib, u tarixan takomillashtirilgan va uzoq vaqtgacha amalda qo'llanilgan.

Mavzuni takrorlash uchun nazorat savollari:

1. Nima uchun korrupsiya tarixi insoniyat tarixi kabi ko'hna hisoblanadi?
2. Korrupsiya haqidagi eng qadimgi qaydlardan birini aytib bering.
3. Amir Temur davlatida amaldorlarni vaqti-vaqti bilan so'roq, tekshirib turishning sababi nimada?
4. Muhammad Narshaxiyning "Buxoro tarixi" asarini, Abdulla Qahhorning "O'g'ri" hikoyasini, Ne'mat Aminovning "Yolg'onchi farishtalar" romanini topib, albatta, o'qib chiqing

Tarixchi Gerodotning xabar berishicha:

Eron shohi Kir II ning o'g'li Kambis II davrida pora olgani uchun Sisamn ismli sudyaning tiriklayin terisi shilinib, o'tirgan kursisiga tortib qo'yilgan hamda uning o'g'li shu vazifaga tayinlangan, toki sudda ish ko'rayotgan chog'ida qanaqa kursida o'tirganini unutmasin. Ana shundan so'ng qadimgi fors sudyalari orasida birorta ham poraxo'rlik holati aniqlanmagan.

Mavzuni to'ldirish uchun tarixiy hujjatdan ma'lumot

Abu Bakr Muhammad ibn Ja'far an-Narshaxiyning "Buxoro tarixi" kitobidan

"Buxoro tarixi" kitobi Markaziy Osiyoning yerli xalqlari tomonidan qachonlardir yozilib, endi o'tmish asrlar sahifalarini yoritish uchun xizmat qilib kelayotgan nodir yozma yodgorliklarning eng qadimiylaridan biridir. Darhaqiqat, bundan 1000 yil muqaddam Markaziy Osiyoning o'zida, o'z farzandi qo'li bilan yozilib, tugal bir asar holida bizning kunlargacha yetib kelgan boshqa tarixiy manba hozir bizga ma'lum emas. Shuning uchun ham "Buxoro tarixi"ni O'rta Osiyo xalqlari tarixnavislik fanidagi eng dastlabki asarlardan biri deb hisoblaymiz.

Bu asar, asosan Markaziy Osiyoda arablar istilosi natijasida islom dinining tarqatilishi (VIII asr) va undan bevosita oldingi davrlar hamda IX-XII-asrlardagi Buxoro va unga yaqin shahar - qishloqlar xalqlarining iqtisodiy, madaniy, ijtimoiy, siyosiy tarixiga oid muhim ma'lumotlarni o'z ichiga olgan va bu hol "Buxoro tarixi"ning qimmatli bosh manba sifatida tarix fanida zo'r shuhrat topishiga asos solgan.

Asarda Buxoroda qozilik qilgan, iymon - e'tiqodli, halol yashagan, nopok yo'llar bilan boylik ortirishni katta gunoh deb hisoblagan, poradan hazar qilgan kishilar haqida qiziqarli ma'lumotlar berilgan.

II. Buxoroda qozilik qilgan kishilar haqida

"Men Abdulloh Muborakdan eshitdimki, - deydi Muhammad ibn A'yan, - Sebavayh Buxoroda qozilik qilganida (xalqning) ikki dirhamiga ham adolatsizlik qilmadi"; so'ng u yana: "Ikki dirham ko'plik qiladi, u tariqcha ham javr o'tkazmadi", - deydi.

Yana Muxallad ibn Umar ham yillar davomida, toki shahid bo'lguniga qadar qozilik qildi. Abu Daym Hozim Sadusiy (ham qozi bo'ldi) va unga xalifadan qozilik farmoni keldi.

G'anjor deb mashhur bo'lgan rahmatli Iso ibn Muso at-Taymiyga qozilikni bergan edilar, u qabul qilmadi. Sulton unga agar qozilik qilmasang biror kishini tanlagin, biz o'shanga beraylik degan edi, buni ham qabul qilmadi. Sulton qozilikka loyiq kishilar nomini uning oldida bir-bir aytinglar deb buyurdi; shunday qildilar, ammo uning oldida kimning nomini atamasinlar, u "loyiq emas" deya berdi va, nihoyat, Hasan ibn Usmon Hamadoniyning nomini tilga olganlarida sukut qildi. Uning sukuti roziligidir dedilar-da, qozilikni Hasan ibn Usmon Hamadoniyga berdilar. Buning

zamonida Xuroson shaharlarida ilmida va taqvodorlikda unga tenglashadigan hech bir kishini ko'rsata olmaganlar.

Yana Omir ibn Umar ibn Imron qozi bo'ldi. Is'hoq ibn Ibrohim ibn al-Xitiy ham qozilik qildi. Bu kishi qozilikdan bo'shatilganidan keyin ikki yuz sakkizinchi yili (823 yil 16- may -824yil 3 may) Tusda vafot topdi.

Yana Sa'id ibn Xalaf al-Balxiyni ikki yuz o'n uchinchi yil jumod al-avval oyining oxirida (16 avgust 828) qozilikka taninladilar. Bu kishi qozilikni shunday olib bordiki, xudoyi taoloning yaratgan bandalariga adolat, insof va shafqat qilish borasida uni misol qilib ko'rsatar edilar. U yaxshi qonun-qoidalar o'rnatdi. Jumladan, toki kuchlik kishi zaif kishiga zulm o'tkazmasin uchun bu to'g'onlarni qurdirib Buxoro suvini adolat va insof yuzasidan taqsim qilishni u kishi asoslagan.

Yana rahmatli Abdulmajid ibn Ibrohim an-Narshaxiy (qozi bo'ldi). Bu kishini xushxulq-taqvodor bandalar jumlasidan hisoblar edilar. Yana Sulton Ahmad ibn Ismoil as-Somoniyni davrida (rahmatli) Ahmad ibn Ibrohim al-Barkadiy qozilik qildi. U ham zohid ham faqih edi. Yana (qozilardan biri) Abu Zar Muhammad ibn Yusuf al-Buxoriy bo'lib, u rahmatli Imom Shofeiyni⁶ suhbatdoshlari jumlasidan hamda olim va zohid edi; uni (barcha) Buxoro olimlari orasida yuqori qo'yar edilar. U kishini yashirnn pora berish va boshqa har xil yo'llar bilan sinab ko'rdilar, ammo u biror narsa bilan ham o'zini bulg'atmadi, balki kundan-kunga undan adolat va insof ravshanroq sodir bo'ldi. U keksaygan paytida qozilikdan bo'shatilishini iltimos qildi va hajga ketib, haj marosimini ado etdi; keyin bir muddat Iroqda turib, payg'ambarning, - xudo unga o'z rahmat va salomini yo'llasin, - hadisini o'rganish talabida shogirdlik qildi. So'ng qaytib Buxoroga kelgach, to umrining oxirigacha uzlatda yashashni ixtiyor etdi; xudo uni rahmat qilsin.

Muxtasari Kofiyning muallifi marhum Abul-Fazl ibn Muhammad ibn Ahmad al-Marvaziy as-Sulamiy ko'p yillar davomida Buxoroda qozilik qildi va zarracha ham o'ziga ayb yuqtirmadi; u barchaga (barobar) adolat va insof yuzasidan ish ko'rar hamda uning davrida olimlik va zohidlikda butun dunyoda ham unga teng keladigan kishi yo'q edi. Shundan keyin u sultonga vazir bo'ldi va shahid bo'lib, o'ldi.

Bu kitobning musannifi aytadi: Agar Buxoro olimlarining hammasini zikr qilsak, bir nechta daftarni tashkil etadi. Biz bayon etib o'tganlarning hammasi payg'ambarning, - xudo unga rahmat va salomini yo'llasin, - (hadisidagi) "mening ummatim (ichidan chiqqan) olimlar Baniy Isroil payg'ambarlari kabi dirlar» degan (kishi)lari jumlasidandirlar.

Mavzuni to'ldirish uchun rasmiy hujjatdan ma'lumot

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-yanvardagi "Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida" PF-5618-son Farmoniga ilova qilingan "Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish konsepsiyasi" dan

Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirib borish qonun ustuvorligini ta'minlash va qonuniylikni mustahkamlashning eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

Huquqiy madaniyatni yuksaltirishda, eng avvalo, huquqiy ta'lim va tarbiya borasidagi ishlar tizimli va uzviy olib borilmayapti. Uzoq yillar davomida bu masala huquqni muhofaza qiluvchi organlar va ayrim davlat organlarining ishi sifatida qarab kelinib, bunda oila, mahalla va fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining ishtiroki yetarlicha ta'minlanmagan.

Yoshlarning huquqiy tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarga nisbatan huquqiy immunitetni shakllantirish, har bir shaxsda qonunlarga va odob-axloq qoidalariga hurmat, milliy qadriyatlarga sadoqat, huquqbuzarliklarga nisbatan murosasizlik hissini uyg'otish ishiga kompleks tarzda yondashilmadi.

Buni unutmang!

Huquqiy ong - shaxsning huquq haqida tushuncha va bilimlari, huquq borasida inson tasavvurlaridir. Huquqiy ong bu - qonunlarni faqat bilishgina emas, balki ularni izchil ijro etish hamdir. Huquqiy ong" tushunchasi "huquqiy savodxonlik" tushunchasidan kengroq.

Huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishda **shaxsiy manfaatlar hamda jamiyat manfaatlari o'rtasidagi muvozanatni saqlash g'oyalari**ni aholi ongiga singdirish ishlarining yetarli olib borilmasligi ham qonun ustuvorligini ta'minlashga o'zining jiddiy salbiy ta'sirini ko'rsatmoqda.

Aholining huquqiy bilimlari yetarli emasligi, shuningdek, davlat organlarining qonunga xilof qarorlari ustidan sudga shikoyat qilish imkoniyatidan deyarli foydalanmasligi mansabdor shaxslar tomonidan fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlari kamsitilishi holatlarining vujudga kelishiga sabab bo'lmoqda.

Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishning asosiy vazifalari:

aholiga mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, qabul qilinayotgan qonun hujjatlari va davlat dasturlarining mazmuni va mohiyatini izchil yetkazish tizimini shakllantirish, fuqarolar ongida **“Jamiyatda qonunlarga hurmat ruhini qaror toptirish – demokratik huquqiy davlat qurishning garovidir!”**g‘oyasini mustahkamlash;

Buni yodda saqlang!

Huquqiy madaniyat - jamiyatning qonunchilik darajasi, mavjud qonunlardan aholining xabardorlik darajasi, xalqning huquq normalariga rioya qilishi va ularni bajarmagan shaxslarga nisbatan murossasiz bo‘lishi tushuniladi. Huquqiy madaniyat bo‘lmasa, huquqiy ong ham bo‘lmaydi. Huquqiy madaniyat bu - huquqiy savodxonlikdir.

jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishda, eng avvalo, ta’lim-tarbiyaning tizimli va uzviy ravishda olib borilishiga alohida e’tibor qaratish, maktabgacha ta’lim tizimidan boshlab, aholining barcha qatlamlariga huquqiy ong va huquqiy madaniyatni chuqur singdirish, **shaxsiy manfaatlar hamda jamiyat manfaatlarini o‘rtasidagi muvozanatni saqlash g‘oyalari**ni keng targ‘ib qilish;

yosh avlod ongiga huquq va burch, halollik va poklik tushunchalarini hamda odob-axloq normalarini chuqur singdirib borish, **Konstitutsiyaning** muhim jihatlari ularga bolaligidan boshlab o‘rgatish;

aholi o‘rtasida huquqiy madaniyatni shakllantirish bo‘yicha huquqiy-ma’rifiy tadbirlarni xalqimiz tarixi, dini, milliy qadriyatlarini o‘rgatish bilan uyg‘un holda tashkil qilish, shuningdek, har bir fuqaroda davlat ramzlari bilan faxrlanish tuyg‘ularini shakllantirish orqali mamlakatga daxldorlik, vatanparvarlik hissini kuchaytirish;

ommaviy axborot vositalarining huquqiy axborot bilan ta’minlashdagi rolini oshirish, huquqiy targ‘ibotning innovatsion usullaridan keng foydalanish, shu jumladan, veb-texnologiyalarni qo‘llashni kengaytirish.

«Yuksak huquqiy madaniyat - mamlakat taraqqiyoti kafolati» degan konseptual g‘oya asosida aholining barcha qatlamlari huquqiy savodxonlikka erishishlari, yuksak darajadagi huquqiy ongga ega bo‘lishlari hamda huquqiy bilimlarini kundalik hayotda qo‘llay olishlari uchun tizimli va keng qamrovli huquqiy targ‘ibot tadbirlarini tashkil qilish davlat organlari va tashkilotlarning ustuvor vazifalaridir.

Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish «**shaxs - oila - mahalla - ta'lim muassasasi - tashkilot - jamiyat**» prinsipi bo'yicha tizimli va uzviy tashkil etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi hamda qo'shimcha huquqiy ma'lumotlar (yuridik lug'at, huquqiy adabiyotlar elektron maydonchasi, qonun hujjatlari loyihalari muhokamasi bo'yicha onlayn forum va boshqalar) yetkazish tizimini o'z ichiga oladigan O'zbekiston Respublikasining milliy huquqiy internet portalini yaratishi shart.

holining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga munosib hissa qo'shgan davlat organlari va tashkilotlar xodimlariga aholining huquqiy savodxonligini oshirishda ko'rsatgan xizmatlari uchun topshiriladigan «Huquqiy targ'ibot ishlari a'lochisi» ko'krak nishoni ta'sis etildi.

Buni unutmang!

Huquq - davlat irodasini ifodalaydigan va uni kuch bilan himoya qiladigan umumiy majburiy normalar majmui (tizimi). Huquq avvalo fe'l-atvor normalari yoki qoidalari majmuasi, aniqroq qilib aytganda tuzilmasidir. Shu ma'noda, huquq erkinlik me'yorini belgilab yoki chegaralab, majburiyat yuklab va aniqlab, kishilar faoliyatini ijobiy yo'naltirish uchun ularning fe'l-atvoriga faol ta'sir ko'rsatadi.

Huquqiy davlat - jamiyatning irodasini ifoda etuvchi va uni aks ettiruvchi, qonunning ustuvorligiga asoslangan umumiy tashkilotdir. Huquqiy davlat - huquqning hukmronligi va ustuvorligi, hokimiyat vakolatlarining bo'linishi, sudning mustaqilligi ta'minlanadigan, huquqni muhofaza etuvchi organlari ishi samarali bo'lgan, haqiqiy xalq hokimiyati, yuqori darajadagi siyosiy-huquqiy madaniyatga erishgan demokratik davlat.

O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi Adliya vazirligi bilan birgalikda maktabgacha ta'lim muassasalarida «Bola huquqlari va majburiyatlari» mavzusidagi mashg'ulotlarni malakali mutaxassislarni jalb qilgan holda ko'rgazmali tarzda tizimli joriy etadi.

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi hamda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi Adliya vazirliklari 2019-2020 o'quv yilidan boshlab ta'lim muassasalarida o'quvchi va talabalarning huquqiy bilimlari uzluksiz va tizimli oshirib borilishini ta'minlash mexanizmini joriy etsin, shuningdek, o'quvchi va talabalarning huquqiy savodxonligini oshirishga qaratilgan o'quv dasturlarini tubdan qayta ko'rib chiqilishini ta'minlaydi.

Hurmatli tinglovchilar! Siz bilan . Korrupsiyaga qarshi kurash tarixini o‘rgandik.

-Bu mavzuni o‘rganish jarayonida Sizda qanday fikr va mulohazalar paydo bo‘ldi?

- Korrupsiyaga qarshi kurash tarixini o‘rganish jarayonida qanday atamalarni bilib oldingiz?

- Korrupsiyaga qarshi kurash tarixini qanday anglab oldingiz?

Hurmatli tinglovchilar! Quyidagi topshiriqlarni kichik guruhlarda bajaring.

QUYIDAGI JADVALNI TO‘LDIRING.

<i>Korrupsiyaning paydo bo‘lishning eng qadimiy davrini tasvirlab bering</i>	<i>Amir Temur davrida.korrupsiyaga qarshi kurash qanday yo‘lga qo‘yilgan edi?</i>	<i>G‘arbiy Yevropada korrupsiyaning namoyon bo‘lishi haqida so‘zlang</i>	<i>G‘arbiy Yevropalik shoirlar, yozuvchilar asarlarida poraxo‘rlik qanday baholangan?</i>
1.			
2.			
3.			

Mavzuni o‘rganish jarayonida Siz qanday me‘yoriy-huquqiy hujjatlarni o‘rgandingiz?	
Mavzuni o‘rganish asnosida olgan bilimlaringizdan o‘z trenerlik va pedagogik faoliyatinigizda qanday foydalanasiz?	

Hurmatli sport sohasi mutaxassislari! Quyidagi jadvalda berilgan tushunchalar sizga qanchalik tanishligini aniqlang. Bunda insert usulidan foydalaning.

“Insert usuli”

Insert - samarali o‘qish va fikrlash uchun belgilashning interfaol tizimi hisoblanib, mustaqil o‘qib-o‘rganishda yordam beradi. Bunda o‘quv uslubiy majmualari, kitob va boshqa materiallarni o‘qish davomida tinglovchi «V; +; -; ?» belgilari orqali o‘z fikrini ifodalaydi.

Matnni belgilash tizimi

(v) - men bilgan narsani tasdiqlaydi.

(+) – yangi ma’lumot.

(-) – men bilgan narsaga zid.

(?) – meni o‘ylantirdi. Bu borada menga qo‘shimcha ma’lumot zarur.

INSERT JADVALI

Savollar	V	+	-	?
<i>Eng qadimgi davrlarda korrupsiyaning paydo bo‘lishi</i>				
<i>G‘arbiy Yevropada korrupsiyaholatlarnin namoyon bo‘lishi</i>				
<i>Amir Temur davlatida.korrupsiya va qoida buzishlarga qarshi kurash usuli</i>				
<i>Turkistonda podsho Rossiyasi hukmronligi davrida korrupsiya holatlari</i>				
<i>G‘arbiy Yevropalik shoirlar, yozuvchilar asarlarida poraxo‘rlik va poraxo‘rlarga berilgan baho</i>				
<i>Islom dinida pora olish va pora berishga munosabat</i>				
<i>Tarixiy asarlarda va o‘zbek adabiyotida korrupsiya holatlarining tasvirlanishi</i>				

III. Korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha xalqaro tajriba.

O'zbekiston Respublikasi o'z ichki va tashqi siyosatini yuritishda xalqaro huquq normalariga ustuvorlik beradi. XX asrning 90-yillari boshidan xalqaro va mintaqa doirasida korrupsiyaga qarshi kurash bilan bog'liq shartnomalar qabul qilina boshlandi. Masalan, Amerikaaro korrupsiyaga qarshi konvensiya 1996-yil 29-martda qabul qilingan; Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti tomonidan 1997-yil 21-noyabrda qabul qilingan "Xalqaro tijorat bitimlarida xorijiy davlatlar mansabdor shaxslarini sotib olishga qarshi kurash to'g'risida"gi; Yevropa Kengashi Vazirlar qo'mitasi tomonidan 1999-yil 27-yanvarda qabul qilingan "Korrupsiya uchun jinoiy javobgarlik"; 2003 yil 12 iyuldagi Afrika Ittifoqining korrupsiyaning

Ushbu bo'limni o'rganish natijasida quyidagilarni bilib olasiz:

-Xalqaro va mintaqa doirasida korrupsiyaga qarshi kurash bilan bog'liq shartnomalar qabul qilina boshlanishi

- Har bir mamlakat, xalq jinoyat va korrupsiya kabi tushunchalarni o'z dunyoqarashi, tafakkuri va mentaliteti darajasiga ko'ra har xil tasavvur qilishi.

-Bugungi kunda korrupsiya muammosiga jahonning deyarli har bir mamlakatida duch kelish mumkinligini

-G'arbiy Yevropa davlatlarida korrupsiyaga qarshi kurash qanday tashkil etilgani haqida

oldini olish va unga qarshi kurash to'g'risida"gi, BMTning "Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka hamda korrupsiyaga qarshi kurash" kabi konvensiyalar shular jumlasidandir. MDH doirasida esa, unga a'zo davlatlar tomonidan 2003-yil 15- noyabrda 22-15-qarorga muvofiq, "Korrupsiyaga qarshi siyosatning qonunchilik asoslari to'g'risida"gi model (qonun) qabul qilingan.

Korrupsiya - har qanday davlatning siyosiy tuzulishi, iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanish darajasidan qat'i nazar, butun dunyoda global muammo hisoblanadi. Jumladan, yaqin o'tmishda Osiyo qit'asida joylashgan Janubiy Koreya, Turkiya va Pokiston davlatlarining sobiq rahbarlariga va yuqori martabali mansabdor shaxslari o'z mansab vakolatlarini suiiste'mol qilganliklari uchun ularga nisbatan parlament tomonidan tekshiruvlar o'tkazilgan. Fransiya, Germaniya, Buyuk Britaniya, Italiya, Yaponiya va AQSh kabi rivojlangan mamlakatlarda ham davlat xizmatidagi mansabdor shaxslarning korrupsiyalashuvi tez-tez uchrab turgan. Misol uchun, 90-

yillarning ikkinchi yarmida Germaniyada 2 mingga yaqin mansabdor shaxslarga nisbatan poraxo‘rlik holatlari bo‘yicha rasman jinoyat ishlari qo‘zg‘atilib, tergov qilingan.

AQShning Oq uy ma‘muriyati esa, doimiy ravishda siyosiy kompaniyalar uchun ajratilgan mablag‘lardan noqonuniy ravishda foydalanilganligi haqi-

Buni yodda saqlang!

Rossiya Federatsiyasi sobiq ittifoq davlatlari orasida korrupsiyaga qarshi samarali kurash olib borayotgan davlatlardan biridir. Jumladan, 1992-yilda Rossiya Federatsiyasi Prezidentining “Davlat xizmati tizimida korrupsiyaga qarshi kurash to‘g‘risida”gi Farmoni e‘lon qilingan, 1997-yil noyabr oyida Rossiya Federatsiyasi Dumasida uchinchi o‘qishda “Korrupsiyaga qarshi kurash to‘g‘risida”gi qonun qabul qilingan.

dagi ayblovlar bilan kurashib keladi.

Har bir mamlakat, xalq jinoyat va korrupsiya kabi tushunchalarni o‘z dunyoqarashi, tafakkuri va mentaliteti darajasiga ko‘ra har xil tasavvur qiladi. Ayrim mamlakatlarda korrupsiya poraxo‘rlikning sinonimi hisoblanadi, ayrim mamlakatlarda esa u kengroq - davlat hokimiyati va hatto jamiyatning ma‘naviy inqirozi sifatida talqin etiladi. So‘zimizning

isboti tariqasida bu masalani bir necha mamlakatlar misolida ko‘rib chiqamiz hamda tegishli xulosalar chiqaramiz. Zotan, Prezidentimiz takror-takror ta‘kidlaganidek, - biz turli mamlakatlar iqtisodiyotining o‘ziga xos taraqqiyotini katta diqqat-e‘tibor bilan o‘rganamiz, jahon amaliyoti va jahon tafakkurida to‘plangan eng yaxshi tajribalarni o‘zimizda qo‘llashni or

bilmaymiz, aksincha, bunday intilishni har jihatdan rag‘batlantiramiz.

Bugungi kunda korrupsiya muammosiga jahonning deyarli har bir mamlakatida duch kelish mumkin. Ammo bu korrupsiya hammayoqda bir xil degan ma‘noni anglatmaydi. Korrupsiyaning vujudga kelish sabablari turli mamlakatlarda har xil bo‘lib, tarixiy bosqich va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot darajasi bilan belgilanadi. Shu bois korrupsiyaning oldini olish va unga barham berishning universal ma‘muriy-huquqiy vositalarini ishlab chiqish deyarli mumkin emas. Keling, shu o‘rinda, korrupsiyaga qarshi kurash borasidagi xalqaro tajriba va hujjatlar xususida to‘xtalib o‘tsak. Ayrim

Korrupsiyaga qarshi kurash borasida xalqaro huquqiy asoslar asta-sekin shakllanib bordi. AQShda

1883 yilda Fuqarolik davlat xizmati Pendlton Qonuni qabul qilingan. Britaniya imperiyasida 1889 yilda «Davlat idoralarida poraxoʻrlikka qarshi kurashish toʻgʻrisida»gi Qonun qabul qilingan. Singapurda 1960 yilda “Korrupsiyaga qarshi kurashish toʻgʻrisida”gi Qonun qabul qilinadi. AQShda 1970 yilda “Uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashish toʻgʻrisida”gi (RIKO) Qonuni qabul qilinadi.

tadqiqotchilar fikriga koʻra korrupsiya darajasi eng past boʻlgan davlatlardan biri Finlyandiya hisoblanadi. Hozirgi kunda Finlyandiyada yiliga 3-4 ta poraxoʻrlik bilan bogʻliq jinoyat ishlari koʻrilar ekan. 1980-1989-yillarda, 81 nafar shaxslar pora olganlik uchun, 49 nafar shaxslar pora berganlik uchun jazolangan. Shunisi eʼtiborliki, Finlyandiya Jinoyat kodeksida - korrupsiya degan tushuncha majud emas. Unda mansabdor shaxslarning poraxoʻrligi uchun jinoiy javobgarlik belgilangan boʻlib, bunday jinoyatni sodir etgan mansabdor shaxslar uchun qilmishning ijtimoiy xavfliligiga qarab jarima yoki 4 yilgacha boʻlgan muddatga turmaga qamash jazosi tatbiq etiladi.

Ajablanarlisi, Finlyandiyada maxsus korrupsiyaga qarshi kurash haqida qonun mavjud emas, korrupsiyaga qarshi kurashuvchi maxsus organ ham tuzilmagan. Korrupsiyaga umumiy jinoyatchilikning bir qismi qabilida kurash olib boriladi. Finlyandiya Konstitutsiyasi, Jinoyat kodeksi, Fuqarolik xizmati toʻgʻrisidagi qonun, maʼmuriy boshqaruvga oid yoʻriqnomalar va boshqa qonunosti hujjatlar korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan hujjatlar hisoblanadi.

Bularning orasida eng muhimi Ahloq qoidalaridir. Finlyandiyada korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan hujjatlar ijrosi ustidan nazorat mamlakat Prezidenti tomonidan tayinlanadigan, biroq, mutloq mustaqil faoliyat yurituvchi Adliya kansleri va parlament vakili Ombudsman tomonidan olib boriladi. Ular butun hokimiyat tarmoqlari faoliyatini nazorat qilish vakolatiga egalar.

Yuqori martabali mansabdor shaxslarni ayblash haqidagi jinoyat ishlari maxsus tashkil etilgan Davlat sudi tomonidan koʻrib chiqiladi. Bu sud hattoki davlat rahbariga nisbatan boʻlgan ishlarni ham koʻrib chiqishi mumkin. Unga Adliya kansleri, parlament vakili Ombudsman, hukumat vakillari, Oliy sud va maʼmuriy sud sudʼyalari aʼzo boʻlishi mumkin. Ikkinchi jaxon urushidan keyin Davlat sudi bor - yoʻgʻi bir marta chaqirilgan xolos.

Davlat xizmatchilari soni unchalik ko'p emas. Ayniqsa, 90 - yillardan keyin davlat xizmatchilari soni deyarli teng yarimiga, ya'ni 230.000 dan 127.000 ga qisqartirilgan. Finlyandiyada davlat xizmatchilarini korrupsiyalashuvidan saqlovchi muhim omillardan biri ularning moddiy va ijtimoiy ta'minlanganligidadir.

Buni unutmang!

Har bir mamlakat, xalq jinoyat va korrupsiya kabi tushunchalarni o'z dunyoqarashi, tafakkuri va mentaliteti darajasiga ko'ra har xil tasavvur qiladi. Ayrim mamlakatlarda korrupsiya poraxo'rlikning sinonimi hisoblanadi, ayrim mamlakatlarda esa u kengroq - davlat hokimiyati va hatto jamiyatning ma'naviy inqirozi sifatida talqin etiladi.

Alohida ta'kidlash lozimki, Finlyandiyada ommaviy axborot vositalari ijtimoiy nazoratning muhim vositasi bo'lib xizmat qiladi. Hukumat esa ommaviy axborot vositalariga nafaqat erkinlik yaratib bergan, balki har bir e'lon qilingan korrupsiya holati bo'yicha aniq choralarni ko'rib boradi. Finlyandiya korrupsiyaga qarshi bir qancha xalqaro hujjatlarga qo'shilgan, xalqaro tashkilotlar va boshqa davlatlar bilan hamkorlik aloqalarini faol olib boradi.

Davlat hokimiyati organlarini korrupsiyaning zararli ta'siridan saqlash zaruriyati AQSh hukumatini korrupsiyaga qarshi kurashni XIX asrda davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilashga majbur qilgan. Lekin bu yo'nalishdagi ishlar faqat XX asrning o'rtalariga kelib faol tus oldi. Shu narsa diqqatga sazovorki, AQSh qonunlarida nafaqat davlat xizmatchisi o'z vazifasini bajarishi chog'ida yuzaga keladigan manfaatlar to'qnashuvi, balki davlat hokimiyati organlarida o'z xizmatini to'xtatgan shaxs bilan shunday holatning ro'y berishi ham nazarda tutilgan.

Fransiyada davlat xizmati tizimidagi korrupsiyaning oldini olish va unga barham berish maqsadida XX asrning 90 - yillarida saylangan barcha davlat xizmatchilariga va korrupsiya ta'siriga berilishi mumkin bo'lgan jamoat xizmati kadrlariga o'z mol-mulki va daromadlari haqida mustaqil idoralarga ma'lumot berish majburiyatini yuklash to'g'risida qaror qabul qilindi. Bundan tashqari, davlat apparati yuqori martabali xodimlarining daromadlari va mol - mulki haqidagi deklaratsiyalar keng miqyosda oshkor etilishini ta'minlaydigan huquqiy va tashkiliy asoslar yaratildi. Ma'muriy muassasada imzolangan munosabatlar yoki ular tomonidan berilgan ruxsatlar haqida keng jamoatchilikka axborot berish shakllari ishlab chiqildi.

Ko'cha harakati qoidalarini buzganlik uchun shu joyning o'zida jarima to'lash taqiqlandi.

Bu qiziq!

Ayrim tadqiqotchilar fikriga ko'ra korrupsiya darajasi eng past bo'lgan davlatlardan biri Finlyandiya ekan. Bu davlatda yiliga 3-4 ta poraxo'rlik bilan bog'liq jinoyat ishlari ko'rilar ekan. 1980-1989 yillarda, 81 nafar shaxslar pora olganlik uchun, 49 nafar shaxslar pora berganlik uchun jazolangan.

Davlat xizmati tizimidagi korrupsiyaning oldini olish va unga barham berish usuli sifatidagi davlat nazoratining samaradorligini oshirish maqsadida prefekturalarning qonuniylikka rioya etilishi ustidan nazorat olib boradigan xizmatlarda band bo'lgan xodimlarining sonini ko'paytirish va malakasini oshirish, shuningdek prefekturalarning xizmatlariga mazmuni korrupsiya xavfini kuchaytiradigan hujjatlarni bajarish muddatini kechiktirish huquqini berish to'g'risida qaror qabul qilindi.

Fransiya hukumati Hisob palatasi vakolatlarini kengaytirish, shuningdek korxonalarining o'z xodimlarini korrupsiya xavfidan saqlash uchun ichki audit va nazorat tadbirlari o'tkazish borasidagi sa'y-harakatlarini qo'llab-quvvatlash to'g'risida qaror qabul qildi. Bundan tashqari, Fransiya hukumati Adliya vazirligi qoshida Korrupsiyaga qarshi kurash markaziy xizmati tashkil etish to'g'risida qaror qabul qildi.

GFR tajribasi korrupsiyaga ta'sirchan sohalarni aniqlash, mamlakat markaziy bankida davlat xizmatchilarini pora evaziga og'dirishda fosh qilingan jismoniy va yuridik shaxslarning ma'lumotlar bazalarini tashkil etish korrupsiyaning oldini olish borasida eng samarali tashkiliy-huquqiy

Buni yodda saqlang!

Korrupsiyaga qarshi kurash siyosati natijasida 1979- yildan e'tiboran Xitoyda 1 mln. mansabdor shaxs korrupsion jinoyatlar sodir etgani uchun jinoiy javobgarlikga tortilgan. Xitoy raxbariyati tomonidan 2012-yildan amalga oshirilayotgan korrupsiyaga qarshi kurash doirasida korrupsion jinoyatlar sodir etgan 13 000 (!) mansabdor shaxs qatl etilgan. 2018-yilda esa korrupsion jinoyat sodir etgan 160 000 davlat idoralaridagi mansabdor shaxslar javobgarlikga tortilgan.

chora-tadbirlar bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatadi. Bu ularga yangi nom bilan yoki boshqa niqob ostida davlat buyurtmalarini olishga, boshqaruv kadrlarini rotatsiya qilishga, boshqaruv xodimlari faoliyati ustidan ichki nazorat olib boradigan tashqi bo‘linmalar tashkil etishga imkon bermaydi.

Rossiya Federatsiyasi sobiq ittifoq davlatlari orasida korrupsiyaga qarshi samarali kurash olib borayotgan davlatlardan biridir. Jumladan, 1992-yilda Rossiya Federatsiyasi Prezidentining “Davlat xizmati tizimida korrupsiyaga qarshi kurash to‘g‘risida”gi Farmoni e‘lon qilingan, 1997-yil noyabr oyida Rossiya Federatsiyasi Dumasida uchinchi o‘qishda “Korrupsiyaga qarshi kurash to‘g‘risida”gi qonun qabul qilingan. Shu bilan birga, Korrupsiyaga qarshi kurashni kuchaytirish bo‘yicha Federal Davlat dasturi ham ishlab chiqilgan.

Faoliyatining dastlabki davrlarida boshqarma tomonidan jinoyatchilikka qarshi kurash olib borish, jinoyat ishlarini tergov qilish bilan bir qatorda quyi bo‘limlarning faoliyati ustidan ham nazorat olib borilgan bo‘lib, keyinchalik bu vazifa mahkamaning prokuratura idoralariga tergov ustidan nazorat qilish boshqarmasiga olib berildi.

Korrupsiyaga qarshi kurash borasida xalqaro huquqiy asoslar asta-sekin shakllanib bordi. AQShda 1883-yilda Fuqarolik davlat xizmati Pendlton Qonuni qabul qilingan. Britaniya imperiyasida 1889 yilda «Davlat idoralarida poraxo‘rlikka qarshi kurashish to‘g‘risida»gi Qonun qabul qilingan. Singapurda 1960-yilda “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonun qabul qilinadi. AQShda 1970-yilda “Uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashish to‘g‘risida”gi (RIKO) Qonuni qabul qilinadi.

1906-yil AQShda ilk bor Xususiy sektorda korrupsiyaga qarshi kurashishga ixtisoslashgan ichki xavfsizlik (komplaens xizmati) tashkil etiladi. 1977-yil AQShning «Xorijda korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi akt» (FCPA - Foreign Corrupt Practices Act) qabul qilinadi. Qonun talabi korporatsiyalarda komplaens xizmati tashkil etilishi shart. 2002-yil 30-iyulda Sarbeynz - Oksli (Sarbanes - Oxley Act, SOX) Qonuni qabul qilinadi va AQSh birjasida o‘z aktivlarini joylashtirgan barcha xorijiy kompaniyalar o‘zlarida korporativ boshqaruv tizimiga korrupsiyaga qarshi komplaens xizmatlarini tashkil etishlari majbur

Xitoy Xalq Respublikasi Jinoyat kodeksiga ko‘ra, korrupsiya deyilganda, o‘zlashtirish, bosib olish, aldash yo‘li bilan yoki jamoat mulkini davlat xizmatchilari tomonidan boshqa noqonuniy usullar bilan xizmat mavqeidan foydalanib olishi tushuniladi. Korrupsiya jinoyatlari uchun aybdorlarga o‘lim jazosi tayinlanadi.

Korrupsiyaga qarshi kurash siyosati natijasida 1979 yildan e'tiboran Xitoyda 1 mln. mansabdor shaxs korrupsion jinoyatlar sodir etgani uchun jinoiy javobgarlikga tortilgan. Xitoy raxbariyati tomonidan 2012-yildan amalga oshirilayotgan korrupsiyaga qarshi kurash doirasida korrupsion jinoyatlar sodir etgan 13 000 (!) mansabdor shaxs qatl etilgan. 2018-yilda esa korrupsion jinoyat sodir etgan 160 000 davlat idoralaridagi mansabdor shaxslar javobgarlikga tortilgan.



Xitoy Xalq Respublikasida 2014-2016-yillarda amalga oshirilgan “Osmon to‘ri” dasturi doirasida 90 dan oshiq davlatlarda yashirinib yurgan korrupsion jinoyatlar sodir etgan 2566 mansabdor shaxslar va ular tomonidan jinoiy yo‘llar bilan olib chiqilgan 8,6 mlrd yuan (1,25 mlrd doll.) pul Xitoyga qaytarildi.

XX asr o‘rtalarida Gongkong “korrupsiya botqog‘iga botib qolgan” (davlat hokimiyati organlari 94% korrupsiyalashgan) edi. 1974-yili hukumat boshlig‘i M.Myurrey mustaqil, hech qaysi davlat organiga bo‘ysunmaydigan Korrupsiyaga qarshi kurash bo‘yicha komissiyani tuzdi. Mahalliy OAV tomonidan erkin tarzda korrupsiya bilan bog‘liq har qanday yangiliklarni e‘lon qilish va jurnalistik surishtiruvlar olib borish faoliyati to‘liq ravishda ta‘minlandi.

Singapur Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurash prinsiplari quyidagicha edi: Jamoatchilik izzasi. Javobgarlik muqarrarligi. Davlat va shaxsiy manfaatlar cheklanishi. Qonun ustuvorligining mustahkamlanishi. Korrupsiyaga qarshi Byuro tashkil etilishi. Rahbarlarning shaxsiy namuna

ko'rsatishi. Lavozimga tayinlanishda xalollik. Mulk va daromadlarni deklaratsiya qilish.

Yuqoridagi misollardan ko'rinadiki, xalqaro tajribada korrupsiya bilan kurashishning minglab uslublari ishlab chiqilgan. Jahon mutaxassislarning fikricha, korrupsiya yuzaga kelishining sabablaridan biri oylik maoshning ozligi hisoblanadi. Bu muammoni yechish uchun Singapurda vazirlar va boshqa amaldorlarning oylik maoshi xususiy sektordagi kompaniya va tashkilotlar



rahbarlari maoshi darajasigacha ko'tarib qo'yilgan. Xodimlar masalasida ham shunday. Xususiy sektorda rahbar va xodimlar daromadi oshib borishi barobarida parallel ravishda davlat xizmatchilari oyliklari ham ko'tarilib boradi.

Singapurda davlat xizmatida ishlash va mansabdor bo'lish uchun ko'p vaqt va jiddiy mehnat talab qilinadi. Shuning uchun davlat xizmatchilari pora olish va tamagirlik qilishdan o'zlarini tiyishadi, aks holda nafaqat mashaqqat bilan erishgan ishidan ajraladi, balki yuqori oylik va ijtimoiy kafolatlardan ham quruq qolishadi.

Bizda esa yosh iqtidorli kadrlar davlat idoralariga ishga borishdan ko'ra, xususiy sektor yoki xorijga ketishni tanlaydi. Chunki u yerda yaxshi to'lashadi. Ishlash uchun shart-sharoitlar ham soz, motivatsiya ham kuchli. Natijada davlat organlariga asosan "kazo - kazo"larning odamlari (orqa baquvvat bo'lsa, tamagirlik qilib ishlashiga hech kim to'sqinlik qila olmaydi); tezroq amalga erishib, o'rnini "yog'li" joyga aylantirish

orzusidagilar; yoki institut va universitetni zo'rg'a tamomlaganlar boradi. Iqtidorli, ishga chanqoq va vatanparvar davlat xizmatchilari ham ko'p. Lekin ulardagi ishchanlik va intilish u muhitda uzoq cho'zilishiga kafolat yo'q. Maqsadi sarobga aylanishini sezishi bilan yaxshiroq taklif tushgan (xususiy sektorga yoki xorijga) joyga o'tib ketadi.

Singapur tajribasidan bizda ham juda foydalansa bo'ladi. Ya'ni ma'lum sohaning rahbari (vazir), o'sha sohadagi eng katta kompaniyalar boshqaruvchilaridan kam bo'lmagan oylik va yillik rag'batlantirishga ega bo'lsa va xodimlar ham shunga yarasha rag'batlantirilsa, hamma ish joyida bo'ladi.

Amallab ishga kirib olib, katta oylikni olib yuraversa-chi, degan savol tug'ilishi mumkin. Singapur tajribasi namuna qilib olindimi, uning faqat oylik belgilash qismi emas, davlat xizmatchilariga qo'yiladigan talablari ham shunga yarasha belgilanadi. Masalan, Singapurda davlat xizmatchisiga oylik maosh 60+40 shaklida belgilanadi. Ya'ni maoshning 40 foizi xodimning ish unumiga qarab to'lanadi. Ishida unum bo'lmasa maoshning deyarli teng yarmini ololmaydi. Agar bu hol davom etaversa, u ishidan ajraladi. Yaxshi va samarali xizmat qilish uchun motivatsiya bu. Singapurda shu tariqa korrupsiya minimal darajaga tushirilgan va tadbirkorlikka keng yo'l ochilgan.

Mavzuni takrorlash uchun savollar:

1. Qachondan xalqaro va mintaqa doirasida korrupsiyaga qarshi kurash bilan bog'liq shartnomalar qabul qilina boshlandi?
2. Bugungi kunda korrupsiya muammosiga jahonning deyarli har bir mamlakatida duch kelish mumkinmi?
3. Korrupsiyaga qarshi kurash borasida turli davlatlar tajribasidan misollar keltiring.

Hurmatli tinglovchilar! Siz bilan "Korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha

xalqaro tajriba" mavzusini o'rgandik.

-Bu mavzuni o'rganish jarayonida Sizda qanday fikr va mulohazalar paydo bo'ldi?

-Jahonning qaysi davlatida korrupsiyaga qarshi kurash qanday yo'lga qo'yilganini bilib oldingizmi?

-Bugungi kunda korrupsiya muammosiga jahonning deyarli har bir mamlakatida duch kelish mumkinmi?

-Korrupsiya qanchalik xavfli illat ekanligini anglab yetdingizmi

Hurmatli tinglovchilar! Quyidagi topshiriqlarni kichik guruhlarda bajaring.

QUYIDAGI JADVALNI TO'LDIRING.

<p><i>Xalqaro va mintaqa doirasida korrupsiyaga qarshi kurash bilan bog'liq shartnomalar qabul qilina boshlanishi</i></p>	<p><i>Har bir mamlakat, xalq jinoyat va korrupsiya kabi tushunchalarni o'z dunyoqarashi, tafa kkuri va mentaliteti darajasiga ko'ra har xil tasavvur qiladi.</i></p>	<p><i>Bugungi kunda korrupsiya muammosiga jahonning deyarli har bir mamlakatida duch kelish mumkin</i></p>	<p><i>G'arbiy Yevropa davlatlarida korrupsiyaga qarshi kurash qanday tashkil etilgani haqida ?</i></p>
1.			
2.			
3.			

<p>Turli davlatlarda korrupsiyaga qarshi kurashish qanday yo'lga qo'yilgani haqida bilib oldingizmi?</p>	
<p>Mavzuni o'rganish asnosida olgan bilimlaringizdan o'z trenerlik va pedagogik faoliyatinigizda qanday foydalanasiz?</p>	

IV. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha [O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan tadbirlar

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha O'zbekistonda o'tgan 3-4 yil oralig'ida jiddiy qadamlar tashlandi. Jumladan, 2017-yil 3-yanvarda "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida", 2017-yil 7-sentyabrda "Huquqiy axborotni tarqatish va undan foydalanishni ta'minlash to'g'risida" O'zbekiston

Ushbu bo'limni o'rganish natijasida quyidagilarni bilib olasiz:

-Korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha O'zbekistonda 3-4 yil oralig'ida qabul qilingan hujjatlarni o'rganasiz;

--"Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunini bilib olasiz;

-Qonunda korrupsiyaga berilgan ta'rifni o'rganasiz;

-.Jahon iqtisodiyoti korrupsiya tufayli yiliga qancha zarar ko'rmoqdaligini bilasiz;

--"Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunini "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunini - Prezidentimiz 2019-yil 27-mayda imzolagan "O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi Farmonining mazmunini o'rganasiz;

Sport ta'lim muassasalarida korrupsiyaga qarshi kurash usullari bilan tanishasiz?

Respublikasining qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-yanvardagi PF-5618-son farmoni bilan "Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida" va shu farmonga 1-ilova sifatida "Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish konsepsiyasi", O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-maydagi PF-5729-sonli "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" farmoni va farmonga 1-ilova sifatida 2019-2020-yillarda korrupsiyaga qarshi kurashish davlat dasturi (35 baddan iborat), O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-iyundagi "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora - tadbirlar to'g'risida

PF-6013-son Farmonining qabul qilinishi va uning asosida Korrupsiyaga qarshi kurashish Agentligining tashkil etilishi juda muhim bo‘ldi

2017-yil 4-yanvardan kuchga kirgan “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunining maqsadi korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat. Hujjatda «korrupsiya», «korrupsiyaga oid huquqbuzarlik», «manfaatlar to‘qnashuvi» kabi asosiy tushunchalarga izoh berilgan. Shuningdek, korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy prinsiplari, korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari keltirib o‘tilgan.



Korrupsiya - shaxsning o‘z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o‘zga shaxslarning manfaatlarini ko‘zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek, bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish;

Soddaroq qilib aytganda, korrupsiya davlat idoralarida ishlovchi shaxslarning o‘z amalidan foydalanib, shaxsiy manfaatlarini hamma narsadan ustun qo‘yishlari, pora evaziga sotilishlari yoki sotib olinishlari, noqonuniy moddiy yoki nomoddiy boylik orttirishlaridir.

Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik - korrupsiya alomatlariga ega bo'lgan, sodir etilganligi uchun qonun hujjatlarida nazarda tutilgan qilmish;
--“Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunini “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunini -Prezidentimiz 2019-yil 27-mayda imzolagan “O‘zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi Farmonining mazmunini o‘rganasiz;

Manfaatlar to‘qnashuvi - shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorlik shaxsning mansab yoki xizmat majburiyatlari lozim darajada bajarishga ta’sir ko‘rsatayotgan yoxud ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan fuqarolarning, tashkilotlarning, jamiyatning yoki davlatning huquqlari va qonuniy manfaatlari o‘rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan vaziyat.

Qonunning **4-moddasiga** ko‘ra, korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

qonuniylik;

fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining ustuvorligi; ochiqlik va shaffoflik;

tizimlilik;

davlat va fuqarolik jamiyatining hamkorligi;

korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlar ustuvorligi; javobgarlikning muqarrarligi.

5-modda. Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari:

- aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murossasiz munosabatni shakllantirish;
- davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlarni amalga oshirish;

- korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni o‘z vaqtida aniqlash, ularga chek qo‘yish, ularning oqibatlarini, ularga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etganlik uchun javobgarlikning muqarrarligi prinsipini ta’minlash.

Qonunning **4-bobida** Korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlari keltirilgan:

- davlat boshqaruvi sohasida korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlar qatorida davlat organlari faoliyatining ochiqligini va ularning hisobdorligini ta’minlash, davlat boshqaruvi tizimining samaradorligini oshirish, davlat organlarining, ular mansabdor shaxslarining va boshqa

xodimlarining o'z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarishi yuzasidan mas'uliyatini kuchaytirish;

-korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida davlat organlarining faoliyati ustidan parlament va jamoatchilik nazoratini amalga oshirish;
- davlat organlarining mansabdor shaxslari va boshqa xodimlari tomonidan o'z mansab yoki xizmat majburiyatlarining bajarilishi samaradorligi mezonlarini, standartlarini va uning sifatini baholash tizimlarini joriy etish;

Buni unutmang!

Korrupsiya barcha mamlakatlarda ham qator muammolarni keltirib chiqarib, jamiyatni ich-ichidan yemirib, parokanda qilib tashlash xavfini solmoqda. Bugun kattami-kichikmi, boymi-kambag'almi, qudratlimi - kuchsizmi bironta davlatni korrupsiyadan xoli hudud, deb aytolmaymiz. BMT va Xalqaro valyuta jamg'armasining ma'lumotlariga ko'ra, jahon iqtisodiyoti korrupsiya tufayli yiliga 1,5 - 2,6 trillion dollargacha zarar ko'rmoqda.

- davlat organlari xodimlarining kasbiy hamda xizmatdan tashqari faoliyatdagi odob-axloqining yagona prinsiplari va qoidalarini belgilovchi odob-axloq qoidalarini samarali amalga oshirish;

19-moddada davlat boshqaruvi sohasida korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlar sirasida davlat organlarining mansabdor shaxslari va boshqa xodimlarining samarali ijtimoiy himoya qilinishini, moddiy ta'minot olishini va rag'batlantirilishini ta'minlash kerakligi qayd etib o'tilgan.

20-moddaga ko'ra, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish va tadbirkorlik sohasida korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlar:
- ma'muriy va byurokratik to'siqlarni bartaraf etish, ro'yxatga olish, ruxsat etish va litsenziyaga doir tartib-taomillarni soddalashtirish hamda ularning tezkorligini oshirish;

- davlat organlarining nazorat-tekshiruv vazifalarini maqbullashtirish, tadbirkorlik sub'ektlarining faoliyatini tekshirish tizimini takomillashtirish, ularning faoliyatiga qonunga xilof ravishda aralashishga yo'l qo'ymaslik;

- davlat organlari va tadbirkorlik sub'ektlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning masofaviy shakllarini keng joriy etish;

22-modda. Ma'muriy tartib-taomillar sohasida korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlar:

- qonuniylik va adolatlilik prinsiplarini ta'minlash, ma'muriy-boshqaruv jarayonining beg'arazligi kafolatlarini yaratish, ushbu jarayonning shaffofligini, tashqi va ichki nazorat uchun ochiqligini oshirish;

- o'z ixtiyoricha harakat qilish vakolatlarini cheklagan holda ma'muriy tartib-taomillarni batafsil tartibga solish, byurokratik rasmiyatchilikka yo'l qo'ymaslik;

- soddalashtirilgan ma'muriy tartib - taomillarni joriy etish;

- davlat organlarining qarorlari ustidan shikoyat qilishning va yetkazilgan zarar o'rnini qoplashning samarali mexanizmlarini belgilash.

Buni esda saqlang!

Qisqa vaqt ichida O'zbekitonda korrupsiyaga qarshi kurashishning huquqiy mexanizmlarini takomillashtirishga oid beshta normativ-huquqiy hujjat, shu jumladan, "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida", "Huquqiy axborotni tarqatish va undan foydalanishni ta'minlash to'g'risida", "Ma'muriy tartib - taomillar to'g'risida", "Jamoatchilik nazorati to'g'risida", "Davlat xaridlari to'g'risida"gi qonunlar qabul qilindi.

Qonunning **26 moddasiga** ko'ra, davlat organlarining xodimlari ularni korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar sodir etishga ko'ndirish maqsadida biror-bir shaxs o'zlariga murojaat etganligiga doir barcha hollar to'g'risida, shuningdek davlat organlarining boshqa xodimlari tomonidan sodir etilgan shunga o'xshash huquqbuzarliklarning o'zlariga ma'lum bo'lib qolgan har qanday faktlari haqida o'z rahbarini yoxud huquqni muhofaza qiluvchi organlarni xabardor etishi shart. Bunga amal qilmaslik, qonun hujjatlariga muvofiq javobgarlikka tortilishga olib keladi.

25-modda (Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni o'z vaqtida aniqlash va ularga chek qo'yishga, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etganlik uchun javobgarlikning muqarrarligi prinsipini ta'minlashga doir chora-tadbirlar) va **28-modda** asosida (Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar to'g'risida axborot berayotgan shaxslarni himoya qilish) korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar to'g'risida axborot berayotgan shaxslar davlat himoyasida bo'ladi, qonunda belgilangan hollar bundan mustasno.

Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar to'g'risida axborot berayotgan shaxslarni ta'qib etish qonunga muvofiq javobgarlikka sabab bo'ladi. Ushbu

moddaning qoidalari korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar to'g'risida bila turib yolg'on axborot bergan shaxslarga nisbatan tatbiq etilmaydi, ular qonunga muvofiq javobgar bo'ladi.

31-modda (Axborot olish) har kim davlat organlarining tashkil etilishi va faoliyat ko'rsatishi to'g'risida, shu shaxsning o'ziga yoki shaxslar guruhiga taalluqli bo'lgan hujjatlarning qabul qilinish jarayonlari haqida axborot olish huquqiga egaligini ta'minlaydi. Davlat organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va boshqa tashkilotlar korrupsiya bilan bog'liq bo'lgan, jamiyat uchun ahamiyatga molik voqealar, faktlar, hodisalar va jarayonlar to'g'risidagi xabarlarni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ommaviy axborot vositalariga taqdim etadi.

32-moddaga ko'ra, Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida xalqaro hamkorlik O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari va xalqaro shartnomalariga muvofiq amalga oshiriladi. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi davlat organlari chet davlatlarning vakolatli organlariga zarur axborotni taqdim etish to'g'risida so'rovlar yuborish va ularning so'rovlariga javob berish huquqiga ega.

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi davlat organlari korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar natijasida olingan mol-mulkni O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari va xalqaro shartnomalariga muvofiq qaytarish choralarini ko'radi.

Bu yaxshi, albatta!

Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar to'g'risida axborot berayotgan shaxslarni ta'qib etish qonunga muvofiq javobgarlikka sabab bo'ladi. Ushbu moddaning qoidalari korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar to'g'risida bila turib yolg'on axborot bergan shaxslarga nisbatan tatbiq etilmaydi, ular qonunga muvofiq javobgar bo'ladi.

Darhaqiqat, hozirgi globallashuv zamon, mintaqalar va davlatlararo integratsiya jadallashib borayotgan murakkab bir sharoitda korrupsiya barcha mamlakatlarda ham qator muammolarni keltirib chiqarib, jamiyatni ich-ichidan yemirib, parokanda qilib tashlash xavfini solmoqda. Binobarin, bugun kattami-kichikmi, boymi-kambag'almi, qudratlimi-kuchsizmi bironta davlatni korrupsiyadan xoli hudud, deb aytolmaymiz. BMT va Xalqaro valyuta jamg'armasining ma'lumotlariga ko'ra, jahon iqtisodiyoti korrupsiya tufayli yiliga 1,5 - 2,6 trillion dollargacha zarar ko'rmoqda.

Shu bois mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi keskin va murosasiz kurash olib borilmoqda. Yuqorida ta'kidlanganidek, "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonunning qabul qilinishi, shuningdek, Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha respublika idoralararo komissiyasining tashkil etilishi va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha Davlat dasturining tasdiqlanishi yurtimizda korrupsiya bilan bog'liq huquqbuzarliklarning oldini olishga qaratilgan qator chora-tadbirlarni samarali amalga oshirilishini ta'minlamoqda. Misol uchun, qisqa vaqt ichida korrupsiyaga qarshi kurashishning huquqiy mexanizmlarini takomillashtirishga oid beshta normativ-huquqiy hujjat, shu jumladan, "Huquqiy axborotni tarqatish va undan foydalanishni ta'minlash to'g'risida", "Ma'muriy tartib - taomillar to'g'risida", "Jamoatchilik nazorati to'g'risida", "Davlat xaridlari to'g'risida"gi qonunlar qabul qilindi.

Prezidentimiz 2019-yil 27-mayda imzolagan "O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi PF-5729-son Farmon bu boradagi izchil sa'y-harakatlarning mantiqiy davomi bo'lib, bundan ko'zlangan asosiy maqsad yurtimizda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi samaradorligini yanada oshirish, eng yuqori darajadagi qulay investitsiyaviy va ishbilarmonlik muhitini yaratish, mamlakatning xalqaro maydondagi ijobiy imijini oshirish va mustahkamlashga qaratilgan.

Mazkur Farmon bilan 2019 – 2020-yillarda korrupsiyaga qarshi kurashish davlat dasturi qabul qilinib, Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha respublika idoralararo komissiyasining yangilangan tarkibi tasdiqlandi.

Farmonda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari ham belgilab berildi. Jumladan, sud hokimiyatining mustaqilligini yanada mustahkamlash, sudyalarga har qanday tarzda qonunga xilof ravishda ta'sir o'tkazish shart-sharoitlarini istisno etish, davlat xizmatchilarini tanlov asosida saralab olish, lavozimga tayinlash va yuqori lavozimlarga ko'tarishning shaffof tartibiga asoslangan davlat xizmati tizimini shakllantirish, davlat xizmatchilari daromadlarini deklaratsiya qilish tizimini bosqichma-bosqich joriy etish, korrupsiya bilan bog'liq huquqbuzarliklar to'g'risida xabar bergan shaxslarni himoya qilishning samarali tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini joriy etish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni kuchaytirish, davlat organlari va tashkilotlarining hisobdorligi va faoliyatining shaffofligini oshirish, fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari faoliyatining chinakam erkinligini ta'minlash va ularni korrupsiyaga qarshi choralarni

tayyorlash, o‘tkazishda va ijrosini monitoring qilishda ishtirok etishga jalb qilish kabi masalalar shular jumlasidandir.

Bundan buyon idoraviy korrupsiyaga qarshi kurashishning samarali dasturlarini amalga oshirish, ularning hisobdorligi va faoliyatining ochiqligi mexanizmlarini joriy etish, odob-axloq qoidalariga rioya etilishi va manfaatlar to‘qnashuvining oldi olinishini ta‘minlash bo‘yicha amaliy chora-tadbirlarni bajarish orqali tegishli sohada korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarga imkon yaratayotgan sabablar va shart-sharoitlarni tagtomiri bilan yo‘qotish davlat organlari va tashkilotlari rahbarlarining birinchi darajadagi muhim vazifasi hisoblanadigan bo‘ldi.

Endilikda, aniqrog‘i 2019-yil 1-iyuldan boshlab davlat organlari o‘z zimmalariga yuklangan vazifa va funksiyalarni amalga oshirishda yuzaga keladigan korrupsiya xavf - xatarlarini vaqti - vaqti bilan majburiy ravishda baholab borishlari lozim. Agar davlat boshqaruvi va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlari korrupsiya xavf - xatarlarini o‘z vaqtida aniqlamasalar hamda tegishli baho bermasalar, shuningdek, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni takroran sodir etish holatlariga yo‘l qo‘ysalar, shaxsan javobgar bo‘ladilar.

Farmonga asosan, uch oy muddatda muayyan toifadagi davlat xizmatchilarining mulki va daromadlarini deklaratsiya qilish tizimini bosqichma - bosqich joriy etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilishi lozimligi belgilandi. Joriy yilning 1 avgustidan boshlab eksperiment tariqasida, jamoatchilik va yetakchi ekspertlarni, shu jumladan, xorijiy ekspertlarni jalb etgan holda dastlabki bosqichda kapital qurilish va oliy ta‘lim sohalarida «Korrupsiyasiz soha» loyihasi amalga oshiriladigan bo‘ldi va amalga oshirilmoqda. Bu loyiha 2020-yil 1-apreldan boshlab boshqa sohalarga ham bosqichma-bosqich joriy etilishi nazarda tutilmoqda.

Farmon bilan qabul qilingan 2019-2020-yillarda korrupsiyaga qarshi kurashish Davlat dasturining “Aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan muhosasiz munosabatni shakllantirish” deb nomlangan yo‘nalishida belgilangan chora-tadbirlarni amalga oshirishda barchamizning qator tashkilotlar hamkorligida ishtirok etishimiz belgilandi. Xususan:

- sodir etilayotgan korrupsiyaga oid jinoyatlarning o‘ziga xos sxemasini o‘rganish asosida korrupsiyaning tipologiyasini tuzish;
- korrupsiyaga moyil bo‘lgan sohalarni aniqlash asosida tarmoqlar kesimida korrupsiyaga oid xaritalarni tuzish;

- korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar sodir etilishining shart-sharoitlari va sabablarini o'rganish, shuningdek ularni bartaraf etish takliflarini ishlab chiqish;

- korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida qabul qilinayotgan chora-tadbirlarning samaradorligini baholash;

- korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida ta'lim va tadqiqot muassasalari ilmiy xodimlariga, shu jumladan, xalqaro tashkilotlardan korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida tadqiqotlar o'tkazish bo'yicha grantlar jalb qilish orqali ko'maklashish;

- korrupsiya darajasi, korrupsiyani idrok etish va shaxsiy tajribasi, shuningdek, davlat hokimiyati institutlariga ishonch va korrupsiyaga qarshi choralarning ta'siri darajasini baholash maqsadida jamoatchilik fikrini o'rganish bo'yicha tadqiqotlarni tashkil qilish ishlarida Markazimiz tashabbuskorlik ko'rsatib, faol ishtirok etishi nazarda tutilmoqda.

Shu maqsadda O'zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport vazirligi huzuridagi Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni ilmiy-metodik ta'minlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish markazi tomonidan ham alohida chora-tadbirlar rejasi asosida faoliyat olib borilmoqda. Unga muvofiq, korrupsiyaga olib keluvchi tub sabablarni aniq tahlil qilish, korrupsiya ildiz otishi mumkin bo'lgan sohalar haqida mas'ul shaxslarni muntazam ogoh etib borish, professor-o'qituvchilar va tinglovchilarning, ayniqsa, yoshlarning huquqiy savodxonligini oshirish, ular orasida korrupsiyaga qarshi kurashish madaniyatini shakllantirish asosiy vazifa sanaladi.

Buni bilib oling!

Agar davlat boshqaruvi va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlari korrupsiya xavf - xatarlarini o'z vaqtida aniqlamasalar hamda tegishli baho bermasalar, shuningdek, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni takroran sodir etish holatlariga yo'l qo'ysalar, shaxsan javobgar bo'ladilar.

Farmonga Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, viloyatlar va Toshkent shahar xalq deputatlari Kengashlari, tuman va shahar xalq deputatlari Kengashlarining tarkibida korrupsiyaga qarshi kurashish komissiyalari tashkil etildi. Ular joylarda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi ishlarning holatini kompleks o'rganish, joylarda korrupsiya

ko‘rinishlari namoyon bo‘lishiga olib keladigan tizimli muammolar va korrupsiyaning holati to‘g‘risida O‘zbekiston Oliy Majlisi palatalarining korrupsiyaga qarshi kurashish va sud-huquq masalalari bo‘yicha qo‘mitalariga ushbu sohadagi faoliyatni takomillashtirish yuzasidan takliflar kiritgan holda muntazam ravishda axborot berib boradi.

Farmonda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari o‘rta muddatli istiqbolda quyidagilardan iborat ekani belgilandi:

-sud hokimiyatining mustaqilligini yanada mustahkamlash, sudyalarga har qanday tarzda qonunga xilof ravishda ta’sir o‘tkazish shart-sharoitlarini istisno etish;

-davlat xizmatchilarini tanlov asosida saralab olish, lavozimga tayinlash va yuqori lavozimlarga ko‘tarishning shaffof tartibiga asoslangan davlat xizmati tizimini shakllantirish, ular uchun cheklovlar, taqiqlashlar, rag‘batlantirish choralari hamda korrupsiyaning oldini olish boshqa mexanizmlarining aniq ro‘yxatini belgilash;

-davlat xizmatchilari daromadlarini deklaratsiya qilish tizimini bosqichma-bosqich joriy etish va ularning ish haqi yetarli darajada bo‘lishini ta’minlash, shuningdek, davlat xizmatini o‘tashda manfaatlar to‘qnashuvini hal etishning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish;

korrupsiya bilan bog‘liq huquqbuzarliklar to‘g‘risida xabar bergan shaxslarni himoya qilishning samarali tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini joriy etish;

aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yanada oshirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan muhosasiz munosabatni kuchaytirish;

-davlat organlari va tashkilotlarining hisobdorligi va faoliyatining shaffofligini oshirish;

-fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari faoliyatining chinakam erkinligini ta’minlash va ularni korrupsiyaga qarshi choralarni tayyorlash, o‘tkazishda va ijrosini monitoring qilishda ishtirok etishga jalb qilish.

Idoraviy korrupsiyaga qarshi kurashishning samarali dasturlarini amalga oshirish, ularning hisobdorligi va faoliyatining ochiqligi mexanizmlarini joriy etish, odob-axloq qoidalariga rioya etilishi va manfaatlar to‘qnashuvining oldi olinishini ta’minlash bo‘yicha amaliy chora-tadbirlarni bajarish orqali tegishli sohada korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarga imkon yaratayotgan sabablar va shart-sharoitlarni tag - tomiri bilan yo‘qotish davlat

organlari va tashkilotlari rahbarlarining birinchi darajadagi muhim vazifasi hisoblanadi.

Buni yodda saqlang!

2019 yilning 1 avgustidan boshlab eksperiment tariqasida, jamoatchilik va yetakchi ekspertlarni, shu jumladan, xorijiy ekspertlarni jalb etgan holda dastlabki bosqichda kapital qurilish va oliy ta'lim sohalarida «Korrupsiyasiz soha» loyihasi amalga oshiriladigan bo'ldi va amalga oshirilmoqda. Bu loyiha 2020 yil 1 apreldan boshlab boshqa sohalarga ham bosqichma-bosqich joriy etilishi nazarda tutilmoqda.

2019-yil 1-iyuldan boshlab davlat organlari zimмага yuklangan vazifa va funksiyalarni amalga oshirishda yuzaga keladigan korrupsiya xavf-xatarlarini vaqti-vaqti bilan majburiy baholab boradi, uning yakunlari bo'yicha:

-korrupsiya xavf - xatariga eng ko'p duch keladigan davlat xizmatchilarining faoliyat sohalari va lavozimlari, shuningdek, ularning funksiyalari (vakolatlari)ning ro'yxatini shakllantiradi;

-idoraviy korrupsiyaga qarshi kurashish dasturlari ijrosining har choraklik monitoringini amalga oshiradi va korrupsiyaviy xavf-xatarlarni minimum darajaga tushirish choralari ko'radi;

-Idoralararo komissiya bilan kelishgan holda har yilgi idoraviy korrupsiyaga qarshi kurashish dasturlarini tasdiqlaydi;

-har yili Idoralararo komissiyaga tegishli organlar va tashkilotlar faoliyatida, shu jumladan, qonunchilikni va huquqni qo'llash amaliyotini takomillashtirish orqali korrupsiya xavf-xatarlariga barham berish bo'yicha takliflarni kiritadi.

Davlat boshqaruvi organlari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlari korrupsiya xavf-xatarlarini o'z vaqtida aniqlamaganliklari va tegishli baho bermaganliklari, shuningdek, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni takroran sodir etish holatlariga yo'l qo'yganliklari yuzasidan shaxsan javobgar bo'ladi.

2019-yil 1-sentyabrdan boshlab ta'lim muassasalarida yoshlarga korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida huquqiy ta'lim berish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar tatbiq etilishi lozim. Bundan tashqari, umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi va oliy ta'lim muassasalarining o'quv dasturlarida korrupsiyaga qarshi mavzular yanada kuchaytiriladi.

Buni bilib oling!

Manfaatlar to'qnashuvi - shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorlik shaxsning mansab yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta'sir ko'rsatayotgan yoxud ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan fuqarolarning, tashkilotlarning, jamiyatning yoki davlatning huquqlari va qonuniy manfaatlari o'rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan yoki yuzaga kelishi mumkin bo'lgan vaziyat.

Uch oy muddatda, shu jumladan, texnik infratuzilmani va zarur dasturiy ta'minotni yaratishga oid zaruriy chora-tadbirlarni amalga oshirishni nazarda tutgan holda muayyan toifadagi davlat xizmatchilarining mulki va daromadlarini deklaratsiya qilish tizimini bosqichma-bosqich joriy etish bo'yicha takliflar ishlab chiqilishi lozim. Qo'shimcha ravishda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida jamoatchilik nazorati mexanizmlarini samarali qo'llashga yo'naltirilgan «Yo'l xaritasi» loyihasi ishlab chiqildi. Unda Oliy Majlis palatalari va siyosiy partiyalarning rolini yanada kuchaytirish, huquqni muhofaza qiluvchi organlarning Oliy Majlis palatalari oldidagi hisobdorligi tartibini takomillashtirish, qarorlar qabul qilish jarayonida fuqarolar ishtirokining shaffof va samarali usullarini joriy etish ko'zda tutilgan.

Darhaqiqat, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan muhosasiz munosabatni shakllantirish bugungi kunda nihoyatda dolzarb masala bo'lib, bu borada nafaqat mas'ul idoralar, balki keng jamoatchilik ham hamjihat va hamfikir bo'lmog'i maqsadga muvofiqdir. Shundan kelib chiqib, qaerdadir ta'magirlik, poraxo'rlik holatlariga duch kelsak, har birimiz bu noxush hodisaga nisbatan befarq bo'lmasligimiz, loqaydlik qilmasligimiz, aksincha, korrupsiya illatini tag - tomiri bilan quritishga qaratilgan sa'y-harakatlarni vijdo nan bajarishga kirishmog'imiz burch va mas'uliyatimizga aylanmog'i darkor.

Buni yodda tuting!

Prezident Shavkat Mirziyoev: "Korrupsiyaga qarshi kurashishda aholining barcha qatlamlari, eng yaxshi mutaxassislar jalb qilinmas ekan, jamiyatimizning barcha a'zolari, ta'bir joiz bo'lsa, "halollik vaksinasi" bilan emlanmas ekan, o'z oldimizga qo'ygan yuksak marralarga erisha

olmaymiz. Biz korrupsiyaning oqibatlari bilan kurashishdan uning barvaqt oldini olishga o'tishimiz kerak".

Boshqacha aytganda, adolatsizlikka nisbatan murosasiz bo'lishni o'zimizdan boshlashimiz zarur. Zero, bu borada har bir fuqaroning huquqi qonuniy asosda qat'iy kafolatlangan. Ya'ni, "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonunda jismoniy va yuridik shaxslarning korrupsiyaga oid huquqbuzarlik faktlariga doir murojaatlari to'liq, xolisona va o'z vaqtida ko'rib chiqilishi, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar to'g'risida axborot bergan shaxslar himoya qilinishi belgilab qo'yilgan.

Qolaversa, 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasining "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturida nazarda tutilgan korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashishning samarali mexanizmlarini yaratish chora-tadbiridan ko'zlangan pirovard maqsad ham Jahon bankining «Biznesni yuritish» reytingidagi 2020-yil yakuni bo'yicha barcha yo'nalishlarda O'zbekistonning o'rnini tubdan yaxshilash, nufuzini oshirishga qaratilgan. Buning uchun boshqa sohalar qatori korrupsiya illatiga barham berish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki biron bir davlatga sarmoya kiritish istagida bo'lgan investor, eng avvalo, o'sha davlatdagi investitsion iqlimning barqarorligiga, yaratib berilgan shart-sharoitlar, imkoniyatlar va albatta, huquqiy kafolatlarga qiziqadi. O'sha davlatda poraxo'rlik, ta'magirlik, korrupsiya holatlariga yo'l qo'yilmasagina investitsiya kiritishga bel bog'laydi. Shunday ekan, korrupsiyaga sabab bo'layotgan holatlarni hamda jamiyatni bu balodan qutqarish masalasi muhokamasini yo'lga qo'yish hamda bu haqda keng jamoatchilikni, xalqaro hamjamiyatni xabardor qilib borish dolzarb ahamiyatga ega. Binobarin, iqtisodiyotimizni yanada jadal yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirish, mamlakatimizda investitsiya muhitini yaxshilash borasidagi strategik vazifalarni hal etish bevosita korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida davlat siyosatining samarali amalga oshirilishi bilan chambarchas bog'liq. Bu maqsad yo'lida barchamiz birlashishimiz, bir yoqadan bosh chiqarishimiz, hamjihat va hamfikir bo'lishimiz, korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha amalga oshirilayotgan davlat siyosatini nafaqat qo'llab-quvvatlashimiz, balki unda faol ishtirok etishimizni bugungi davrning o'zi taqazo etayotganini unutmashligimiz shart va zarur.

«Korrupsiya bilan hech qachon maqsadimizga erisha olmaymiz»-dedi Prezident Shavkat Mirziyoev -2018-yil 7-dekabrda O'zbekiston

Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganing 26 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasida: "Bir yil davomida 1177 mansabdor shaxs javobgarlikka tortildi. Televizorda har kuni ko'rib turibsiz: bankda, hokimiyatda, shifoxonada, prokuraturada, ichki ishlar organlarida korrupsiya. Qachon bu kasallikdan xalos bo'lamiz? Qachon butun mamlakat bo'lib unga qarshi kurashamiz? 1177 mansabdor shaxs orasida viloyat hokimlari ham bor. Bu nima degani? Bu jamiyatimiz adolat, halollik, mas'uliyat, xalq ehtiyojlarini qondirish, xalqqa xizmat qilish kabi tushunchalardan hali uzoqligidan dalolat beradi", - dedi davlatimiz rahbari.

Buni yodda tuting!

Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik - korrupsiya alomatlariga ega bo'lgan, sodir etilganligi uchun qonun hujjatlarida javobgarlik nazarda tutilgan qilmish;

Prezident Shavkat Mirziyoev O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 26 yilligiga bag'ishlangan ma'ruzasidagi taklifiga binoan 2019-yil yanvar oyida bunday Oliy Majlisning quyi va yuqori palatalarida Korrupsiyaga qarshi kurash va sud - huquq masalalari qo'mitalari tuzildi va ularga davlat organlari va muassasalarida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ichki dasturlarni ishlab chiqish, hayotga tatbiq etish jarayoni ustidan parlament nazoratini amalga oshirish kabi qator vazifalar yuklatildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 dekabr Oliy Majlisga Murojaatnomasida korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida quyidagi fikrlarni bayon etildi: korrupsiyaning har qanday ko'rinishiga murosasiz bo'lish kundalik hayot tarzimizga aylanishi shart.

Bu illatga qarshi kurashishga barcha davlat organlari, siyosiy partiyalar, jamoat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari, umuman, har bir fuqaro safarbar etilishi zarur.

Korrupsiya o'ta og'ir jinoyat ekani va unga nisbatan murosasiz bo'lish g'oyasini farzandlarimizga yoshlik davridan boshlab singdirishimiz, ularga faqat halol mehnat va tadbirkorlik orqali daromad topishni o'rgatishimiz lozim.

Shuningdek, korrupsiyaning oldini olishda barcha davlat organlarida qaror qabul qilish jarayonlari, ochiq va faqat ochiq bo'lishini ta'minlash hal qiluvchi ahamiyatga ega. Masalan, fuqarolarimiz joriy yildan boshlab ochiq e'lon qilinayotgan davlat xaridlariga oid ma'lumotlardan foydalanib, o'rinli masalalarni ko'tarmoqda.

Moliya vazirligi uch oy muddatda davlat idoralari byudjetdan tashqari jamg'armalarining daromad va xarajatlari, davlat ulushiga ega bo'lgan tashkilotlar xaridlari, davlat subsidiya va grantlariga oid ma'lumotlarni e'lon qilish amaliyotini yo'lga qo'ysin.

Bundan tashqari, oxirgi ikki yilda hokimlarning 2,5 mingga yaqin qarori sudlar tomonidan bekor qilingani bundan buyon ularning qaror qabul qilishida ochiqlikni ta'minlash zarurligini taqozo etmoqda. Shuning uchun mahalliy davlat hokimiyati idoralarining qarorlarini hisobga qo'yish va e'lon qilish bo'yicha elektron axborot tizimi joriy etiladi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi bir oy muddatda ochiq e'lon qilinishi lozim bo'lgan ma'lumotlar ro'yxatini kengaytirish bo'yicha taklif kiritsin.

Korrupsiyaga qarshi kurashishning samarali vositalaridan biri – kadrlarni tanlash va ishga qabul qilishning ochiq tizimini yo'lga qo'yishdan iborat. Ushbu tizim asosida kadrlarni tanlashda eski usullardan voz kechib, ularning intellektual salohiyatini, ma'naviy fazilatlarini baholaydigan ochiq va oshkora tanlov tizimi joriy etiladi.

Shuningdek, korrupsiyaning oldini olish bo'yicha davlat xizmatchilarini muntazam o'qitish va bilimni baholab borish tizimi yo'lga qo'yiladi.

2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasining "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturini izchil ro'yobga chiqarish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 iyundagi "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida PF-6013-son Farmoniga asosan O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tashkil etildi.

Yurtimizda korrupsiyaga qarshi amalga oshirilayotgan jiddiy tadbirlarka qaramay bu salbiy holatnt yo'qotib bo'lmayapti. Mamlakatimizda barcha sohalarda amalga oshirilayotgan shiddatli islohotlar amaldagi qonunchilikni takomillashtirishni, yangi normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qilishni taqozo etmoqda.

Amalga oshirilayotgan islohotlarning samaradorligi esa avvalambor qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlarning amaliyotda qo'llanilishi, samaradorligi, ortiqcha byurokratik to'siqlarni vujudga keltirmasligi va xalq manfaatlariga xizmat qilishi bilan ifodalanadi.

O'z navbatida, bugungi kunda amalda 30 mingdan ortiq normativ-huquqiy hujjatlar mavjud bo'lib, ularda bir-birini takrorlovchi va bir-biriga

qarama qarshi bo'lgan normalar uchrayotganligi, byurokratik to'siqlar va korrupsiyaviy omillarni keltirib chiqaruvchi eskicha tartib-qoidalarining hamon saqlanib qolayotganligi ushbu masalaga strategik yondashuvni talab etmoqda.

Mazkur muammolarni bartaraf etishda tartibga solish ta'sirini baholash instituti muhim ahamiyat kasb etadi. Tartibga solish ta'sirini baholash amaliyoti AQSh, Rossiya Federatsiyasi, Germaniya, Qozog'iston va Belarus kabi xorijiy davlatlarning tajribasida mavjud.

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining Istanbul harakatlar rejasi 4-raundi davomida bergan tavsiyalarida ham tartibga solish ta'sirini baholash tizimini eng muhim normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qilishda joriy etish va bunday ishlar toifalarini belgilash tavsiya etilgan.

Bizda ham ushbu vosita bosqichma-bosqich amaliyotga kiritilmoqda. Xususan, normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqishda jamoatchilik nazoratining vositalari amaliyotga joriy etilmoqda.

Masalan, keyingi yillarda normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini "regulation.gov.uz" portali orqali jamoatchilik muhokamasidan o'tkazish tajribasi shakllantirildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2021-yil 15-martda qabul qilingan Qarori esa tartibga solishni baholash institutini yangi bosqichga ko'tardi.

Mazkur qaror bilan tadbirkorlik faoliyatiga, fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga hamda atrof-muhitga ta'sir ko'rsatishi nazarda tutilgan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish jarayonida ularning ehtimoliy oqibatlarini baholanadi, shuningdek, ko'zlangan maqsadga erishilganligi o'rganiladi.

Bir so'z bilan aytganda, normativ-huquqiy hujjatni qabul qilishda uning loyihasini ishlab chiqayotgan ma'lum bir vazirlik yoki idoraning mas'ul tarkibiy tarmog'i bilan cheklanib qolmasdan, ushbu jarayonga manfaatdor vazirlik va idoralar hamda keng jamoatchilik jalb etiladi.

Belgilangan yangi tartibga asosan, jamoatchilik muhokamasidan o'tmagan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari qabul qiluvchi organlar tomonidan majburiy tartibda ishlab chiquvchilarga qaytariladi.

Qolaversa, loyihaning jamoatchilik muhokamasiga qo'yilganligi to'g'risida ishlab chiquvchi ommaviy axborot vositalarida hamda ijtimoiy tarmoqlarda e'lon berishi qat'iy belgilandi. Qonun hujjatlarini qabul qilishda ushbu mexanizmlarning yo'lga qo'yilishi tadbirkorlik sohasida sog'lom raqobat muhitini ta'minlash, fuqarolar hayotiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan norma va omillarga chek qo'yishga, va eng asosiysi - korrupsiyaning oldini

olishga xizmat qiladi. Chunki hammamiz yaxshi bilamiz - ko‘plab mamlakatlarda davlat va jamiyat taraqqiyotiga asosiy g‘ov bu korrupsiya hisoblanadi, yurtimiz ham bundan mustasno emas.

Mana so‘nggi ikki yilda korrupsiya oqibatida mamlakatimiz iqtisodiyotiga 2 trillion so‘mlik zarar yetkazilganligi, 2020 yilning o‘zida 2 123 nafar shaxs korrupsiyaga oid jinoyatlari uchun javobgarlikka tortilgani bu masala naqadar dolzarb ekanini ko‘rsatadi.

Shu sababli, so‘nggi yillarda korrupsiyaga qarshi kurashish davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi, unga qarshi kurashning huquqiy asoslari yaratildi. Prezidentimiz o‘z lavozimiga kirishgandan so‘ng imzolagan dastlabki qonunlardan biri aynan “ Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonuni bo‘lgani ham yurtimizda ushbu illatga qarshi kurashda yuksak siyosiy iroda borligini ko‘rsatadi.

2020-yil 29-iyunda imzolangan Farmon esa korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha ishlarni yangi pog‘onaga ko‘tardi. Mazkur farmon bilan korrupsiyaga qarshi kurashishning, yangi, samarali vositalarini joriy etish belgilandi. Shuningdek, korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasida davlat siyosatini shakllantirish va amalga oshirish uchun mas‘ul bo‘lgan maxsus vakolatli davlat organi - O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tuzilib, uning maqomi, vazifalari belgilab berildi.

Agentlik faoliyatining asosiy yo‘nalishlaridan biri etib esa - normativ-huquqiy hujjatlar va ularning loyihalarini korrupsiyaga qarshi ekspertizasi samaradorligini ta‘minlash, shuningdek, korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasidagi qonunchilikni takomillashtirish, xalqaro standartlarni va ilg‘or xorijiy amaliyotni joriy etish bo‘yicha takliflarni ishlab chiqish hamda amalga oshirish belgilandi.

Normativ-huquqiy hujjatlar va ular loyihalarida korrupsiyaviy omillarni aniqlashda, ularni baholash maqsadida ulardagi mansab vakolatini suiiste‘mol qilish yoki boshqa turdagi korrupsiya holatlariga imkon yaratuvchi normalarni bartaraf etishda korrupsiyaga qarshi ekspertiza muhim ahamiyat kasb etadi.

Bilamizki, ayrim hollarda qonun hujjatining o‘zida korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar sodir etish imkoniyatini yaratadigan normalar mavjud bo‘ladi. Albatta, bu muammo vaqti kelib bartaraf etilishi, hujjat takomillashtirilishi mumkin, lekin orada ushbu hujjat davlat iqtisodiyotiga juda katta zarar keltirishi va hokimiyatga ishonchsizlik shakllantirishi mumkinligi ham fakt.

Mana masalan, Qozog‘iston Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi ma‘lumotlariga ko‘ra 2020-yilda qonun hujjatlaridagi 3400 dan ortiq korrupsion omillarni bartaraf etilishi natijasida, davlat va jamiyat manfaatlariga 2 mlrd 200 million tangadan ortiq zarar keltirilishining oldi olingan. Ushbu raqamlar Qozog‘iston misolida bo‘lsa ham korrupsiyaga qarshi ekspertizaning ahamiyatini ko‘rsatib turibdi.

Shu sababli loyihalarni korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o‘tkazish juda muhim bo‘lib, bu orqali qabul qilinishi rejalashtirilayotgan qonun hujjatlari loyihasida korrupsion normalarning mavjudligini istisno qilish va bunday normalarning amaliyotga joriy etilishining oldini olishga erishamiz.

O‘zbekistonda normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o‘tkazish masalasiga 2006-yildan e‘tibor berila boshladi. 2011-yilda korrupsiyaga qarshi ekspertiza bo‘yicha dastlabki uslubiyot yaratildi, 2015-yilda esa bu yo‘nalishda dastlabki normativ-huquqiy hujjat Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarining korrupsiyaga qarshi ekspertizasini o‘tkazish uslubiyoti Adliya vazirligida davlat ro‘yxatidan o‘tkazildi.

O‘tgan davrda o‘tkazgan tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki ayrim hollarda qabul qilingan qonun hujjatining o‘zida korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar sodir etish imkoniyatini yaratadigan normalar mavjud bo‘ladi.

Shundan kelib chiqib, yaqinda Adliya vazirligi bilan hamkorlikda Normativ-huquqiy hujjatlar va ular loyihalarining korrupsiyaga qarshi ekspertizasini o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizom ishlab chiqilib amaliyotga tadbiiq etildi.

Nizom bilan davlat organlari va tashkilotlari tomonidan cheklist to‘ldirish orqali korrupsiyaviy omillarni aniqlashni nazarda tutuvchi mutlaqo yangi tartib joriy etildi.

Bunda, hujjatning har bir normasi va qoidasi tahlil qilinib, korrupsiyaviy omil bor yoki yo‘qligi cheklistda aks ettiriladi.

Shu bilan birga, korrupsiyaviy omillar to‘liq qayta ko‘rib chiqildi hamda huquqni qo‘llovchilar va fuqarolarga ularning ma‘nosi aniq, lo‘nda va batafsil misollar bilan yoritilgan uslubiyot asosida tushuntirib berildi.

Ma‘lumki, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-iyundagi Farmonida Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligiga “Normativ-huquqiy hujjatlar va ular loyihalarining korrupsiyaga qarshi ekspertisasi to‘g‘risida”gi Qonun loyihasini ishlab chiqish belgilangan edi.

Shundan kelib chiqib, hozirda Agentligimiz tomonidan Normativ-huquqiy hujjatlar va ular loyihalarining korrupsiyaga qarshi ekspertisasi to‘g‘risidagi qonun loyihasi ishlab chiqildi.

Loyihani ishlab chiqishda, Janubiy Koreya, Sloveniya, Ozayrbayjon, Rossiya, Latviya va Ukraina kabi davlatlarning shu yo‘nalishdagi qonunchiligi tahlil qilindi.

Qonun loyihasida bir qator yangi tartiblar nazarda tutilgan bo‘lib, ularning aksariyati normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqishda jamoatchilik nazoratini kuchaytirishga qaratilgan.

Jumladan, hujjat loyihasida antikorrupsion ekspertiza sub’ektlari sifatida Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, Adliya vazirligi va vazirlik va idoralarning yuridik xizmatlari bilan bir qatorda nodavlat notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari hamda mustaqil ekspertlarning ham ishtiroki nazarda tutilgan.

Yoki, ko‘p sonli korrupsiyaga oid normalari mavjudligi bilan bog‘liq holatda jamoatchilikning noroziligiga sabab bo‘lgan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari yuzasidan Agentlikning korrupsiyaga qarshi mustaqil ekspertiza o‘tkazishi belgilangan.

Shuningdek, loyihada korrupsiyaviy omillar belgilangan bo‘lib, ular qatoriga haddan ziyod diskresion normalar, bajarilishi haddan ziyod qiyin bo‘lgan va og‘irlashtirilgan talablarni o‘z ichiga olgan normalar va huquqiy noaniqlik va noshaffoflik kiritilgan.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, kuni kecha Prezident tomonidan imzolangan “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunining yangi tahririda normativ-huquqiy hujjat loyihalari korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o‘tkazilishi shartligi belgilandi. Bu albatta yaxshi yangilik. Lekin bu qonunda amaldagi normativ-huquqiy hujjatning ekspertizasi faqatgina Adliya vazirligi va uning hududiy bo‘linmalari tomonidangina o‘tkazilishi mumkinligi belgilangan. Yangi qonun loyihasida qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar nafaqat Adliya vazirligi tomonidan, balki boshqa davlat va nodavlat tashkilotlari, OAV, shuningdek, mustaqil ekspertlar tomonidan ham o‘tkazilishi mumkinligi nazarda tutilmoqda.

Shu bilan birgalikda, bizning asosiy vazifamiz kelgusida korrupsiyaga qarshi ekspertizani o‘tkazishda faqatgina Adliya vazirligi, agentlikning yoki loyiha ishlab chiquvchilarning vazifasi bo‘lib qolmasligini ta’minlash hisoblanadi.

Korrupsiyaga qarshi ekspertizada nodavlat notijorat tashkilotlarning va ommaviy axborot vositalarining ishtirokini to‘laqonli ta’minlash, loyihalardagi korrupsiogen faktorlar haqida xulosa bera oladigan mustaqil ekspertlar guruhini shakllantirishimiz lozim.

Chet el tajribasini xususan, Yevropa Ittifoqi davlatlari (Avstriya, Polsha, Ispaniya, Daniya, Finlandiya va hok.) mamlakatlarini oladigan bo'lsak u yerda ko'plab mustaqil ekspertlar qonun loyihalari bo'yicha shu jumladan korrupsiogen faktorlar o'zlarining ekspertlik xulosalarini berishadi.

Ahamiyatlisi, u yerdagi mustaqil ekspertlar nafaqat o'zlarining balki Osiyo va Afrika davlatlarida ishlab chiqilayotgan qonunchilik hujjatlariga ham o'zlarining ekspertlik xulosalarini taqdim etib borishadi.

Shu sababli biz ham dastlab korrupsiyaga qarshi mustaqil ekspertizani rivojlantirishini shu jumladan ekspertlarni qo'llab quvvatlash, rag'batlantirish, ularning salohiyatini doimiy ravishda oshirib borish mexanizmlarini yaratishimiz kerak bo'ladi.

Bu yerda albatta yana bir muammo kelib chiqadi, kadrlar muammosi. Bu muammoni hal etish uchun tizimli ravishda ishlashimiz, eng avvalo oliy o'quv yurtlarida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha mutaxassislik yo'nalishlarini tashkil qilishimiz ham maqsadga muvofiqdir.

Albatta loyihani takomillashtirish bo'yicha ishlar davom ettirilmoqda, bunda chet ellik ekspertlar fikriga ham e'tibor beriladi. Loyihani takomillashtirishda albatta, bugungi tadbirda bildirilgan fikrlarni ham inobatga olamiz.

Umuman olganda, yuqorida aytib o'tilgan ikkala institut ham, ya'ni tartibga solish ta'sirini baholash hamda normativ-huquqiy hujjatlarning korrupsiyaga qarshi ekspertizasi, avvalambor, xalq manfaatlarini himoya qilishga hamda korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan islohotlar hisoblanadi.

Ular, shubhasiz kelgusida o'z samarasini beradi. So'zimizni yakunida, yana bir bor Agentlik korrupsiyaga qarshi kurashishni muvofiqlashtiruvchi organ sifatida, korrupsiyaga qarshi har qanday hamkorlikka tayyor ekanligini bildiraman.

Oliy Majlis Senatining 2021-yil 23-apreldagi yalpi majlisida byudjet masalasi muhokama qilinib, bu sohada talon-torojliklarga chek qo'yish kerakligi aytiladi..

2020-yilda 2,5 mingdan ziyod byudjet muassasasida 301 milliard so'mdan ortiq byudjet mablag'lari talon-taroj qilingan. Narxlarni sun'iy oshirish orqali davlat xaridlarini amalga oshirish holatlari aniqlanganligi tashvishli hol. Korrupsiyaga qo'l urgan mansabdor shaxslar soni ko'payib borayotgani (2019-yilda 1 ming 339 nafar,

2020-yilda 1 ming 723 nafar) mazkur illatga qarshi kurashishni yanada kuchaytirishni taqozo etadi. Tahlillarga ko'ra, qurilish sohasidagi 44 qonun hujjati ekspertizadan o'tkazilganda, ularning yarmida (23 tasida) 124 ta;

sogʻliqni saqlash sohasidagi 70 qonun hujjatining 19 foizida (13 tasida) 41 ta; Taʼlim sohasidagi 96 qonun hujjatining 18 foizida (17 tasida) 81 korrupsiyaviy omillar aniqlangan. 420 mln soʻmga qurilgani aytilgan maktab aslida boʻm-boʻsh yer boʻlib chiqdi,-dedi Senat raisi Tanzila Norboeva

Senat raisi shulardan kelib chiqib, prokuratura mazkur yoʻnalishdagi ishlarda taʼsirchan va qatʼiy choralar qoʻllashi, Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashiga aniq takliflar kiritishi zarurligini taʼkidladi.

Majlisda tadbirkorlikni qoʻllab-quvvatlash borasida joylardagi mutasaddilar masʼuliyatni toʻla his qilmayotgani tanqid qilindi. Xususan, 5 ming 200 dan ziyod tadbirkor huquqlari buzilgan. Tadbirkorlar manfaatlariga zid keluvchi 350 dan ziyod noqonuniy hujjat chiqarilgan. 24 mingga yaqin tadbirkorning turli yoʻnalishlardagi (kredit, yer, bino, kommunikatsiya, litsenziya) muammolari faqatgina prokuratura organlarining aralashuvidan keyin hal qilingan.

Qishloq xoʻjaligida yerdan samarali foydalanishga yetarlicha eʼtibor qaratilmaganligi oqibatida 10 ming gektardan ziyod yer oʻzboshimchalik bilan egallangan. Qariyb 14 ming gektar yerdan maqsadsiz foydalanilgan.

Ayrim sohalarida byudjet mablagʻlarini talon-toroj qilish holatlariga barham berilmayotganini umuman tushunib boʻlmaydi,-dedi Tanzila Norboeva. – Xalq taʼlimi tizimida 192 mlrd soʻmdan ziyod moliyaviy xato va kamchiliklar aniqlangan. Soxta hujjatlar asosida 40 mlrd soʻmdan ortiq mablagʻ, jumladan, Dehqonobod, Chiroqchi, Qamashi, Yakkabogʻ tumanlari xalq taʼlimi boʻlimlarida 8,7 mlrd soʻmlik ish haqi noqonuniy oʻzlashtirilgan, milliardlab mablagʻlar samarasiz loyihalarga ajratilgan. Tizimdagi qurilish-taʼmirlash ishlarida qariyb 6 mlrd soʻm mablagʻ notoʻgʻri sarflangan. Beruniy tumanida 420 mln soʻmga qurilib, foydalanishga topshirildi deb koʻrsatilgan maktab filiali aslida boʻm-boʻsh yer boʻlib chiqqanini aqlga sigʻdira olmaymiz.

2020 yilda sodir etilgan korrupsiyaviy jinoyatlar statistikasi

Korrupsiya bilan bogʻliq jinoyatlar boʻyicha sudlangan shaxslar toifasi;

Jinoyatlarning moddalar kesimidagi tahlili;

Jinoyatlarning sodir etilishiga sabab boʻlgan omillar.

Sudlar tomonidan 2020 yil davomida korrupsiya bilan bogʻliq (JK 205-214, 243-moddalari) jami 2 270 nafar shaxsga nisbatan 1 502 ta jinoyat ishi koʻrib chiqilgan.

Shundan 2 203 nafar shaxsga nisbatan 1 457 ta jinoyat ishi boʻyicha hukm chiqarilgan.

Jumladan:

80 nafar shaxsga nisbatan 59 ta jinoyat ishi bo'yicha oqlov hukmi;

2 123 nafar shaxsga nisbatan 1 398 ta ish bo'yicha ayblov hukmi chiqarilgan;

67 nafar shaxsga nisbatan 45 ta jinoyat ishi tugatilgan.

Jinoyatlarning sodir etilishiga sabab bo'lgan omillar

45 nafar shaxsga nisbatan davlat xaridlari bilan bog'liq qonun talablariga rioya qilinmaganligi;

45 nafar shaxsga nisbatan huquqbuzarlikka qarshi kurashish borasidagi profilaktika ishlari samarali tarzda olib borilmaganligi;

50 nafar shaxsga nisbatan davlat xizmatchilarini tanlov asosida saralab olish, lavozimga tayinlash va yuqori lavozimlarga ko'tarishning shaffof tartibining mavjud emasligi;

55 nafar shaxsga nisbatan ayblanuvchining sohaga taalluqli bo'lmagan xizmatlarga birlashtirilganligi (sohasiga taalluqli bo'lmagan xizmatlarda sodir etilganligi);

88 nafar shaxsga nisbatan shaxsning (jabrlanuvchi) o'z manfaati yo'lida qonunni chetlab o'tishga urinishi yoki boshqa tarzdagi manfaatdorligi sababli jinoyatga yo'l ochib berganligi;

99 nafar shaxsga nisbatan ish hajmining to'g'ri taqsimlanmaganligi va malakali xizmat ko'rsatilmaganligi;

122 nafar shaxsga nisbatan davlat organlari xodimlari mansab yoki xizmat majburiyatlarini bajarish chog'ida manfaatlar to'qnashuviga olib keladigan yoki olib kelishi mumkin bo'lgan shaxsiy manfaatdorlikka yo'l qo'yganligi;

179 nafar shaxsga nisbatan ishga qabul qilishda mansabdorning (xodimning) shaxsi lozim darajada o'rganilmaganligi, ayblanuvchining malaka darajasi yetishmasligi (muqaddam jinoyat sodir etganligi yoki sodir etishga moyilligi);

262 nafar shaxsga nisbatan ayblanuvchining ijtimoiy ta'minlanmaganligi yoki adolatli mehnat sharoiti tashkil etilmaganligi;

598 nafar shaxsga nisbatan tizimda ish faoliyati to'g'ri yo'lga qo'yilmaganligi, sohada byurokratik to'siqlarning mavjudligi (faoliyatning o'zi korrupsiyaga yo'l ochib berganligi);

642 nafar shaxsga nisbatan fuqarolarning moddiy manfaatdorlik yoki shaxsiy boylik orttirish yo'lida jinoyatga qo'l urishi kabi omillar korrupsiya bilan bog'liq jinoyatlarning sodir etilishiga imkon yaratgan.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha O'zbekistonda so'nggi 3 yil oralig'ida qabul qilingan hujjatlarni sanab bering.
2. 2017-yil 4-yanvardan kuchga kirgan "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunida korrupsiyaga qanday ta'rif berilgan:?
3. BMT va Xalqaro valyuta jamg'armasining ma'lumotlariga ko'ra, jahon iqtisodiyoti korrupsiya tufayli yiliga qancha zarar ko'rmoqda?.4.
4. Prezidentimiz 2019-yil 27-mayda imzolagan "O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi PF-5729-son Farmonining mazmunini ayting.
- 5.O'zbekistonda Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tashkil etilishining zarurati nimada deb o'ylaysiz?

HURMATLI TINGLOVCHILAR! Siz bilan "Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan tadbirlar" mavzusini o'rgandik.

-Bu mavzuni o'rganish jarayonida yurtimizda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha O'zbekiston Respublikasid amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan Sizda qandy fikr va tasavvurlar paydo bo'ldi?

- Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar bo'yicha korrupsiya bilan bog'liq qanday terminlarni bilib oldingiz?

- Korrupsiyaga qarshi kurashish jarayonida bu kurashning maqsad va vazifalarini qanday anglab oldingiz?

HURMATLI TINGLOVCHILAR! Quyidagi topshiriqlarni kichik guruhlarda bajaring.

QUYIDAGI JADVALNI TO'LDIRING.

O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha qabul qilingan rasmiy hujjatlarning	Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunining mazmunini	Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlarining	Modul o'qituvchilariga yana qanday talab va savollarni qo'yish mumkin?
--	---	---	---

mohiyatini tushuntiring	bilib oldingizmi?	mazmunini tushuntiring	
1.			
2.			
3.			

Siz mehnat qilayotgan ta'lim muassasasida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha mos keladigan qanday hujjatlarni o'rgandingiz?	
Modulni o'rganish asnosida olgan bilimlaringizdan o'z pedagogik faoliyatigizda qanday foydalanasiz?	



Hurmatli sport sohasi mutaxassislari! Quyidagi jadvalda berilgan tushunchalar sizga qanchalik tanishligini aniqlang. Bunda insert usulidan foydalaning.

“Insert usuli”

Insert - samarali o'qish va fikrlash uchun belgilashning interfaol tizimi hisob-

lanib, mustaqil o'qib-o'rganishda yordam beradi. Bunda o'quv uslubiy majmualar,

kitob va boshqa materiallarni o'qish davomida tinglovchi «V; +; -; ?» belgilari

orqali o'z fikrini ifodalaydi.

Matnni belgilash tizimi

(v) - men bilgan narsani tasdiqlaydi.

(+) – yangi ma'lumot.

(-) – men bilgan narsaga zid.

(?) – meni o'ylantirdi. Bu borada menga qo'shimcha ma'lumot zarur.

INSERT JADVALI

Savollar	V	+	-	?
<i>O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha qabul qilingan rasmiy hujjtlar</i>				
<i>Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining qonuni</i>				
<i>O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha farmonlari va qarorlari</i>				
<i>Siz mehnat qilayotgan ta’lim muassasasida korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha tatbiq etsa bo‘ladigan huquqiy hujjatlar</i>				
<i>O‘rganish uslublari</i>				

Mavzuni to‘ldirish uchun rasmiy hujjatdan ma’lumot

*O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-iyundagi
“O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini
takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”
PF-6013-son Farmonining mazmuni*

2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasining “Ilm, ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturini izchil ro‘yobga chiqarish, shuningdek, jamiyat va davlat hayotining barcha sohalarida korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashishga qaratilgan davlat siyosatining samaradorligini oshirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini

takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida PF-6013-son Farmoniga asosan O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tashkil etildi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi (keyingi o'rinlarda – Agentlik) maxsus vakolatli organ bo'lib, korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasida davlat siyosatini shakllantirish va amalga oshirish uchun mas'ul organ hisoblanadi. Agentlik Prezidentga bo'ysunadi va Oliy Majlis palatalari oldida hisobdordir.

Uning asosiy vazifalari va faoliyat yo'nalishlari quyidagilardan iborat:
mamlakatda korrupsiya holatini tizimli tahlil qilishni ta'minlash;

korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasida davlat siyosatini hamda korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning tizimli sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etish, korrupsiyaga qarshi kurashish choralarining samaradorligini oshirishga qaratilgan davlat va boshqa dasturlarni shakllantirish va amalga oshirish;

jamiyatda korrupsiyaning barcha ko'rinishlariga murossasiz munosabatni shakllantirish;

vazirlik va idoralarning korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasidagi faoliyatini muvofiqlashtirish, davlat organlari, OAV, fuqarolik jamiyati institutlari va boshqa nodavlat sektor vakillarining ushbu masalalar bo'yicha birgalikdagi samarali faoliyatini tashkil etish;

davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tizimi ("komplaens-nazorat") hamda korrupsiyaga qarshi kurashishning boshqa xalqaro vositalarini joriy etish va samarali faoliyat ko'rsatishini tashkillashtirish;

Normativ-huquqiy hujjatlar (NHH) va ularning loyihalarini korrupsiyaga qarshi ekspertizasi samaradorligini ta'minlash, shuningdek korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasidagi qonunchilikni takomillashtirish;

davlat xizmatchilarining daromad va mol-mulkini deklaratsiya qilish tizimi joriy etilishi va samarali faoliyat ko'rsatishini hamda ushbu jarayonda aniqlangan korrupsiya holatlariga o'z vaqtida ta'sir choralari ko'rilishini ta'minlash;

davlat xizmatiga halollik standarti («halollik vaksinasi») va manfaatlar to'qnashuvini hal etish standartlarini joriy etishda ko'maklashish bo'yicha ta'sirchan choralarni ko'rish;

byudjet mablag'lari, xalqaro tashkilotlar va xorijiy davlatlarning qarzlardan foydalanish va davlat xaridlari sohasida korrupsiyaga qarshi nazorat tizimining samaradorligini tahlil qilish;

korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasida xalqaro hamkorlikni rivojlantirish;

korrupsiyaning holati, tendensiyalari va sabablari hamda korrupsiyaga qarshi choralar ko‘rishning samaradorligi yuzasidan sotsiologik, ilmiy va boshqa tadqiqotlarni tashkil etish, korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashishning ta’sirchanligini oshirish bo‘yicha takliflarni ishlab chiqish;

korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatning ochiqligi va shaffofligini ta’minlash.

Agentlik har yili Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida milliy ma’ruzani tayyorlaydi. Hujjat OAVda e’lon qilinadi va ko‘rib chiqish uchun Prezident va Oliy Majlisga kiritiladi.

Agentlik quyidagilarga vakolatli hisoblanadi:

byudjet mablag‘larining sarflanishi, davlat aktivlarining realizatsiya qilinishi, davlat xaridlari, investitsiya loyihalarining amalga oshirilishi va davlat dasturlari bajarilishi bilan bog‘liq materiallarni talab qilish, olish va o‘rganish;

o‘z vakolatiga taalluqli masalalar yuzasidan NHH qabul qilish;

jismoniy va yuridik shaxslarning korrupsiya masalalari bo‘yicha murojaatlarini ko‘rib chiqish hamda ularning buzilgan huquqlarini tiklash va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha choralar ko‘rish;

davlat organlari va tashkilotlari faoliyatida korrupsiya holatini o‘rganish;

korrupsiyaga oid jinoyatlar sodir etilishining sabab va shart-sharoitlarini aniqlash, tizimli korrupsiyaning rivojlanish tendensiyalarini tahlil qilish maqsadida qonunchilikka muvofiq jinoyat ishlari materiallarini o‘rganish;

o‘rganish va boshqa tadbirlar natijalari bo‘yicha to‘plangan materiallarni huquqni muhofaza qiluvchi va boshqa davlat organlariga taqdim etish;

korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar bo‘yicha ma’muriy surishtiruvlar o‘tkazish;

ijro hokimiyati va xo‘jalik boshqaruvi organlari hamda ularning mansabdor shaxslari qarorlarida korrupsiya belgilari aniqlangan hollarda ularning ijrosini to‘xtatish yoki bekor qilish to‘g‘risida ko‘rib chiqilishi majburiy bo‘lgan taqdimnomalarni kiritish;

davlat organlari, tashkilotlari va ularning mansabdor shaxslariga korrupsiyaga oid huquqbuzarlikka yo‘l qo‘ymaslik to‘g‘risida ogohlantirishlar hamda korrupsiyani keltirib chiqaruvchi sabab va shart-sharoitlarni bartaraf etish choralarini ko‘rish to‘g‘risida taqdimnomalar kiritish.

Agentlikning ogohlantirish, taqdimnoma va murojaatlari ko'rib chiqilishi shart. Ko'rib chiqish natijalari yuzasidan 10 kun ichida yozma axborot berilishi lozim.

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha respublika idoralararo komissiyasi va uning hududiy bo'linmalari O'zbekiston Respublikasi korrupsiyaga qarshi kurashish **milliy kengashi** va uning **hududiy kengashlari** etib qayta tashkil etiladi. Agentlik Milliy kengashning ishchi organi etib belgilanadi.

Agentlik direktori maqomi, mehnatga haq to'lash shartlari, tibbiy va transport xizmati ko'rsatish shartlari bo'yicha vazirga, uning o'rinbosarlari esa vazir o'rinbosarlariga tenglashtiriladi. Qolgan xodimlar mehnatiga haq to'lash shartlari va mehnat haqi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligidagi singari bo'ladi. Idora boshqaruv xodimlarining cheklangan soni 50 shtat birligi miqdorida belgilanadi, Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi (10 ta) hamda Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamentining (40 ta) shtat birliklarini qisqartirish hisobiga shakllantiriladi.

Agentlikka xalqaro standartlar bo'yicha tanlov asosida ishga qabul qilinadi. Xodimlarga egallagan lavozimi va ish stajiga muvofiq va mavjud bo'lganda, avvalgi ish joyida berilgan - harbiy va maxsus unvonlar (martaba darajalari, malaka toifalari, diplomatik martabalar) hisobga olingan holda martaba darajalari beriladi. Agentlikka birinchi marta ishga qabul qilinayotganlar Bosh prokuratura Akademiyasida maxsus ta'lim dasturlari bo'yicha ishdan ajralgan holda o'qitiladi.

V. Korrupsiyaga qarshi kurashish usullari

Korrupsiyaviy daromad - harom daromad bo'lib, daromadlardagi tengsizlikni keltirib chiqaradi. Korrupsiya kishilarda norozilik uyg'otib, jamiyatdagi milliy xavfsizlikka tahdid soladi. Korrupsiya daromadlarning poraxo'rlar qo'lida to'planishiga olib keladi. Poraxo'r qo'lida jamg'arilgan pul investitsiyaga ham xizmat qilmaydi. Bu qo'ldagi pul qoldig'ini ko'paytiradi hamda pul muomalasiga yoxud mamlakat monetar xavfsizligiga rahna soladi.

Ushbu bo'limni o'rganish natijasida quyidagilarni bilib olasiz:

Korrupsiyaviy daromadning pul muomalasiga va mamlakat monetar xavfsizligiga raxna solishi;

Korrupsiyaviy jinoyatlarga yuqori latentlik (yashirinlik) xosligi;

Korrupsiyaga qarshi kurashishning muvaffaqiyati uchun noan'anaviy, biroq samarador ta'sir choralarini ishlab chiqish zarurligi;

Bevosita korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi davlat organlari va ularning vazifalari haqida;

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha hududiy idoralararo komissiyalar to'g'risida;

Korrupsiyaga bog'liq va korrupsiyasiz ta'lim haqida;

Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni ilmiy metodik ta'minlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish markazida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha targ'ibot va tashviqot ishlari haqida.

Korrupsiyaga qarshi kurash siyosatining maqsadi – korrupsiya darajasini pasaytirish hamda fuqarolar, jamiyat va davlat huquqlari va qonuniy manfaatlarining korrupsiya bilan bog'liq tahdidlardan himoya qilishdan iborat. Bu davlatning korrupsiyaga qarshi qabul qilingan turli qonunlari, qarorlari, dasturlarida o'z ifodasini topadi. Korrupsiyaga qarshi kurash siyosati – bu korrupsiyaning oldini olish, uni tugatish va cheklash borasidagi sa'y-harakatlari va aniq chora-tadbirlar majmuidir.

Korrupsiya har qanday davlat va jamiyat hayotiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Davlatning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy funksiyalarining talab darajasida bajarilishiga monelik qiladi. Shu bois mamlakatimizda qabul

qilingan rasmiy hujjatlarda korrupsiya milliy xavfsizlikka tahdid deya e'tirof etilgan. Kriminolog tadqiqotchilarning fikricha, korrupsiyaviy jinoyatlarga yuqori latentlik (yashirinlik) xosdir. Bunday jinoyatlarning latentligi 90 - 99 foiz atrofida baholanadi.

Kriminologiya fani yutuqlari, xorijiy mamlakatlarda korrupsiyaning oldini olish uchun o'tkazilgan tadqiqotlar va korrupsiyaga qarshi kurashishda erishilgan yutuqlarni o'rganib, bu borada e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan quyidagi jihatlarni aytmoqchi edik:

– korrupsiyani cheklash bir martalik kampaniya bo'lishi mumkin emas. Har qanday kampaniya tugashi bilan korrupsiya yangi va murakkabroq ko'rinishda paydo bo'lishi mumkin;

– faqat qonunchilik uslublari (yo'li) va qayd etilgan holatlarga qarshi kurashish bilan korrupsiyani cheklab bo'lmaydi. Qolaversa, avvalo uni vujudga keltiruvchi omillarga qarshi kurashish kerak;

– korrupsiyaga qarshi kurashishga jamiyat va davlatning barcha kuchi safarbar etilgan taqdirdagina muvaffaqiyatli bo'ladi;

– davlat va jamiyatga korrupsiya yetkazayotgan zarar shunchalik kattaki, unga qarshi kurashish dasturini amalga oshirish uchun ketadigan barcha xarajatlar bir necha baravar foyda keltirishi muqarrar.

Korrupsiyaga qarshi kurashishni muvaffaqiyatli tashkil etish uchun noan'anaviy, biroq samarador ta'sir choralarini ishlab chiqish va tatbiq qilish masalasida ham izlanishlar olib borish kerak. Jumladan, korrupsiya davlat xizmatchilari faoliyati bilan bog'liq bo'lgani tufayli xizmatchilarning axloqiga qo'yilgan talablarni kuchaytirishga, ularning faoliyatini rag'batlantirishga yo'naltirilgan huquqiy bazani takomillashtirishga alohida e'tibor qaratish muhim hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 3-yanvarda qabul qilingan "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonunida turli sohalarda korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlarga alohida e'tibor qaratilgan bo'lib, ularni quyida keltirib o'tamiz;

davlat organlari faoliyatining ochiqligini va ularning hisobdorligini ta'minlash, davlat boshqaruvi tizimining samaradorligini oshirish, davlat organlarining, ular mansabdor shaxslarining va boshqa xodimlarining o'z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarishi yuzasidan mas'uliyatini kuchaytirish;

korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida davlat organlarining faoliyati ustidan parlament va jamoatchilik nazoratini amalga oshirish;

davlat organlarining va ular xodimlarining faoliyatida korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarga yo'l qo'ymaslik;

davlat organlarining mansabdor shaxslari va boshqa xodimlari tomonidan o'z mansab yoki xizmat majburiyatlarining bajarilishi samaradorligi mezonlarini, standartlarini va uning sifatini baholash tizimlarini joriy etish;

davlat organlari xodimlarining kasbiy hamda xizmatdan tashqari faoliyatdagi odob-axloqining yagona prinsiplari va qoidalarini belgilovchi odob-axloq qoidalarini samarali amalga oshirish;

davlat organlari xodimlari manfaatlarining to'qnashuvini hal qilishning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish, ularga rioya etilishi yuzasidan monitoring o'tkazilishini ta'minlash;

davlat organlari xodimlarining huquqiy maqomini belgilash, xizmatni o'tashning shaffof tartibini o'rnatish, shaxsiy va kasbiy sifatlar, ochiqlik, beg'arazlik, adolatlilik va xolislik prinsiplari asosida tanlov bo'yicha saralash hamda xizmatda ko'tarilish tizimini joriy etish;

davlat organlari tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risidagi qonun hujjatlari talablariga rioya etilishi, murojaatlarning to'liq, xolisona va o'z vaqtida ko'rib chiqilishi, ular tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarning buzilgan huquqlari, erkinliklarini tiklash hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha o'z vakolatlari doirasida choralar ko'rilishi ustidan nazoratni ta'minlash;

davlat organlari faoliyatida korrupsiyaning oldini olishga doir tadbirlarning amalga oshirilishi yuzasidan ushbu organlar tomonidan ko'rilayotgan chora-tadbirlar samaradorligini baholagan holda muntazam ravishda monitoring o'tkazish;

davlat organlarining mansabdor shaxslari va boshqa xodimlarining samarali ijtimoiy himoya qilinishini, moddiy ta'minot olishini va rag'batlantirilishini ta'minlash.

ta'lim, sog'liqni saqlash, ijtimoiy ta'minot, kommunal xizmat ko'rsatish sohasida va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning boshqa sohalarida aholi uchun adolatli shart-sharoitlarni hamda teng imkoniyatlarni yaratish, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarga yo'l qo'ymaslik;

nodavlat tashkilotlarda korrupsiyaga qarshi kurashishning samarali mexanizmlarini joriy etish.

Korrupsiyaga qarshi kurashish borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarni jadallik va qat'iyat bilan amalga oshirish talab etiladi. Shuningdek, quyidagi jihatlarga e'tibor qaratish lozim deb hisoblaymiz:

- korrupsiyaga qarshi kurashishning huquqiy asoslarini yanada takomillashtirib borish;

- korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etganlik uchun javobgarlikning muqarrarligi prinsipini amalda ta'minlash;

- korrupsiya bilan bog'liq jinoyatlarni sodir etganlar uchun aholi ichida sayyor sud majlislarini ko'paytirish va ko'rgazmali sud majlislarini uyushtirish;

- mas'ul lavozimlarga tavsiya etilayotgan nomzodlarga talablarni kuchaytirish;

- davlat xizmatining nufuzini, davlat xizmatchilarining maoshini va mas'uliyatini oshirish;

- aholi o'rtasida jamiyatda huquqiy ongini, huquqiy madaniyatni yuksaltirishga va qonuniyligni mustahkamlashga qaratilgan huquqiy targ'ibotga doir chora-tadbirlarning sifati va miqdorini yanada oshirish;

- korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning o'z vaqtida oldi olinishini, aniqlanishini va ularga chek qo'yilishini ta'minlashga, ularning oqibatlarini, shuningdek ularga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etishga doir kompleks tadbirlar ishlab chiqish;

- fuqarolarning siyosiy partiyalarga bo'lgan ishonchini yanada oshirish;

- davlat organlarining mansabdor shaxslari ustidan keng jamoatchilik nazoratini o'rnatish;

- mansablarning sotilishining oldini olish, oliy o'quv yurtlariga kirish imtihonlarining haqqoniy bo'lishiga erishish va boshqalar.

Korrupsiyaga qarshi kurash har taraflama taraqqiy etgan davlatning ustuvor vazifalaridan biri sanaladi. Qanchalik qayg'uli tuyulmasin, jinoyatchilik hamma mamlakatlarda va hamma davrlarda bo'lgan. Lekin XX asrning 90-yillariga kelib u, dunyo miqyosidagi jarayonlar ta'sirida, o'ta xavfli ko'lam kasb etmoqda.

Shu sababli xalqaro-huquqiy sohada korrupsiya muammolariga nisbatan yondashuvning o'zgarishi kuzatilmoqda. Korrupsiya, xuddi temirdagi zang kabi, davlat boshqaruvi tizimini chiritishi, unga putur yetkazishi, davlat xizmati va davlat xizmatchilariga salbiy munosabatni vujudga keltirishi, hokimiyat nufuzi, davlat lavozimlaridagi xizmat obro'sining yo'qolishiga, hozirgi amaldorlik kadrlar korpusini tavsiflovchi sifat ko'rsatkichlarining yomonlashishiga sabab bo'lishi, binobarin, davlatchilik g'oyasiga putur yetkazishi ayon bo'lib qoldi.

Shuni ta'kidlab o'tish lozimki, korrupsiyaga qarshi kurash hamda uning oldini olish juda og'ir ishdir, chunki u nafaqat yashirin tarzda, balki jinoiy til biriktirib sodir etiladi. U, odatda, shikoyat berilishiga sabab bo'lmaydi, chunki aybdor taraflar qonunga xilof bitimdan naf ko'radilar. Hatto tovlamachilik yo'li bilan haq berishni talab qilish ustidan ham shikoyat

kamdan-kam hollarda beriladi, chunki turli mamlakatlarda yashaydigan odamlar korrupsiyaga qarshi kurash jarayoniga ishonchsizlik bilan qaraydilar.

Korrupsiya muttasil ravishda o'z qiyofasini o'zgartiradi va takomillashib boradi. Yashirinlik - uning asosiy xususiyatidir. Shu bois mazkur hodisa haqida to'liq ma'lumotlar hech qaerda mavjud emas. Sud qarshisida javob bergan aybdor shaxslar esa bundan ham kamroq. Amalda ayrim, eng quyi toifa korrupsiyachilargina jazoga tortiladi.

Bugungi kunda huquqni muhofaza qilish organlarini ko'pchilik korrupsiyaga qarshi yetarli chora-tadbirlar ko'rmayotganlikda ayblamoqda. Biroq bu yerda davrimizning mazkur xavfli illatiga qarshi kurashning samarasizligi sabablarini aniqlab olish muhimdir. Muhim sabablardan biri shundaki, O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha qonunchilik bazasi endigina takomillashtirilmoqda..

Bizningcha korrupsiya jinoyatlarining oldini olish uchun quyidagilarga e'tibor qaratish lozim:

korrupsiyaning barcha turlariga barham berish uchun o'z jinoyat qonunchiligining muvofiqligini, shu jumladan jinoyat-huquqiy va protsessual normalarini yanada takomillashtirish;

korrupsiya hamda hokimiyat vakolatini suiiste'mol qilishning oldini olish uchun ma'muriy mexanizmlar va tartibga solish mexanizmlarini ishlab chiqish;

korrupsiya domiga ilingan mansabdor shaxslarni aniqlash, tergov qilish va hukm etishning maxsus taomillarini belgilash;

korrupsiya natijasida qo'lga kiritilgan mablag'lar va mol-mulkni musodara qilish uchun huquqiy qoidalarni ishlab chiqish;

korrupsiyani vujudga keltirayotgan aniq sabab va shart-sharoitlarni aniqlash.

Ma'lumki, korrupsiyaga qarshi kurash maqsadlariga faqat jinoyat-huquqiy vositalar bilan erishib bo'lmastligini hayotning o'zi ko'rsatmoqda. Ayni vaqtda bu maqsadlarga huquqning boshqa tarmoqlari vositalari bilan ham erishish mumkin emas. Umuman olganda, korrupsiya hodisasiga so'zning keng ma'nosida yondashadigan bo'lsak, bu shunchaki jinoyat yoki huquqbuzarlik emas, balki ma'naviy buzilish holatidir. Shunday ekan, o'ylaymizki, mazkur illatga qarshi kurashda nafaqat davlat organlari, balki, jamiyat va umuman barcha fuqarolarimiz mas'uldirlar. Faqatgina davlat va jamiyat ushbu xunuk illatga qarshi kurashda o'z kuchlarini birlashtirgan holdagina korrupsiyaga barham berish mumkin.

Xo'sh, korrupsiya ta'lim tizimiga qanday ta'sir ko'rsatadi:

Korrupsiyali ta'lim

Korrupsiya ta'lim sifatiga o'ta salbiy ta'sir qiladi, unga erishish imkoniyatlarini cheklaydi va adolatga bo'lgan ishonchga putur yetkazadi:

- bolalarning maktabga borishga bo'lgan qiziqishlarin so'ndiradi;
- bilim olish ishtiyoqini pasaytiradi;
- ishda bilim va ko'nikmalarning yo'qligi, hayotdan qoniqmaslikka olib keladi;
- qonunni buzishni boshlaydi va korrupsiyani keltirib chiqaradi.

Umumta'lim tizimidagi korrupsiyada asosan ota - onalar hamda o'qituvchilar va maktab direktorlari qatnashadi. Bolalar bunda qatnashmaydi. Universitetlarda talaba, aytaylik, imtihon uchun pul to'laganda hayotidagi eng muhim darsni o'rganadi. Birinchidan, ba'zi masalalarni oson hal qilsa bo'ladi. Ikkinchidan, tizim poraxo'rlikka asoslangan bo'lsa, demak, u ham universitetni tugatgach, xuddi shunday ish tutsa bo'ladi, shu yo'sinda bu narsa boshqa sohalarga ildiz otib ketaveradi.

Maktabni bitiruvchilarning bilim saviyasi va universitetlarning abituriyentlarga qo'yadigan talablari orasida juda katta farq bor. Shu sababdan universitetga kirish juda qiyinlashib bormoqda. Shu sababli maktabni bitiruvchilar va ularning ota - onalari oliy o'quv yurtiga kirishning noqonuniy usullarini qo'llashga urinadi. Demak, joriy ta'lim tizimining o'zi korrupsiyaga yo'l ochib beradi. Ta'lim dasturlarining tamoyillari va asoslari belgilanadigan ta'lim standartlari borasida buyruqlar chiqarishda Xalq ta'limi vazirligi va Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirliklari bunday katta farqni bartaraf qilishga urinib ko'rishlari kerak.

Korrupsiyaning gullab-yashnashiga o'zimiz ham aybdormiz: porani o'zimiz uzatamiz va bu bilan o'qituvchilarning ishtahasini yanada oshiramiz. Poraxo'rlarning o'zi korrupsiya bilan kurash olib borar ekan, hech qanaqa qonun yordam bermaydi.

Korrupsiyasiz ta'lim

- Korrupsiyasiz ta'lim – ta'lim sifatini oshiradi;
- bilim olishga bo'lgan qiziqish va intellektual salohiyatni oshiradi;
- eng yaxshi natijalarga va jamiyat e'tirofiga erishishga yordam beradi;
- barqaror va nufuzli ish bilan ta'minlaydi;
- kafolatli yorug' kelajakni ta'minlaydi.

Keling, endi O'zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport vazirligi huzuridagi Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni ilmiy metodik ta'minlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish markazida korrupsiyaga

qarshi kurashish bo'yicha amalga oshirilayotgan xayrli ishlar haqida suhbatlashaylik.

Avvalo. markazda korrupsiya o'ta xavfli illat, jamiyat kushandasi va jamiyat taqqiyotini to'xtatuvchi to'siq va unga qarshi kurashish dolzarb vazifa ekanligi haqidagi mavzularda targ'ibot va tashviqot ishlarini yanada kuchytirildi. Bu yo'nalishda markaz direktorinig bir qancha buyruqlari chiqarilgan va bajariladigan vazifalarni ijro etishning chora-tadbirlar rejasi qabul qilingan.

O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-maydagi "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora - tadbirlari to'g'risida" PF-5729-son farmoni ijrosini hamda O'zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport vazirligining tizimda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risidagi buyruqlari ijrosini ta'minlash, korrupsiyaga qarshi kurashish maqsadida professor-o'qituvchilar va malaka oshirish kurslari tinglovchilarining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish bo'yicha vazirlikning 2019-yil 21-avgustda tasdiqlangan "Chora-tadbirlar rejasi"ning va Korrupsiyaga qarshi kurashishning Istambul harakatlar rejasi doirasida monitoringning To'rtinchi raundi natijalari bo'yicha O'zbekistonga berilgan tavsiyalarning bajarilishi yuzasidan vazirlikning "Yo'l xaritasi"da belgilangan vazifalarning muntazam ravishda ijrosini ta'minlash maqsadida 2019-yil 20-sentyabrda markazning "Chora-tadbirlar rejasi" va "Yo'l xaritasi" ishlab chiqilgan

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport vazirining 2019- yil 31-maydagi 1009-sonli buyrug'i ijrosini ta'minlash maqsadida markaz direktorining 2019-yil 17-iyunda 29¹-sonli buyrug'i qabul qilingan va vazirlik buyrug'ining ijrosi o'z vaqtida ta'minlanmoqda.

Jismoniy tarbiya va sport vazirligining tizimda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha buyruqlariga muvofik markazda korrupsion illatlarning oldini olish, korrupsiyaga karshi kurashish bo'yicha targ'ibot va tashviqot ishlari yanada kuchaytirildi.

Markazda ishlab chiqilgan chora-tadbirlar rejasiga muvofiq, korrupsiyaga olib keluvchi tub sabablarni aniq tahlil qilish, korrupsiya ildiz otishi mumkin bo'lgan sohalar haqida professor-o'qituvchilar va tinglovchilarni muntazam ogoh etib borish, xodimlar, ayniqsa, yoshlarning huquqiy savodxonligini oshirish, ular orasida korrupsiyaga qarshi kurashish madaniyatini shakllantirish asosiy vazifa etib belgilandi.

Darhaqiqat, markazda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish bugungi kunda nihoyatda dolzarb masala bo‘lib, bu borada nafaqat mas’ul shaxslar, balki keng jamoatchilik bahamjihat va hamfikir bo‘lmog‘i maqsadga muvofiqligi ayon bo‘lmoqda. Shundan kelib chiqib, qaysi bo‘lim yoki kafedrada ta’magirlik, poraxo‘rlik holatlariga duch kelsak, har birimiz bu noxush hodisaga nisbatan befarq bo‘lmasligimiz, loqaydlik qilmasligimiz, aksincha, korrupsiya illatini tag - tomiri bilan quritishga qaratilgan sa’y-harakatlarni vijdonan bajarishga kirishmog‘imiz burch va mas’uliyatimizga aylanmog‘i darkorligini professor-o‘qituvchilar va texnik xodimlar hamda tinglovchilar qalbi va ongiga singdirilmoqda. Boshqacha aytganda, adolatsizlikka nisbatan murosasiz bo‘lishni o‘zimizdan boshlashimiz zarur.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-maydagi “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5729-son Farmonining mazmuni va mohiyati hamda ahamiyatini markaz professor-o‘qituvchilari va malaka oshirish kurslari tinglovchilari o‘rtasida targ‘ibot va tashviqot qilish, Jismoniy tarbiya va sport vazirligining korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha belgilagan vazifalari ijrosini ta’minlash maqsadida muntazam ravishda har oyda korrupsiyaga qarshi kurashish mavzularida ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar o‘tkazildi.

Bu tadbirlar jarayonida korrupsiyaning jamiyat taraqqiyotiga qanday tahdid ekanligi, unga qarshi hoziroq kurash boshlash, jinoyatga javobgarlikning muqarrarligi, korrupsiyani keltirib chiqaruvchi omillar, uni bartaraf etish uchun professor-o‘qituvchilar va malaka oshirish guruhlari tinglovchilarini faol bo‘lishga chaqirildi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 2-martdagi “Davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari xodimlarining odob-axloq qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 62-sonli qarorining mazmuni va mohiyatini tinglovchilar qalbi va ongiga yetkazish uchun va “Manfaatlar to‘qnashuvi” bo‘limini tinglovchilar tomonidan keng o‘rganish maqsadida “Ta’lim muassasasi xodimlari xulq atvorining asosiy prinsiplari hamda ularning huquq va majburiyatlari” mavzusida ma’rifiy tadbirlar o‘tkazildi.

Shuningdek, korrupsiyaning xavf-xatarlarini chuqur tahlil qilish asosida xodimlarni ushbu illat va uning oqibatlaridan xabardor qilish maqsadida huquqiy targ‘ibot materiallari - “Markazda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi vazifalar” mavzusida ma’ruza matni, “Markaz xodimlarining xulq atvori prinsiplari hamda ularning huquq va

majburiyatlari” mavzusi taqdimoti tayyorlandi va targ‘ibot jarayonlarida foydalanilmoqda

Qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslari o‘quv dasturlariga korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida o‘quv mashg‘ulotlarini olib borishni nazarda tutuvchi o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish choralari ham ko‘rildi. Jumladan, oliy ta‘lim muassasalari professor-o‘qituvchilarining Jismoniy tarbiya va jismoniy madaniyat, Sport faoliyati malaka oshirish kursi yo‘nalishlari uchun “Ta‘lim va tarbiya jarayonlarini tashkil etishning normativ huquqiy hujjatlari” moduli, Sport ta‘lim muassasalari rahbarlari, rahbar o‘rinbosarlari malaka oshirish kursi yo‘nalishlari uchun “Jismoniy tarbiya va sport ta‘limining qonunchilik normalari”, sport ta‘lim muassasalari Instruktor-metodistlari malaka oshirish kursi yo‘nalishi uchun “Ta‘lim-tarbiya jarayonini tashkil etishning qonunchilik hujjatlari” moduli, sport turlari bo‘yicha Trener-o‘qituvchi malaka oshirish kursi uchun “Sport ta‘limini tashkil etishning me‘yoriy-huquqiy hujjatlari” moduli, umumta‘lim maktablarining Jismoniy tarbiya fani o‘qituvchilari kursi uchun ”Ta‘lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etishning huquqiy-me‘yoriy hujjatlari” moduli, maktabgacha ta‘lim tashkilotlari Jismoniy tarbiya instruktorlari kursining ”Ta‘limning me‘yoriy-huquqiy hujjatlari” modulining ishchi o‘quv dasturlariga jismoniy tarbiya va sport sohasida korrupsiyaga qarshi kurashishning huquqiy asoslari masalalarida mavzular kiritildi.

2020-yil may - iyun oylarida hozirgi pandemiya sharoitida markazda masofaviy ta‘lim tashkil etilib, online darslari (Zoom ilovasi) orqali malaka oshirish kurslari tinglovchilarining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, ularda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni hamda korrupsiyaga qarshi kurashish madaniyatini shakllantirish maqsadida korrupsiyaga olib keluvchi tub sabablar, korrupsiya ildiz otishi mumkin bo‘lgan sohalar va omillar haqida tushunchalar berilmoqda va ular muntazam ogoh etib borilmoqda. Jumladan, “Biz korrupsiyaga qarshimiz” mavzusida taqdimot materiali va tinglovchilarni masofadan o‘qish sharoitida korrupsiya masalasida ogohlikka chaqiruvchi da‘vat matni markaz veb-saytiga joylashtirildi.

Shuningdek, markaz professor-o‘qituvchilari va texnik xodimlar hamda tinglovchilarni korrupsiya xavfidan xabardor qilish maqsadida huquqiy targ‘ibot materiali sifatida “Sport ta‘limi muassasalarida korrupsiyaga qarshi kurashish madaniyatini shakllantirish muammolari” mavzusida ma‘ruza matni tayyorlandi va markaz veb - saytiga joylashtirildi.

Mavzuni takrorlash uchun savollar!

1. Korrupsiyaga qarshi kurashish usullaridan misollar ko'rsatib bering?
2. Korrupsiya ta'lim sifatiga qanday salbiy ta'sir qiladi?
3. Korrupsiyasiz ta'limning ta'lim sifatiga foydasi qanday?
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-yanvardagi "Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi PF-5618-son farmonining mazmunini gapirib bering.
5. Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida ta'lim muassasasida qanday usullardan foydalanish mumkin deb hisoblaysiz?

HURMATLI TINGLOVCHILAR! *Siz bilan sport ta'limining me'yoriy-huquqiy asosi sifatida qonunosti hujjatlarini o'rgandik.*

-Bu me'yoriy-huquqiy hujjatlarini o'rganish jarayonida Sizda qanday fikr va tasavvurlar paydo bo'ldi?

- Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tartibi bilan bog'liq qanday terminlarni bilib oldingiz?

- Sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirishning maqsad va vazifalarini qanday anglab oldingiz?

HURMATLI TINGLOVCHILAR! *Quyidagi topshiriqlarni kichik guruhlarda bajaring.*

QUYIDAGI JADVALNI TO'LDIRING.

<i>Prezidentimizning 2019 yil 9 yanvardagi PF-5618 son farmonining mazmuni haqida</i>	<i>Korrupsiya bilan bog'liq ta'lim va korrupsiyasiz ta'limning ta'lim sifatiga ta'siri qanday deb o'ylaysiz?</i>	<i>Korrupsiyaga qarshi kurashish madaniyatini qanday tushunish mumkin?</i>	<i>Qayta tayyorlash va malaka oshirish markazida korrupsiya mavzularida olib borilayotgan tadbirlar haqida</i>
1.			
2.			
3.			

<i>Mavzuni o‘rganish jarayonida qayta tayyorlash va malaka oshirish markazi faoliyatida korrupsiyaga qarshi kurashishga oid qanday rasmiy hujjatlarni o‘rgandingiz?</i>	
<i>Mavzuni o‘rganish asnosida olgan bilimlaringizdan o‘z pedagogik faoliyatigizda qanday foydalanasiz?</i>	
<i>Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida ta’lim muassasasida qanday usullardan foydalanish mumkin deb hisoblaysiz?</i>	

Hurmatli sport sohasi mutaxassislari! Quyidagi jadvalda berilgan maslalar sizga qanchalik tanishligini aniqlang. Bunda insert usulidan foydalaning.

“Insert usuli”

Insert - samarali o‘qish va fikrlash uchun belgilashning interfaol tizimi hisoblanib, mustaqil o‘qib-o‘rganishda yordam beradi. Bunda **o‘quv uslubiy majmualari**, kitob va boshqa materiallarni o‘qish davomida tinglovchi «V; +; -; ?» belgilari orqali o‘z fikrini ifodalaydi.

Matnni belgilash tizimi

- (v) - men bilgan narsani tasdiqlaydi.
- (+) – yangi ma’lumot.
- (-) – men bilgan narsaga zid.
- (?) – meni o‘ylantirdi. Bu borada menga qo‘shimcha ma’lumot zarur.

INSERT JADVALI

Savollar	V	+	-	?
<i>Hozirgi pandemiya sharoitida markazda tashkil etilgan masofaviy ta’lim, online darslari (Zoom ilovasi)ni takomillashtirish,</i>				

<i>malaka oshirish kurslari tinglovchilarida huquqiy ongi va huquqiy madaniyatni yuksaltirish bo'yicha qanday taklif</i>				
<i>O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil - yanvardagi "Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi PF-5618-son farmoni</i>				
<i>Korrupsiya bilan bog'liq ta'lim va korrupsiyasiz ta'limning ta'lim sifatiga ta'siri</i>				
<i>Qayta tayyorlash va malaka oshirish markazida korrupsiya mavzularida olib borilayotgan tadbirlar haqida</i>				
<i>O'rganish uslublari</i>				

Mavzuni to'ldirish uchun tarixiy hujjatdan ma'lumot

Hokimning kulohi yoki jamiyatdagi jirkanch bir illat xususida fikr

Qulohni bilasiz: qalandar va darveshlar kiyadigan uchli qalpoq. Tariximizda kuloh bilan bog'liq ajoyib voqea bo'lgan. Bahodir Yalangto'sh (Nizomiddin Yalangto'shbiy Otaliq, 1576 - 1656 yillarda yashab o'tgan) Samarqandga bir emas ikki marta (1612 va 1645 yillarda) hokim etib tayinlangan. U saltanat va Samarqand xalqi oldidagi xizmatlari uchun "Otaliq" (El otasi) unvoniga sazovor bo'lgan. Tarixda qancha hokim o'tgan bo'lsa, hammasi ham bunday unvonni olmagan.

Tarixiy manbalarga ko'ra, mohir sarkarda sifatida dushmanlar ustidan qozongan g'alabalari, saltanat sarhadlarini daxlsiz saqlashdagi xizmatlari,

Samarqand muzofotini obod, qo‘rg‘onini mustahkam, elini farovon etgan, azim shahardagi yaratuvchilik ishlari uchun Yalangto‘shbiy “El otasi” unvoniga loyiq topilgan.

Taajubki, ana shunday yuksak rutbadagi inson tunu - kun darveshlar qalpog‘i - kuloh kiyib yurar ekan. O‘sha kezlarda Samarqandning Registon maydoni tegrasida joylashgan bozorni aylanishni xush ko‘rgan hokimu - mutlaq Yalangto‘shbiyni oddiy faqiru - fuqarolardan ajratib bo‘lmas, chunki egnidagi korjomasi hamin qadar el qatori bo‘lar ekan.

Bir kuni u kishiga hamrohlik qilgan g‘aznachi va bir navkar bozorning gavjum joyida hokimning qalandar kulohini qora qilib ergashib borar edi. Shunda hokim qovun sotayotgan bir dehqon yigitning oldida to‘xtabdi. Chog‘roq qovunlardan qo‘liga olib, shapatilab-shapatilab ko‘rib, ikki donasini ajratibdi. Narxini so‘rab, savdolashibdi. Narx bichilgach, hokim belbog‘iga ilingan hamyonni paypaslasa, hamyon bo‘sh emish... Hokim buni kuzatib turgan dehqonga jilmayibdi-da, yonida ergashib yurgan g‘aznachiga yuzlanib, “G‘aznadagi maoshimdan haqim bormi?” deb so‘rabdi. G‘aznachi qo‘lini ko‘ksiga qo‘ygan holda ikki bukilib, “G‘azna sizning ixtiyoringizda, taqsir” debdi. Yalangto‘shbiy qoshini chimirib, unga qattiq tikilganча, “G‘azna bilan mening maoshimni adashtirmang!” debdi. G‘aznachi gapni tushunib, “haqingiz yo‘q” degan ishora beribdi-da, mulzam bo‘lganча, bir qadam tislaniб, jim turaveribdi.

Bahodir Yalangto‘sh boshidagi kulohini avaylab yechib, dehqon yigitga uzatibdida “shu kulohga ayirgan qovunlarimni berasanmi?” debdi. Dehqon kulohni qo‘liga olib, ko‘zdan kechirgach, “Juda eski ekan-da, taqsir” debdi. Savdoga guvoh bo‘lib turgan navkar hokimning orqasida turib, dehqonga imo-ishora qilar, goh bosh barmog‘i bilan qarorgoh tomonni ko‘rsatar, goh chopon yoqasini ochib, to‘shini yalang qilar edi.

Nihoyat dehqon qarshisida Samarqand hokimi Bahodir Yalangto‘sh turganini fahmladi. “Taqsir, Bahodir Yalangto‘shning kulohi biz uchun tabarruk”, deya ko‘ziga surtib, qo‘njiga tiqibdi va yerdan qovunlarni olib, hokimning qo‘liga tutqazibdi...

Butun Samarqand izmida bo‘lgan Bahodir Yalangto‘sh g‘azna u yoqda tursin, hatto oddiy dehqondan bir dona qovunni tekin olishga, ya‘ni, uning haqiga xiyonat qilishni o‘ziga ep bilmagan. Qissadan hissa shuki xalqning hokimni halol, diyonatli, el otasi, deb bilgani - elning ishonchini suiiste‘mol qilmaganligi uchundir.

Yana bir muhim dalil borki, aytmasak bo‘lmas.

Manbalarda aytilishicha, Samarqanddagi “Tillakori” madrasasining gumbaziga yetmish kilogrammdan ziyod oltin sarflangan. Madrasa

gumbazining nafisligi, naqqoshlar ishining murakkabligi bo'yicha bu gumbaz "Go'ri Amir" maqbarasi gumbazidan qolishmaydi. Sherdor madrasasining salobati, go'zalligi hozirga qadar barchani hayratga soladi. Samarqandning "Er yuzining sayqali" bo'lishiga hissa qo'shgan "Tillakori" va "Sherdor" madrasalarini qurdirgan shunday buyuk shaxs, o'ziga mo'jazgina maqbara ham qurdirmagan. Hatto, madrasalarning qurilishida ustalarga go'sht yetkazib bergan qassob o'zini Registonda dafn etishlarini so'raganida shu oddiy qassobning iltimosi vojib etilgan...

Bahodir Yalangto'sh esa, o'zini Samarqand shahridan o'n ikki kilometr naridagi Dahbed qishlog'ida mozori joylashgan Maxdumi A'zam zurriyodi bo'lmish, tariqat ilmi bilimdoni Hoji Rashid Dahbediyning oyoq uchiga qo'yishlarini vasiyat qilgan. Mozor bo'sag'asini hatlaganda qarshingizdagi qabr Samarqand viloyati hokimi Nizomiddin Yalangto'shbiy Otaliqning mangu qo'nim topgan makonidir.

O'tmishda poraxo'rlik, ya'ni korrupsiya bo'lmagan desak, yanglishamiz. Albatta, bu illat insoniyat tanasiga asosan "nafs" ko'rinishida zulukdek yopishib, davlat asoslarini yemirib, jamiyat taraqqiyotiga to'sqinlik qilib keladi. Korrupsiya ildiz otgan joyda adolatsizlik, iymonsizlik, qonunga hurmatsizlik hukmronlik qilib, parokandalik yuz berishi tarixdan ma'lum. Insoniyat bu illatning payini qirqish uchun mudom qonunlarga tayanib kurashib kelmoqda.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoev Prezidentlik lavozimiga kirishishi bilan, Prezident sifatida imzo chekkan eng birinchi qonun ham "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni bo'ldi (2017-yil 3-yanvar). Yurtimizda ushbu qonunning ijrosini ta'minlash maqsadida Prezidentimizning 2017- yil 7-sentyabrda "Huquqiy axborotni tarqatish va undan foydalanishni ta'minlash to'g'risida" O'zbekiston Respublikasining qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-yanvardagi "Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida" yanvardagi PF-5618-son farmoni va shu farmonga ilova sifatida "Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish konsepsiyasi", O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27- maydagi "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-5729-sonli farmoni va farmonga ilova sifatida 2019 – 2020-yillarda korrupsiyaga qarshi kurashish davlat dasturi (35 banddan iborat), O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-iyundagi "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora - tadbirlar to'g'risida

PF-6013-son Farmonining qabul qilinishi va uning asosida Korrupsiyaga qarshi kurashish Agentligining tashkil etilishi juda muhim bo‘ldi.

Qabul qilingan davlat dasturlarida belgilangan chora-tadbirlar bilan tanishib chiqsangiz, korrupsiyaga qarshi kurashish, unga butkul chek qo‘yish uchun beixtiyor “bundan ortiq yana nima qilish kerak?”, deb o‘zingizga savol berasiz.

Ammo keyingi paytlarda xalqimiz va Prezidentimiz ishonch bildirgan ayrim amaldorlarning poraxo‘rligi bilan bog‘liq voqealar hali oldimizda qilinajak ishlarimiz ko‘p ekanidan dalolat beradi.

Deputatlar korpusi ham mazkur qonun va Davlat dasturi ijrosini ta‘minlash borasidagi vazifalarni qat‘iy ado etishda chetda turmasligi, Oliy Majlis va mahalliy Kengashlar deputatlari aholining ushbu illatga qarshi murossasiz munosabatini shakllantirishda jonbozlik ko‘rsatmog‘i lozim. Zero, jamiyatda bir nafar poraxo‘r yoki korrupsiya quliga aylangan amaldorning chiqishi xalqning davlatga hamda rahbarlarga bo‘lgan ishonchiga jiddiy putur yetkazadi. Agar o‘sha beburd amaldorning ko‘ksida deputat yoki senator nishoni bo‘lsa - urdi xudo deyavering. Bundan mudhish manzara bo‘lmasa kerak...

*Alisher Hamroev - Oliy Majlis
Qonunchilik palatasi deputati*

VI. Xulosa

Korrupsiya - davlat amaldorlari yoki o‘zga xizmatchilar pora evaziga og‘dirilishi va shu asosda ular o‘z xizmat vakolatlaridan shaxsiy yoki muayyan guruh manfaatlarida foydalanishi bilan tavsiflanuvchi ijtimoiy hodisa.

Mazkur ijtimoiy illat quyidagi belgilar bilan ifodalanadi:

- aniq yuridik ta‘rifi mavjud bo‘lmagan ijtimoiy hodisa, pirovard natijada korrupsiya harakatlari jamiyat hayotining kundalik me‘yoriga aylanishi oqibatida butun fuqarolik jamiyati va davlatning inqiroziga olib keladi;

- mazkur huquqbuzarlik sub‘ektlarining muayyan doirasi mavjud (bu, avvalo, davlat xizmati xodimlari, davlat funksiyalarini bajarish vakolatiga ega bo‘lgan shaxslar, shuningdek xususiy sektorda boshqaruv funksiyalarini bajarishga vakolatli bo‘lgan shaxslar);

- ko‘rsatilgan sub‘ektlar o‘z mansab mavqeidan, xizmat lavozimidan, huquqiy maqomidan va egallagan lavozimining nufuzidan xizmat (ya‘ni davlat xizmati va xususiy sektor tashkilotlaridagi xizmat) manfaatlariga hamda huquq va axloqning belgilangan qoidalariga zid ravishda foydalanadilar;

- ko'rsatilgan sub'ektlarning mazkur faoliyati shaxsiy boyish maqsadida yoki o'zga shaxslarning manfaatlarida yoxud korporativ manfaatlarda amalga oshirilishi mumkin.

Poraxo'rlik – bu qadimgi vaqtlardagi turli halqlar o'rtasida ma'lum bo'lgan ijtimoiy xodisadir. Poraxo'rlik korrupsiyaning elementlaridan biri bshlib, bu jinoyatlar sodir etilish xususiyatlariga ko'ra ikki yoki undan ortiq shaxslarning o'zaro xamkorligi asosida sodir etilishini talab qiladi, ya'ni unda pora beruvchi, pora oluvchi va pora olish berishda vositachilik qiluvchi shaxslar o'rtasida kelishilgan holda amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasining amaldagi Jinoyat kodeksida poraxo'rlik, bu - pora olish, pora berish yoki bu jinoyatlarda vositachilik qilish tushunilishi belgilangan.

Poraxo'rlik turlari

Pora olish (Jinoyat kodeksining 210 moddasi): Mansabdor shaxsning o'z xizmat mavqeidan foydalangan holda sodir etishi lozim yoki mumkin bo'lgan muayyan harakatni pora berayotgan shaxsning manfaatlarini ko'zlab bajarishi yoki bajrmasligi evaziga shaxsan o'zi yoki vositachi orali qonunga xilof ekanligini bila turib, moddiy qimmatliklar olishi yoxud mulkiy naf ko'rishdir

Pora berish (JKning 211 moddasi): Mansabdor shaxsning o'z xizmat mavqeidan foydalangan holda sodir etishi lozim yoki mumkin bo'lgan muayyan harakatni pora bergan shaxsning manfaatlarini ko'zlab bajarishi yoki bajrmasligi evaziga unga bevosita yoki vositachi orqali qonunga xilof ekanligini bila turib, moddiy qimmatliklar berish yoki uni mulkiy manfaatdor etishdir.

Korrupsiya qanday muammolar sirasiga kiradi:

huquqiy – 64,0 %;

iqtisodiy – 51,0 %;

ijtimoiy – 46,3 %;

ahloqiy – 45,8 %:

Korrupsiya – iqtisodiy va ijtimoiy muammolar manbai:

iqtisodiy muammolar sababi - 63 %;

byurokratiya -17%;

iqtisodiyotning real sektorini monopollashtirish -10%;

inflyatsiyaning yuqori darajasi - 4%;

boshqa sabablar - 6%: (Manba: www.aif.ru sayti)

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi, O'zbekiston Respublikasi Xisob palatasi, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi, vazirlik va muassalar, mahalliy davlat hokimiyati organlari.

O'zbekistonda Korrupsiyaviy jinoyatlar sodir etilishini oldini olishda nazorat tizimlari:

Parlament nazorati, Jamoatchilik nazorati, Prokuror nazorati, Davlat moliyaviy nazorati, Ma'muriy nazorat, Tadbirkorlik sub'ektlarini himoya etish sohasidagi nazorat.

O'zbekistonda Korrupsiyaga qarshi kurashishning normativ-huquqiy asoslarini takomillashtirishni strategik yo'nalishlari:

Davlat xizmati tizimi, uning maqsadlari va vazifalarini tubdan takomillashtirish, Tadbirkorlikning rivojlanishi uchun huquqiy cheklovlarni va tashkiliy to'siqlarni olib tashlash, Davlat xizmatlarini taqdim etish va ma'muriy tartib-taomillarni tartibga solishning huquqiy va institutsional asoslarini takomillashtirish, Ma'muriy islohotlarni amalga oshirish, davlat organlarining vazifalarini optimallashtirish, davlatga tegishli bo'lmagan funksiyalarni xususiy sektorga o'tkazish, Korrupsiyaga qarshi kurash sohasida sud va huquqni muxofaza qilish organlarining maqsadlari, vazifalari va funksiyalarini optimallashtirish, Davlat organlari, jamoat va fuqarolik jamiyati institutlari o'rtasida aloqa kanallarini yo'lga qo'yish, Kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini takomillashtirish, yuqori ahloqiy me'yorlarni shakllantirish.

Korrupsiyaga qarshi bevosita kurash olib boruvchi vakolatli organlar:

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi, O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati, O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti, Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni qonun hujjatlariga muvofiq boshqa davlat organlari ham amalga oshiradi.

Korrupsiyaviy huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi organlar va muassasalar tizimi:

Prokuratura organlari, Davlat xavfsizlik xizmati organlari, Adliya organlari, Davlat bojxona xizmati organlari, Ichki ishlar organlari, Mehnat organlari, Ta'limni davlat tomonidan boshqarish organlari va ta'lim muassasalari, Davlat sog'liqni saqlash tizimini boshqarish organlari va sog'liqni saqlash muassasalari, Davlat soliq xizmati organlari, O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi organlari.

Mansabdor shaxslar tomonidan korrupsiyaviy huquqbuzarliklar sodir etilganligi uchun javobgarlik turlari:

Jinoiy javobgarlik, Ma'muriy javobgarlik, Intizomiy javobgarlik.

Xodimga mehnat intizomini buzganligi uchun ish beruvchi quyidagi intizomiy jazo choralarini qo'llashga haqli:

Hayfsan, O'rtacha oylik ish haqining o'ttiz foizidan ortiq bo'lmagan miqdorda jarima, Mehnat shartnomasini bekor qilish.

Ma'muriy korrupsiyaviy huquqbuzarliklar toifasiga boshqaruvning belgilangan tartibiga tajovuz qiluvchi quyidagi huquqbuzarliklarni kiradi:

Oz miqdorda talon-toroj qilish (61-modda), Nodavlat tijorat tashkilotining yoki boshqa nodavlat tashkilotining xizmatchisini pora evaziga og'dirib olish. (61¹-modda)

Davlat organining, davlat ishtirokidagi tashkilotning yoki fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organining xizmatchisini pora evaziga og'dirib olish (193¹-modda, Davlat organi, davlat ishtirokidagi tashkilot yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi xizmatchisining qonunga xilof ravishda moddiy qimmatliklar olishi yoki mulkiy manfaatdor bo'lishi (193²-modda), O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi bo'yicha mansabdor shaxslarning korrupsiyaviy jinoyatlari, Iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlar, O'zbekiston Respublikasining manfaatlariga xilof ravishda bitimlar tuzish, Mansabdor shaxslarning boshqaruv tartibiga va odil sudlovga qarshi jinoyatlari

205-modda - Hokimiyat yoki mansab vakolatini suiiste'mol qilish, 206-modda - Hokimiyat yoki mansab vakolati doirasidan chetga chiqish, 206-modda - Hokimiyat yoki mansab vakolati doirasidan chetga chiqish, 208-modda - Hokimiyat harakatsizligi, 209-modda - Mansab soxtakorligi, 210-modda - Pora olish, 211-modda - Pora berish, 212-modda - Pora olish yoki berishda vostachilik qilish. Pora olish yoki berish xususidagi kelishuvga erishishga qaratilgan faoliyat, shuningdek, manfaatdor shaxslarning topshirig'i bilan porani bevosita berishdir, 213-modda - Davlat organining, davlat ishtirokidagi tashkilotning yoki fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organining xizmatchisini pora evaziga og'dirib olish, 214-modda - Davlat organi, davlat ishtirokidagi tashkilot yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi xizmatchisining qonunga xilof ravishda moddiy qimmatliklar olishi yoki mulkiy manfaatdor bo'lishi, 236-modda - Tergov qilishga yoki sud ishlarini hal etishga aralashish.

Yuqorida keltirilgan ko'plab misollar va rasmiy hujjatlarga ko'ra korrupsiya har qanday davlat va jamiyat rivojiga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatuvchi xavfli omil, barcha mamlakatlarga tahdid soluvchi murakkab ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy hodisadir. Zero, bu omil tufayli davlatning rivojlanishi sekinlashadi, hukumat tizimi ishdan chiqadi, demokratik institutlarga putur yetadi.

Shu bilan birga, uning ta'siri ostida fuqarolarning ijtimoiy adolatga, haqiqatga va davlat organlariga ishonchi yo'qoladi. Har qanday jamiyat uchun ushbu jinoyatga qarshi kurashish eng dolzarb masalalardan biridir. Bizning davlatimiz korrupsiyaning oldini olish va uning ildizlariga barham berish maqsadida ko'pgina tadbirlarni amalga oshirmoqda. 2003-yil 9-dekabrda BMT ning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi imzolanganligi ham fikrimizning isbotidir.

Respublikamizda ushbu jinoyatga qarshi kurash sohasida maqsadli siyosat olib borilmoqda. Jumladan, ushbu sohada qonunchilik asoslarini takomillashtirish, davlat organlarining, jamiyatning ochiqligini ta'minlash, axborotlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish borasida ahamiyatli ishlar amalga oshirilmoqda. Darhaqiqat, korrupsiyaga qarshi kurashish va bu sohada samarali chora-tadbirlar ishlab chiqish masalalari davlatimiz rahbariyatining diqqat markazidadir.

Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari va prinsiplarini belgilashda bunday huquqbuzarlik uchun

javobgarlikning muqarrarligini ta'minlash masalasi qat'iy hisobga olingan. Korrupsiyaga aralashgan, bu jirkanch illatga qo'l urgan odam uchun ulug' narsalar, mo'tabar tuyg'ularning qadri yo'qoladi. Bunday odamlar hayotda hamma narsani sotib olish va sotish mumkin, deb o'ylaydi. Ular iymon-e'tiqodga ishonmaydi, ayni paytda bunday kimsalarga hayot uchun aziz sanaladigan hech narsani inonib bo'lmaydi. Chunki ular ota-onasi, qarindosh-urug'lari, yor-u birodarlari, mahalla-ko'yning yuzini yerga qaratishdan, boshini egishdan uyalmaydi.

Hammamiz yaxshi bilamiz, qonun huquqiy munosabatlarni tartibga soladi. Vakolatlar, huquq va majburiyatlarni, amalga oshiriladigan chora-tadbirlarni belgilab beradi. Agar qonun hayotda ishlamas, uning bir necha varaq oddiy qog'ozdan farqi qolmaydi. Shunday ekan, korrupsiya haqida qonun qabul qilindi, endi hammasi iziga tushib ketadi, deb o'ylash, xotirjamlikka berilish katta xato bo'ladi.

Korrupsiya balosidan qutulish, islohotlarni uning changalidan ozod etish haqida hammamiz o'ylashimiz, buning zaruratini har birimiz yuragimizdan o'tkazishimiz, unga qarshi qat'iy kurashishimiz kerak. Bu kurash kundalik hayotimizdagi oddiy holatlardan boshlanadi. Shifokordan yaxshiroq maslahat olish, navbatni tezlashtirish, reyting daftarchasiga tuzukroq baho qo'ydirish va shu kabi vaziyatlarda o'zimizni munosib tutishimiz lozim bo'ladi.

To'g'ri, hayotda turli holatlar va harakatlarga duch kelamiz. Ba'zida ko'z o'ngimizda qonunlar buziladi, inson huquqi, qadr - qimmatini poymol etiladi. Bunday vaziyatlarda chorasizlikdan odamning boshi gangib qoladi. Lekin, unutmaylik, xalqimizda "Kasalni davolagandan ko'ra uning oldini olgan afzaldir" degan naql mavjud. Jamiyatimizdagi har qanday jarayonga loqayd munosabatda bo'lmaslik barchamizning ustuvor burchimizdir.

Korrupsiyaning har qanday ko'rinishlariga qarshi kurashishni biz, eng avvalo, o'zimizdan boshlashimiz darkor. Buning uchun esa shaxsning huquqiy ong va huquqiy madaniyati yetarli darajada shakllangan bo'lmog'i maqsadga muvofiqdir.

VII. GLOSSARIY

korrupsiya — shaxsning o‘z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o‘zga shaxslarning manfaatlarini ko‘zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish;

korrupsiyaga oid huquqbuzarlik — korrupsiya alomatlariga ega bo‘lgan, sodir etilganligi uchun qonun hujjatlarida javobgarlik nazarda tutilgan qilmish;

manfaatlar to‘qnashuvi — shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorlik shaxsning mansab yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta’sir ko‘rsatayotgan yoxud ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan fuqarolarning, tashkilotlarning, jamiyatning yoki davlatning huquqlari va qonuniy manfaatlari o‘rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan yoki yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan vaziyat.

fuqarolik jamiyati

huquqiy davlatning asosiy ijtimoiy-iqtisodiy poydevori hisoblanadi.

o‘zr prezidentining biron-bir asari yo‘qki, unda “fuqarolik jamiyati” atamasi tilga olinmagan bo‘lsin. “pirovard maqsadimiz ijtimoiy yo‘naltirilgan barqaror bozor iqtisodiyotiga ochiq tashqi siyosatga ega bo‘l...

fuqarolik huquqi

huquq sohalaridan biri bo‘lib, unda mulkiy munosabatlarni, shuningdek shaxsiy nomulkiy munosabatlarni, majburiyatlarning alohida turlari, shu jumladan, bozor munosabatlari tizimida g‘oyat muhim ahamiyatga ega bo‘lgan turli shartnomalar mazmuni, intellektual faoliyat natijalariga bo‘lgan shaxsiy va...

huquqiy ong

kishilarning huquq haqida tushuncha va bilimlarga ega bo‘lishi, shuningdek, huquq borasidagi tasavvurlarning inson ongida aks etishi tushuniladi. huquqiy ong degani bu – qonunlarni faqat bilishgina emas, balki ularni izchil ijro etish hamdir.

huquqiy madaniyat

jamiyatning qonunchilik darajasi, mavjud qonunlardan aholining xabardorlik darajasi, xalqning huquq normalariga rioya qilishi va ularni bajarmagan shaxslarga nisbatan murosasiz bo‘lishi

huquqiy davlat

jamiyatning irodasini ifoda etuvchi va uni aks ettiruvchi, qonunning ustuvorligiga asoslangan umumiy tashkilot, huquqning hukmronligi va ustuvor, haqiqiy xalq hokimiyati, yuqori darajadagi siyosiy-huquqiy madaniyatga erishgan demokratik davlat.

huquq

davlatning irodasini ifodalaydigan va uning kuch bilan himoya qiladigan umumiy majburiy normalar majmuasi (tizimi). huquq to‘g‘risidagi bunday tasavvur mamlakatimiz yuridik adabiyotidagina emas, xorijiy yuridik adabiyotida ham juda keng tarqalgan.

huquq ijodkorligi

davlat faoliyatining muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, uning faollik shaklidir. davlat faoliyatining bu sohadagi bevosita maqsadi huquq normalarini shakllantirish, ularni o‘zgartirish, to‘ldirish yoki bekor qilishdir.

huquq ijodkorligi o‘zining ijtimoiy mohiyati bo‘yicha davlat iro...

huquq manbai

vakolatli davlat organi yoki referendum (umumxalq ovozi) orqali qabul qilingan, huquq normalarni o‘rnatuvchi huquqiy akt. huquq manbai normativ qoidalar va huquq ijodkorligi faoliyatining tashqi shakli. huquq manbai (normativ hujjat) bo‘lib, mamlakat konstitutsiyasi, konstitutsiyaviy qonunlar, ...**huquq normalari**

davlat tomonidan o‘rnatiladigan va ma‘qullanadigan, muayyan shaklda ifodalanadigan, ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan umummajburiy xulq-atvor qoidalari. bu qoidalarni buzish yuridik javobgarlikka olib keladi. h.n. ularda mustahkamlangan qoidalarining xarakteriga qarab huquq...

huquq sub’ekti

davlat tomonidan sub’ektiv huquqlar va yuridik majburiyatlar egasi bo‘lish layoqatiga ega deb e‘tirof etilgan shaxs yoki tashkilot. hozirgi yuridik adabiyotlarda “huquq sub’ekti” tushunchasi ko‘pincha “sub’ekt” yoki “huquqiy munosabatlar sub’ekti” tushunchasining sinonimi sifatida qo‘llaniladi.

huquq tizimi

huquqning ichki tuzilishi bo‘lib, jamiyatdagi mavjud munosabatlarga bog‘liq ravishda, huquqni tashkil etish tartibini va tarkibiy qismlarini joylashishini ko‘rsatib beradi. huquq tizimi u yoki bu mamlakatdagi ijtimoiy munosabatlarni huquqiy mavjudligini aks ettiruvchi huquqning ichki shakli sifatida...

huquq funksiyalari

huquqning jamiyat va davlat hayotidagi o‘rni va ahamiyatini ko‘rsatuvchi funksiyalar. ularning real mazmuni va ijtimoiy ahamiyati ko‘p jihatdan davlatning xususiyati bilan belgilanadi.

huquqiy munosabat

huquq normalari bilan tartibga solingan ijtimoiy munosabat bo‘lib, uning qatnashchilari davlat tomonidan himoya qilinadigan va kafolatlanadigan sub’ektiv huquqlar va yuridik majburiyatlarning sohiblaridir. ularning o‘ziga xos belgilari va xususiyatlari:

huquqiy odat

jamiyatda ko‘p marta va uzoq muddat qo‘llanilishi natijasida vujudga kelgan va davlat tomonidan ma‘qullangan fe‘l-atvor qoidasi, h.o. ning o‘ziga xos belgilari va xususiyatlari asosan huquqiy bo‘lmagan odatlarda ko‘p uchraydigan belgilarga o‘xshashdir. uning faqat bir farqi bor, ya‘ni h.o. yuridik ...

huquqiy tartibotni saqlash

qonuniylik rejimi (qarang: qonuniylik) maqsadlariga uning pirovard natijasi sifatida mavjud huquqiy yo‘riqnomalarga binoan ijtimoiy munosabatlar (huquq-tartibot) yo‘lga qo‘yilishiga erishishga oid choralar yig‘indisi. «huquqiy tartibotni saqlash» umumiy qabul qilingan «jamoat tartibini saqlash»...

huquqiy hujjat

davlat hokimiyati yoki mahalliy o‘zini-o‘zi boshqarish vakolatli organidan, mansabdor shaxsdan chiqadigan rasmiy yozma hujjat bo‘lib, unda ijtimoiy munosabat qatnashchilari fe‘l-atvorining muayyan qoidalari belgilab qo‘yilgan bo‘ladi.

huquqni qo‘llash

vakolatli davlat organlari va mansabdor shaxslarining qonun bilan o‘rnatilgan tartibda huquq normasini amalga oshirishining shakllaridan biri hisoblanadi. U sub’ektlarning huquqni bajarishga qaratilgan xatti - harakatlari majmuidan iborat bo‘ladi.

VIII ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. Raxbariy adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M.. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutq .Sh.M. Mirziyoev. –Toshkent : O‘zbekiston, 2016.

2. Mirziyoyev Sh.M Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. Mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma’ruza, 2017-yil 14-yanvar / Sh.M. Mirziyoyev. – Toshkent : O‘zbekiston, 2017

3. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruza. 2016 yil 7 dekabr /Sh.M.Mirziyoyev. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2017. – 48 b (.pdf 22 Mb.).

4. Mirziyoyev Sh.M Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Mazkur kitobdan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2016yil 1-noyabrdan 24-noyabrga qadar Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri saylovchilari vakillari bilan o‘tkazilgan saylovoldi uchrashuvlarida so‘zlagan nutqlari o‘rin olgan. /Sh.M.Mirziyoev. – Toshkent: : “O‘zbekiston”, 2017. –

5. Mirziyoyev Sh.M Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. Toshkent.:”O‘zbekiston, 2017,

6. Mirziyoyev Sh.M Jismoniy va ma’naviy yetuk yoshlar - ezgu maqsadlarimizga yetishda tayanchimiz va suyanchimizdir.

7. Prezident Shavkat Mirziyoyevning «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakatining IV qurultoyidagi nutqi 2017-yil iyun

II. Normativ - huquqiy xujjatlar

8. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. -T., 2017.

10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi 2017-yil 7-fevraldagi №4947 sonli Farmoni

11. O‘zbekiston Respublikasining “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida” Qonuni 2015-yil 6-avgust

12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2017-yil 3-iyun Qarori

13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2018-yil 14-avgustdagi PQ-3907-son “Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarori

14. O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga karshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonuni “Xalq so‘zi”, 2017-yil 4-yanvar

15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-yanvardagi “Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida” PF-5618-son farmoni

16. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-maydagi O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida PF-5729-sonli farmoni

17. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida PF-6013-son Farmoni

18. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2020-yil 24-yanvar Oliy Majlisga Murojaatnomasi

III. Maxsus adabiyotlar

19. Sudyalar odob-axloqi qoidalari O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti xuzuridagi Sudyalarni tanlash va lavozimlarga tavsiya etish bo‘yicha oliy malaka komissiyasining 2013-yil 28-fevraldagi 5-sonli qarori

20. Jinoiy daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo‘yicha Yevrosië guruhi to‘g‘risidagi Bitim (Moskva, 2011-yil 16-iyun) ratifikatsiya qilish to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi qonuni 2011-yil 13-dekabr, O‘RQ-307-son (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2011- y., 50-son, 509-modda)

21. Korrupsiyaga qarshi BMT Konvensiyasi, BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 2003-y. 31-oktyabrda qabul qilingan,

22. Davlat mansabdor shaxslarining axloq-odobi to‘g‘risida Xalqaro Kodeks. BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 1996 y. 12 dekabrda da qilingan

23. BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 1979- y. 17-dekabrda q/qilingan, Rezolyusiya № 34/169,

24. Xorijiy davlatlarning mansabdor shaxslariga pora berishga qarshi kurash to‘g‘risida Konvensiya. 1999-y. 27-yanvarda Strasburgda q/qilingan,

25. O‘zbekiston Respublikasi Hukumati bilan Rossiya Federatsiyasi Hukumati o‘rtasidagi - Jinoyatchilikka qarshi kurashdagi o‘zaro hamkorlik to‘g‘risidagi Bitim. 1995-yil 27-iyul.

26. O‘zbekiston Respublikasi Hukumati bilan Qozog‘iston Respublikasi Hukumati o‘rtasida Jinoyatchilikka qarshi kurashda hamkorlik qilish to‘g‘risidagi Bitim. 1998- yil 30-oktyabr.

27. Abdurasulova Q.R. Jinoyatning maxsus sub’ekti. O‘quv qo‘llanma. - Toshkent: TDYuI. 2005. - 6 b.

28. Alauxanov Ye.O. Proyavlenie korrupsii v obshchestve // Pravovaya reforma v Kazaxstane. – 2006. - № 4.

29. Alauxanov Ye.O., Tursynbaev D.E. Borba s korrupsiyey v gosudarstvennykh organax Respubliki Kazaxstan: uchebnoe posobie / Pod red. Ye.O.Alauxanova. – Almaty: KazATK, 2008. – 287 s.

30. Axrarov B.D. Boshqaruv tartibiga qarshi mansabdorlik jinoyatlari uchun javobgarlik muammolari: Yurid. fan. dokt. dissertatsiya. – T., 2008. – B.143-146.

31. Zufarov R. Poraxoʻrlik- korrupsiya negizi Davlat va huquq. – 2000. № 4. – 41 b.
32. Zufarov R.A. Poraxoʻrlik uchun jinoiy javobgarlik. – T.: TDYuI, 2004. – B. 83-84.
33. Meliev X. Korrupsiya: uning oldini olishda antikorrupsiyaviy ekspertizaning oʻrni. Huquq va burch. № 7, 2008. – 42 b.
34. Mixaylov L.V. Borba s korrupsiyey v SShA (80-ye gody) // Voprosy istorii. 994. - №5.
35. Tojiboev Q. Mansab mavqeini suiisteʻmol qilish yoʻli bilan oʻzgalar mulkini talon-taroj qilganlik uchun javobgarlik. – T.: TDYuI, 2004. – B. 44. Sbornik mejdunarodnyx dokumentov i zakonodatelstva Respubliki Uzbekistan v sfere borby s korrupsiyey.-T.Sentr ovysheniya kvalifikatsii yuristov.2013.-496s.

IV. Internet web sayd materiallari

1. Interpol - <http://www.interpol.int/>
2. OBSE - <http://www.osce.org/>
3. YuNODK - <http://www.unodc.org/>
4. The Commission on Crime Prevention and Criminal Justice - <http://www.unodc.org/unodc/commissions/CCPCJ/index.html?ref=menutop>
5. United Nations Crime Congresses - <http://www.unodc.org/unodc/ru/crime-congress/crimecongresses.html?ref=menuside>
6. t.me/sh_mirziyoyev
7. [tb.com/ Mirziyoyev in](http://tb.com/Mirziyoyev)
8. <http://www.lex.uz>
9. <http://www.ziyonet.uz>
10. <http://www.gov.uz>
11. <http://www.nopma.uz>
12. <http://ed.sjtu.edu.cn/ranking.htm>
13. <http://education.guardian.co.uk>
14. <http://www.aboutstudy.ru>
15. <http://www.reitor.ru>

Mundarija

Kirish	4
I Korrupsiyaga qarshi xalqaro kurash siyosati va rasmiy hujjatlar	10
II Korrupsiyaga qarshi kurash tarixi	25
III Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha xalqaro tajriba	41
IV Korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan tadbirlar	51
V Korrupsiyaga qarshi kurashish usullari	79
VI Xulosa	93
VII Glossariy	98
VIII Adabiyotlar ro'yxati	100

Hasanov A. X.

**KORRUPSIYA -
IJTIMOIY XAVFLI ILLAT**

Sport ta'lim muassasalari rahbarlari, rahbar o'rinbosarlari, jismoniy tarbiya bo'yicha mutaxassislar, instruktor-metodistlar, trener-o'qituvchilar va yosh sportchilar uchun uslubiy qo'llanma.

Bosishga 10.04.2021 ruxsat etildi
Bichimi 60x84 ¹/₁₆, «Times New Roman» garniturasida, Ofset qog'ozi
Bosma tabog'i 6,5 p.l. Adadi 50 nusxa. Buyurtma № 39
«UMID DESIGN» nashriyoti
«UMID DESIGN» XK bosmaxonasida chop etildi.
O'zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri
Navoiy ko'chasi 22-uy